

**“INSONNING NAFAS OLIISH, SIYDIK AJRATISH, REPRODUKTIV VA
ENDOKRIN TIZIMLARINING FUNKSIONAL ANATOMIYASI”**

O‘quv qo‘llanma

(Odam anatomiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun)

60910200 – Davolash ishi

Farg‘ona 2026

Muallif:

Jaloliddinov Sherzodbek Ikromjon o'g'li.	“Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti” Normal anatomiya kafedrası assistent o‘qituvchisi.
---	---

Taqrizchilar:

N.X. Fattoxov	Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Fakultet va gospital jarroxlik kafedra mudiri, DSc
N.I. Maxmudov	Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi Farg‘ona filiali t.f.n. Dotsent.

Annotatsiya. Ushbu o‘quv qo‘llanma tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarining davolash fakulteti talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, insonning **nafas olish, siydik ajratish, reproduktiv va endokrin tizimlarining funksional anatomiyasini** chuqur o‘rganishga qaratilgan. Qo‘llanmada nafas olish tizimi organlarining anatomik va funksional tuzilishi, tashqi nafas olish jarayonlari, gaz almashinuvi mexanizmlari, shuningdek, nafas olish faoliyatining qon bilan ta‘minlanishi va nerv-gumoral boshqaruvi tizimli ravishda bayon etilgan.

Siydik ajratish tizimi bo‘limida buyraklar va siydik yo‘llarining tuzilishi hamda funksiyalari, siydik hosil bo‘lishining asosiy bosqichlari — filtratsiya, reabsorbsiya va sekretsia jarayonlari yoritilib, ularning organizmda suv-elektrolit va kislota-ishqor muvozanatini saqlashdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan.

Qo‘llanmada erkak va ayol reproduktiv tizimining funksional anatomiyasiga alohida e‘tibor qaratilib, gametogenez jarayonlari, gormonal regulyatsiya mexanizmlari hamda ularning klinik ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, endokrin tizimga bag‘ishlangan bo‘limda endokrin bezlarning anatomik tuzilishi, gormonlar sekretiysi va ularning organizm gomeostazini ta‘minlash hamda organ va tizimlar faoliyatini integratsiyalashdagi ro‘li batafsil bayon etilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. NAFAS OLISH TIZIMI (Systema respiratorium)	6
Nafas olish tizimining umumiy tavsifi	6
Filogenezdagi rivojlanish bosqichlari	7
Ontogenezdagi rivojlanishi	8
Nazorat savollari	9
Tashqi burun (Nasus externus) va burun bo'shlig'i (Cavitas nasi)	9
Nazorat savollari.....	18
Hiqildoq (Larynx)	19
Nazorat savollari.....	28
Kekirdak (Traxea)	28
Nazorat savollari.....	32
Bronxlar (Bronchi)	32
Nazorat savollari.....	34
O'pka (Pulmonis, Pneumo)	34
Nazorat savollari.....	43
Plevra (Pleura)	43
Nazorat savollari.....	44
Ko'ks oralig'i (Mediastinum)	45
Nazorat savollari.....	47
II BOB. SIYDIK AJRATISH TIZIMI	47
Buyraklar (Renes)	51
Nazorat savollari.....	57
Siydik nayi (Ureter)	57
Nazorat savollari.....	59
Siydik pufagi (Vesica urinaria)	59
Nazorat savollari.....	63
III BOB. JINSIY TIZIM (Systema genitalia)	63
Erkak jinsiy a'zolari (Organa genitalia masculina)	68
Moyak	68
Nazorat savollari.....	73
Urug' yo'li (Ductus deferens)	74
Nazorat savollari.....	76
Urug' pufagi (Vesica seminalis)	76
Nazorat savollari.....	78
Prostata bezi (Prostata)	79
Nazorat savollari.....	81
Erkak siydik chiqarish kanali (Urethra masculina)	85

Nazorat savollari.....	88
Ayol jinsiy a'zolari (Organa genitalia feminina)	96
Nazorat savollari.....	97
Tuxumdon (Ovarium, Ophoron)	99
Nazorat savollari.....	100
Bachadon (Uterus, Metra, Histera)	100
Nazorat savollari.....	104
Bachadon nayi (Tuba uterina Salpinx)	104
Nazorat savollari.....	107
Qin (Vagina)	107
Nazorat savollari.....	111
Tashqi ayol jinsiy a'zolari (Organa genitalia externa feminina)	111
Nazorat savollari.....	113
Ayol siydik chiqarish kanali (Urethra feminine)	113
Nazorat savollari.....	115
IV BOB. ENDOKRIN TIZIM	123
Endokrin bezlarning umumiy tavsifi	123
Qalqonsimon bez	126
Nazorat savollari.....	135
Paratireoid bezlar	136
Nazorat savollari.....	141
Oshqozon osti bezining endokrin qismi	143
Nazorat savollari.....	146
Buyrak usti bezlari	147
Nazorat savollari.....	156
Gipofiz bezi	158
Nazorat savollari.....	163
Gormonlar va gomeostaz	173
Nazorat savollari.....	176
Mustaqil tayyorgarlik uchun testlar	177
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	202

KIRISH

Inson organizmining hayotiy faoliyati turli organ va tizimlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda muvofiqlashtirilgan faoliyati orqali ta‘minlanadi. Nafas olish, siydik ajratish, reproduktiv va endokrin tizimlar organizmda moddalar almashinuvi, ichki muhit barqarorligi, ko‘payish hamda fiziologik jarayonlarning gormonal boshqaruvida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimlarning funksional anatomiyasini o‘rganish ularning tuzilishi va bajaradigan vazifalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushunish imkonini beradi.

Nafas olish tizimi organizmni kislorod bilan ta‘minlash va moddalar almashinuvi natijasida hosil bo‘ladigan karbonat angidridni tashqariga chiqarish vazifasini bajaradi. Ushbu tizimga havo o‘tkazuvchi yo‘llar va o‘pka kirib, ularning anatomik tuzilishi tashqi nafas olish va gazlar almashinuvi jarayonlarining samarali kechishini ta‘minlaydi. Nafas olish tizimi qon aylanish tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, to‘qimalar darajasida kislorod yetkazib berilishi va karbonat angidridning chiqarilishi aynan shu tizimlar hamkorligida amalga oshadi.

Siydik ajratish tizimi organizmda almashinuv jarayonlari natijasida hosil bo‘lgan zararli va ortiqcha moddalarni chiqarish, suv-elektrolit hamda kislota-ishqor muvozanatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Buyraklar, siydik yo‘llari va siydik pufagi orqali amalga oshadigan filtratsiya, reabsorbsiya va sekretsia jarayonlari organizm ichki muhitining barqarorligini ta‘minlaydi.

Reproduktiv tizim inson naslini davom ettirishni ta‘minlovchi murakkab biologik tizim bo‘lib, erkak va ayol jinsiy organlarining anatomik va funksional xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ushbu tizimda gametogenez jarayonlari, urug‘lanish, homiladorlik va reproduktiv funksiyaning saqlanishi endokrin tizim bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshadi.

Endokrin tizim esa organizm faoliyatini gormonlar orqali boshqaruvchi muhim regulyator tizim hisoblanadi. Endokrin bezlar tomonidan ishlab chiqariladigan biologik faol moddalar modda almashinuvi, o‘shish va rivojlanish, jinsiy yetilish, moslashuv va gomeostaz jarayonlarini muvofiqlashtiradi. Endokrin tizimning

anatomik tuzilishi va funksional imkoniyatlari nerv tizimi bilan birgalikda organizmning yagona boshqaruv mexanizmini tashkil etadi.

Shunday qilib, nafas olish, siydik ajratish, reproduktiv va endokrin tizimlarning funksional anatomiyasini o'rganish tibbiyot talabalari uchun normal va patologik jarayonlarni tushunish, klinik fikrlashni shakllantirish hamda kelajakdagi amaliy faoliyat uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

I BOB. NAFAS OLISH TIZIMI, *SYSTEMA RESPIRATORIUM*

Mashg'ulotning maqsadi:

Mazkur mashg'ulotning asosiy maqsadi talabalarda nafas olish tizimining topografiyasi, anatomik tuzilishi va funksional xususiyatlari bo'yicha tizimli bilimlarni shakllantirishdan iborat. Mashg'ulot davomida talabalar nafas olish tizimi organlarini aniqlash, ularning joylashuvi, tashqi va ichki tuzilishini nomlash hamda ko'rsatishni o'rganadilar.

Shuningdek, yuqori va quyi nafas yo'llari, o'pkaning bo'laklari va segmentlari, alveolyar apparat, nafas olish mexanizmi, gazlar almashinuvi hamda nafas olish tizimining qon bilan ta'minlanishi va innervatsiyasi haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar.

O'quv-uslubiy ta'minot:

Mashg'ulotni samarali tashkil etish va o'quv jarayonini vizual hamda amaliy jihatdan boyitish maqsadida quyidagi o'quv-uslubiy vositalardan foydalaniladi: anatomiya faniga oid ma'ruza materiallari; nafas olish tizimiga bag'ishlangan o'quv adabiyotlari va darsliklar; nafas olish tizimi organlarining anatomik mulajlari va modellari; jadval, sxema va diagrammalar; ho'l anatomik preparatlar (o'pka, traxeya, bronxlar).

Nazariy ma'lumotlar:

Nazariy qism nafas olish tizimining umumiy tavsifi, uning tarkibiy qismlari va ularning funksional ahamiyatini o'z ichiga oladi. Yuqori nafas yo'llari (burun bo'shlig'i, halqum) va quyi nafas yo'llari (hiqildoq, traxeya, bronxlar)ning tuzilishi, o'pkaning makro- va mikroanatomiyasi, alveolalarda kechadigan gazlar almashinuvi jarayonlari yoritiladi.

Bundan tashqari, tashqi nafas olish mexanizmi, ko'krak qafasi harakati, diafragma va nafas muskullarining roli, shuningdek, nafas olish tizimining yurak-qon tomir tizimi bilan funksional bog'liqligi tahlil qilinadi. Ushbu bilimlar talabalarda normal fiziologik jarayonlarni tushunish hamda keyingi klinik fanlarni o'zlashtirish uchun mustahkam anatomik asos yaratadi.

Nafas olish tizimi (Systema respiratorium)

Nafas olish tizimi organizmning hayotiy muhim tizimlaridan biri bo'lib, u tashqi muhitdan kislorodni o'pkalar orqali qonga yetkazish hamda modda almashinuvi jarayonida hosil bo'ladigan karbonat angidridni nafas chiqarish orqali organizmdan chiqarib yuborishni ta'minlaydi.

Nafas olish tizimi tarkibida **havo o'tkazuvchi yo'llar** va **asosiy nafas olish a'zosi** — **o'pkalar** farqlanadi.

Nafas olish tizimining filogenezdagi rivojlanish bosqichlari

Nafas olish tizimining evolyutsion rivojlanishida quyidagi asosiy bosqichlar ajratiladi:

Diffuz tip (eng sodda organizmlar). Past tuzilgan umurtqasiz hayvonlarda maxsus nafas olish a'zolari mavjud emas. Gazlar almashinuvi butun tana yuzasi orqali amalga oshadi. Masalan, halqali chuvalchanglarda teri yaxshi qon tomirlar bilan ta'minlangan bo'lib, kislorod to'g'ridan-to'g'ri kapillyarlarga diffuziya yo'li bilan o'tadi.

Jabra tipidagi nafas olish (baliqlar). Suvda yashovchi hayvonlarda nafas olish a'zolari sifatida jabralar shakllanadi. Jabra apparati birlamchi ichak devoridan hosil bo'lib, unda ko'plab qon tomirlari joylashgan jabra yaproqchalari mavjud bo'ladi. Aynan shu tuzilmalar orqali suvdan kislorod ajratib olinadi.

Traxeyal tip (hasharotlar). Hasharotlarda maxsus nafas olish tizimi — kekirdak tizimi rivojlangan bo'lib, kislorod to'g'ridan-to'g'ri to'qimalarga yetkaziladi.

O'pka tipidagi nafas olish (sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar). Quruqlik muhitiga moslashish jarayonida jabralar o'rnini havo muhitida nafas olishga moslashgan o'pkalar egallaydi. Amfibiyalar lichinka davrida jabralar,

voyaga yetgach esa o'pkalar yordamida nafas oladi. Ularda o'pkaning yetarlicha rivojlanmaganligi sababli teri orqali nafas olish ham saqlanib qolgan.

Nafas olish tizimining ontogenezdagi rivojlanishi

Sutemizuvchilar va insonda nafas olish a'zolari embrional rivojlanishning uchinchi haftasida shakllana boshlaydi. Ular birlamchi ichakning ventral devoridan hosil bo'lgan bo'rtma ko'rinishida paydo bo'ladi. Ushbu bo'rtma keyinchalik hiqildoq-traxeyal o'smaga aylanadi.

Kranial qismi doimiy ravishda hazm va nafas yo'llari o'rtasida umumiy bo'lib qoladi. Kaudal qismi esa to'rtinchi haftada ikkita assimetrik o'pka pufakchasiga bo'linib, kelajakdagi o'pkalarning asosini tashkil etadi.

Nafas yo'llarining epiteliysi endodermadan, tog'aylar, mushaklar, qon va limfa tomirlari esa mezenximadan rivojlanadi.

Nafas olish tizimining funksiyalari

Asosiy funksiyalar: tashqi nafas olish; gazlar almashinuvi; termoregulyatsiya; drenaj funksiyasi.

Qo'shimcha funksiyalar: hid sezish; tovush hosil qilish; nutq shakllanishida ishtirok etish.

O'pkalarning maxsus funksiyalari: qonni depo qilish; qon ivishini boshqarish; qonni filtrlash; suv-tuz almashinuvi va kislota-ishqor muvozanatini saqlash; immun va parakrin funksiyalar.

Nafas yo'llari va o'pkalarning umumiy tuzilishi. Havo tashqi muhitdan o'pkalarga yuqori va pastki nafas yo'llari orqali yetkaziladi.

Yuqori nafas yo'llari: burun bo'shlig'i; burun atrofidagi qo'shimcha bo'shliqlar; halqumning burun va og'iz qismlari.

Pastki nafas yo'llari: hiqildoq; kekirdak; bronxlar va ularning tarmoqlari.

Nafas yo'llari devorlari tog'ay yoki suyak asosiga ega bo'lib, ichki tomondan kiprikli epiteliy bilan qoplangan shilliq qavatga ega. Ular havoni o'tkazish, tozalash, namlash va isitish vazifalarini bajaradi.

O'pkalar

O'pkalar — juft a'zolar bo'lib, alveolyar acinuslar yordamida gazlar almashinuvi amalga oshadi. Alveolalar orqali kislorod eritrotsitlarga o'tadi, karbonat angidrid esa chiqariladi. O'pkalar, shuningdek, endokrin faoliyatga ham ega.

Yoshga oid anatomik xususiyatlar: yangi tug'ilganlarda burun bo'shlig'i va qo'shimcha bo'shliqlar yetarlicha rivojlanmagan. Hiqildoq yuqoriroq joylashgan bo'lib, 13 yoshga kelib kattalar holatiga yetadi. Kekirdak qisqa va harakatchan. O'pkalar ko'krak qafasiga nisbatan katta. Bronx mushak qavati yaxshi rivojlangan. O'rta ko'ks oralig'i (mediastinum) nisbatan keng bo'ladi.

Nafas olish tizimini tekshirish usullari: klinik usullar: auskultatsiya, perkussiya; Instrumental usullar; Rentgenologik tekshiruvlar (jumladan, flyuorografiya); Kompyuter tomografiya (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT); Spiroografiya.

Metodik ko'rsatmalar

1. Nafas olish tizimining umumiy tuzilishi va vazifalarini (havo o'tkazuvchi va gaz almashinuvi qismlari) o'rganish.
2. Nafas olish tizimining qon bilan ta'minlanishi va innervatsiyasining umumiy prinsiplarini bilish.
3. Nafas olishning mexanizmi va gaz almashinuvdagi ahamiyatini tushunish.

Nazorat savollari

1. Nafas olish tizimi qanday bo'limlardan iborat?
2. Havo o'tkazuvchi va respirator qismlariga qaysi organlar kiradi?
3. Nafas olish tizimining asosiy vazifalarini sanab bering.
4. Nafas olish tizimining qo'shimcha vazifalari qaysilar?
5. Tashqi va ichki nafas olish tushunchalarini izohlang.
6. Gaz almashinuvi qayerda va qanday amalga oshadi?
7. Nafas olish tizimining qon bilan ta'minlanishining umumiy prinsiplari qanday?
8. Nafas olish organlarining innervatsiyasi qanday nervlar orqali ta'minlanadi?

9. Nafas olish tizimining klinik anatomiyadagi ahamiyati nimada?

Tashqi burun (Nasus externus) va burun bo'shlig'i (Cavitas nasi)


1. Funksiyasi. Havo o'tkazuvchi yo'llarning boshlang'ich bo'limi tashqi burun — **nasus externus** va ichki burun, ya'ni burun bo'shlig'i — **cavitas nasi** bilan ifodalanadi. Ushbu tuzilmalar orqali tashqi muhitdan kirayotgan havo dastlabki ishlovdan o'tkaziladi.

Burun bo'shlig'ida havo: chang va mexanik zarrachalardan tozalanadi; shilliq qavat orqali namlanadi; boy qon tomir tarmog'i yordamida isitiladi.

Natijada o'pkalarga yetib boradigan havo fiziologik jihatdan moslashtirilgan holatga keltiriladi.

2. Rivojlanish manbai (embrional kelib chiqishi). Tashqi burun va burun bo'shlig'ining suyak asosining rivojlanishi bosh suyaklari, og'iz bo'shlig'i hamda hid bilish analizatorining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Ushbu tuzilmalarning embrional asosini birlamchi ichakning boshlang'ich qismiga tutashgan **mezenxima** tashkil etadi. Burun bo'shlig'ining shilliq qavatini qoplab turuvchi epiteliy esa **endodermadan** rivojlanadi. Shu tarzda, burun tuzilmalarining rivojlanishida mezenximal va endodermal komponentlarning o'zaro muvofiqlashgan ishtiroki muhim ahamiyatga ega.




1. rasm. Burun tog‘aylari, yon tomondan ko‘rinishi:

1 – yonoq suyagi, *os zygomaticum*; 2 – ko‘z yosh suyagi, *os lacrimale*; 3 – peshona suyagi, *os frontale*; 4 – burun suyagi, *os nasale*; 5 – yuqori jag‘ning peshona o‘simtasi, *processus frontalis maxillae*; 6 – burunning yon tog‘aylari, *cartilago nasi lateralis*; 7 – burunning qo‘shimcha tog‘aylari, *cartilago nasi accessoria*; 8 – burun qanotining katta tog‘ayi, *cartilago alaris major* (yon oyoqchasi — *crus lateralis*); 9 – burun qanotining kichik tog‘aylari, *cartilagines alaris minores*; 10 – umumiy teri qoplami, *integumentum commune*; 11 – burun teshigi, *naris*.

3. Burun bo‘shlig‘ining topografiyasi. Tashqi burun yuz skeletining tarkibiy qismi bo‘lib, shaklan noto‘g‘ri uch qirrali piramidaga o‘xshash holda oldinga chiqib turadi. U yuzning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, nafas olish tizimining boshlang‘ich tashqi bo‘limini tashkil etadi.

Burun bo'shlig'i anatomik jihatdan muhim tuzilmalar orasida joylashgan: yuqoridan — oldingi kalla chuqurchasi bilan; pastdan — og'iz bo'shlig'i bilan; yon tomondan — ko'z kosalari (orbitalar) bilan chegaralanadi.


Bunday topografik joylashuv burun bo'shlig'ining nafas olish, hid bilish va rezonatorlik funksiyalarini bajarishda, shuningdek, qo'shni anatomik tuzilmalar bilan funksional va klinik aloqalarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.



2 -rasm. Burun yo'llari:

1 – qattiq tanglay, *palatum durum*; 2 – kesuvchi kanal, *canalis incisivus*; 3 – yuqori lab, *labium superius*; 4 – pastki burun yo'li, *meatus nasi inferior*; 5 – pastki burun chig'anog'i, *concha nasalis inferior*; 6 – burun dahlizi, *vestibulum nasi*; 7 – burun ostonasi, *limen nasi*; 8 – o'rta burun yo'li, *meatus nasi medius*; 9 – o'rta burun chig'anog'i, *concha nasalis media*; 10 – o'rta burun yo'li dahlizi, *atrium meatus medii*; 11 – burun valigi, *agger nasi*; 12 – burun suyagi, *os nasale*; 13 – burunning hid bilish egati, *sulcus olfactorius nasi*; 14 – yuqori burun yo'li, *meatus nasi superior*; 15 – yuqori burun chig'anog'i, *concha nasalis superior*; 16 – peshona bo'shlig'i (sinusi), *sinus frontalis*; 17 – xo'roz tarog'i, *crista galli*; 18 – sfenoid-ellimon chuqurcha, *recessus sphenoidal*; 19 – sfenoid bo'shlig'i teshigi, *apertura sinus sphenoidal*; 20 – sfenoid bo'shlig'i, *sinus sphenoidal*; 21 – burun-

halqum yo‘li, *meatus nasopharyngeus*; 22 – klivus (qiya yuzasi), *clivus*; 23 – halqum bodomsimon bezi, *tonsilla pharyngealis*; 24 – atlasning oldingi yoyi, *arcus anterior atlantis*; 25 – o‘q umurtqa, *axis*; 26 – quvur-halqum burmasi, *plica salpingopharyngea*; 27 – yumshoq tanglay, *palatum molle*; 28 – eshituv nayining halqum teshigi, *ostium pharyngeum tubae auditivae*; 29 – quvur-tanglay burmasi, *plica salpingopalatina*.



3-rasm. Burun yo‘llarining burun atrofi bo‘shliqlari (paranasal sinuslar) bilan tutashuvi sxemasi:

1 – burun–ko‘z yosh kanali, *canalis nasolacrimalis*; 2 – peshona bo‘shlig‘i (sinusi), *sinus frontalis*; 3 – oldingi va o‘rta elaksimon hujayralar, *cellulae ethmoidales anteriores et mediae*; 4 – orqa elaksimon hujayralar, *cellulae ethmoidales posteriores*; 5 – sfenoid bo‘shlig‘i (sinusi), *sinus sphenoidalis*; 6 – sfenoid–tanglay teshigi, *foramen sphenopalatinum*; 7 – kesuvchi kanal, *canalis incisivus*; 8 – katta tanglay kanali, *canalis palatinus major*; 9 – yuqori burun chig‘anog‘i, *concha nasalis superior*; 10 – o‘rta burun chig‘anog‘i, *concha nasalis media*; 11 – pastki burun chig‘anog‘i, *concha nasalis inferior*.

4. Anatomik tuzilishi. Tashqi burun (Nasus externus)

Tashqi burun yuz skeletining oldingi qismida joylashgan bo‘lib, bir qator anatomik qismlardan iborat:

- **Burun ildizi (radix nasi)** — yuzning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, peshona bilan burun orasida joylashgan peshona oralig‘i (glabella) orqali chegaralanadi.
- **Burun orqasi (dorsum nasi)** — burunning yon yuzalarining o‘rta chiziqda qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi.
- **Burun uchi (apex nasi)** — burun orqasining pastki qismi hisoblanadi.
- **Burun qanotlari (alae nasi)** — yon yuzalarning pastki qismlari bo‘lib, burun teshiklarini — **nozdrilarni (nares)** chegaralaydi.

Burun bo‘shlig‘i (**Cavitas nasi**). Burun bo‘shlig‘i burun to‘sig‘i (**septum nasi**) yordamida o‘zaro mutlaq simmetrik bo‘lmagan ikkita yarmga bo‘linadi. Old tomondan burun bo‘shlig‘i tashqi muhit bilan **nozdrilar (nares)** orqali tutashadi. Orqa tomondan esa **xoanalar (choanae)** orqali burun-halqum bilan tutashadi.

Har bir burun bo‘shlig‘i yarmida to‘rtta devor farqlanadi: yuqori devor; pastki devor; lateral (yon) devor; medial (o‘rta) devor.

5. Gistologik va morfologik tuzilishi. Suyak va tog‘ay skeleti. Burun bo‘shlig‘i devorlarining asosini suyak-tog‘ay skeleti tashkil etadi. Burun bo‘shlig‘i devorlarida ishtirok etuvchi suyaklar:

Yuqori devor: peshona suyagining burun qismi; g‘alvirsimon suyakning g‘alvirsimon plastinkasi; ponasimon suyagining oldingi va pastki yuzalari.

Pastki devor: yuqori jag‘ suyagining tanglay o‘simtasi; tanglay suyagining gorizontall plastinkasi (bular birgalikda qattiq tanglayni hosil qiladi).

Lateral devor: burun suyagi; yuqori jag‘ suyagining peshona o‘simtasi va burun yuzasi; ko‘z yoshi suyagi; g‘alvirsimon suyak labirinti; pastki burun chig‘anog‘i; tanglay suyagining perpendikulyar plastinkasi; ponasimon suyagining qanotsimon o‘simtasining medial plastinkasi.

Medial devor (burun to‘sig‘i): g‘alvirsimon suyagining perpendikulyar plastinkasi; so‘shnik; ponasimon suyagining tumshuq va qirrasi; yuqori jag‘ va tanglay suyaklarining burun qirrasi; peshona suyagining burun qismi o‘si.

Burun tog‘aylari. Suyak skeleti quyidagi tog‘aylar bilan to‘ldiriladi:

Yon burun tog‘ayi (cartilago nasi lateralis) — juft, tashqi burunning yon devorini shakllantirishda ishtirok etadi;

Burun qanotining katta tog‘ayi (cartilago alaris major) — juft, burun bo‘shlig‘iga kirish qismini va nozdrilarni chegaralaydi;

Burun qanotining kichik tog‘aylari (cartilagine nasii minores) — har bir tomonda 2–3 tadan bo‘lib, katta qanot tog‘ayidan orqaroqda joylashadi;

Burun to‘sig‘i tog‘ayi (cartilago septi nasi) — juft bo‘lmagan, burun to‘sig‘ining oldingi qismini hosil qiladi.

Ba‘zan yon va katta qanot tog‘aylari orasida turli o‘lchamdagi qo‘shimcha burun tog‘aylari (**cartilagine nasales accessorii**) uchrashi mumkin.

Teri va shilliq qavat. Tashqi burunning suyak-tog‘ay skeleti tashqi tomondan yupqa teri bilan qoplangan bo‘lib, u burunning mimik mushaklari bilan chambarchas bog‘langan. Teri ichkariga davom etib, burun bo‘shlig‘ining oldingi qismi — burun dahlizi (**vestibulum nasi**) devorlarini qoplaydi. Bu sohada: yog‘ va ter bezlari; qattiq tuklar — **vibrissalar** joylashgan.

Burun bo‘shlig‘ining ichki yuzasi shilliq qavat bilan qoplangan bo‘lib: oldingi qismda teri bilan tutashadi; orqa tomonda halqum shilliq qavatiga o‘tadi.

Shilliq qavatning funksional moslanishlari. Burun shilliq qavati nafas olayotgan havoni qayta ishlash uchun maxsus moslashuvlarga ega:

Kiprikli epiteliy — chang zarralarini tutib qoladi va kipriklarning tebranishi orqali tashqariga chiqaradi.

Burun bezlari (glandulae nasi) — shilimshiq ishlab chiqarib, havoni namlaydi va changni o‘rab chiqarishga yordam beradi.

Venoz tomir pleksuslari — ayniqsa pastki burun chig‘anog‘i va o‘rta chig‘anoqning pastki chetida yaxshi rivojlangan bo‘lib, g‘ovak tanachalarga o‘xshaydi. Ular havoni isitishda muhim rol o‘ynaydi va shikastlanganda burundan qon ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Burun yo‘llari (Meatus nasi). Burun bo‘shlig‘ida to‘rtta burun yo‘li farqlanadi:

Umumiy burun yo‘li (meatus nasi communis) — burun to‘sig‘i bilan burun chig‘anoqlari orasida;

Pastki burun yo‘li (meatus nasi inferior) — pastki burun chig‘anog‘i bilan burun bo‘shlig‘i tubi orasida (bu yo‘lga ko‘z-yosh kanali ochiladi);

Oʻrta burun yoʻli (meatus nasi medius) — pastki va oʻrta burun chigʻanoqlari orasida;

Yuqori burun yoʻli (meatus nasi superior) — oʻrta va yuqori burun chigʻanoqlari orasida.

Burun atrofidagi qoʻshimcha boʻshliqlar (**Sinus paranasales**). Burun yoʻllari kalla suyagidagi havo bilan toʻlgan boʻshliqlar — qoʻshimcha burun boʻshliqlari bilan tutashadi. Ularning vazifalari: yuz skeletini yengillashtirish; haroratni barqaror saqlash; rezonatorlik; himoya funksiyasi.

Qoʻshimcha boʻshliqlarga quyidagilar kiradi:

Yuqori jagʻ (gaymor) boʻshligʻi — sinus maxillaris (oʻrta burun yoʻliga ochiladi);

Peshona boʻshligʻi — sinus frontalis (oʻrta burun yoʻliga ochiladi);

Gʻalvirsimon hujayralar — cellulae ethmoidales (yuqori va oʻrta burun yoʻllariga ochiladi);

Ponasimon boʻshliq — sinus sphenoidalis (yuqori burun yoʻliga ochiladi).

Burun boʻshligʻining funksional zonalari. Shartli ravishda burun boʻshligʻi ikki qismga boʻlinadi:

Nafas olish sohasi (regio respiratoria) — oʻrta va pastki burun yoʻllari darajasida;

Hid bilish sohasi (regio olfactoria) — yuqori burun yoʻli va burun toʻsigʻining tegishli qismida joylashgan.

Hid bilish sohasida hid bilish analizatorining boshlangʻich boʻgʻini boʻlgan neyrosekretor hid bilish hujayralari joylashgan.

6. Yoshga oid anatomik xususiyatlar. Yangi tugʻilgan chaqaloqda burun boʻshligʻi past va tor boʻladi. Burun chigʻanoqlari nisbatan qalin boʻlib, ularning rivojlanishi toʻliq yakunlanmagan boʻladi.

Yuqori burun yoʻli tugʻilganda mavjud emas. **Oʻrta va pastki burun yoʻllari** sust rivojlangan. **Pastki burun chigʻanogʻi** burun boʻshligʻining tubiga tegib turadi. Burun chigʻanoqlari burun toʻsigʻigacha yetib bormaydi, shu sababli umumiy burun

yo‘li erkin bo‘lib, nafas olish asosan shu yo‘l orqali amalga oshadi. **Xoanalar** past joylashgan bo‘ladi.

Rivojlanish dinamikasi: **6 oyligida** burun bo‘shlig‘ining balandligi ortadi va o‘rta burun yo‘li shakllanadi; **2 yoshga kelib** — pastki burun yo‘li; **2 yoshdan so‘ng** — yuqori burun yo‘li rivojlanadi; **10 yoshda** burun bo‘shlig‘i hajmi taxminan 1,5 baravar, **20 yoshga kelib** esa 2 baravar kattalashadi; shu bilan birga uning kengligi ham ortadi.

Qo‘shimcha burun bo‘shliqlari (sinuslar) orasida yangi tug‘ilganda faqat yuqori jag‘ (**gaymor**) bo‘shlig‘i bo‘ladi va u ham sust rivojlangan. Qolgan sinuslar tug‘ilgandan keyin bosqichma-bosqich shakllanadi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. Burun va yuz sohasining embrional rivojlanishidagi buzilishlar turli tug‘ma nuqsonlarga olib kelishi mumkin:

Qiya yuz yorig‘i (coloboma) — lateral burun o‘simtalari bilan yuqori jag‘ o‘simtalarining qo‘shilmasligi natijasida yuzaga keladi.

Akrodizostoz — irsiy kasallik bo‘lib, qo‘l-oyoqlarning qisqarishi va deformatsiyasi, yuz suyaklarining o‘zgarishlari (cho‘kkan burun ildizi, qisqa burun, oldinga qayrilgan nozdrilar) hamda aqliy rivojlanishning sustligi bilan kechadi.

Ariniya — burunning tug‘ma yo‘qligi (aplaziyasi).

Kraniofasial dizostoz — kalla chokklarining erta yopilishi, keng kalla, baland peshona, ko‘zlar orasining kengligi (gipertelorizm), ekzoftalm, ilmoqsimon burun, pastki jag‘ning yetarli rivojlanmasligi bilan tavsiflanadi.

Angidrotik ektodermal displaziya — ter bezlarining tug‘ma yo‘qligi tufayli yuqori haroratga toqat qilmaslik, yupqa ajinli teri, cho‘kkan burun, tishlarning rivojlanish nuqsonlari yoki yo‘qligi, siyrak va mo‘rt sochlar bilan namoyon bo‘ladi.

Kamptommetrik displaziya — nomutanosib mittilik, boldir suyaklarining egriligi, kuraklar gipoplaziyasi, tor ko‘krak qafasi va yuz anomaliyalari bilan kechadi.

Yuz–barmoq–jinsiy displaziya — gipertelorizm, oldinga qayrilgan nozdrilar, keng yuqori lab, bog‘lamlarning bo‘shligi (oyoq chiqishi, yassi oyoqlik), barmoqlarning ortiqcha cho‘zilishi bilan xarakterlanadi.

Yuz yorig'i — peshona, burun va jag' o'simtalarining qo'shilmasligi natijasida yuz to'qimalarida yoriqlar paydo bo'lishi.

Tanglay yorig'i (palatoshizis) — og'iz va burun bo'shliqlari o'rtasida aloqa saqlanib qolishi (“bo'ri og'zi”).

Burun yorig'i (bifid burun) — burun orqasining o'rta chizig'i bo'ylab yoriq bo'lishi.

Rinocefaliya (salpingorinia) — burun ildizi sohasida teridan iborat “burun xartumi” hosil bo'lishi.

Sebotsefaliya — ikki ajralgan ko'z kosasi va rudimentar burun bilan kechuvchi rivojlanish nuqsoni.

8. Diagnostika usullari. Burun bo'shlig'ini tekshirishda quyidagi instrumental usullar qo'llaniladi: **Rentgenografiya** — burun–iyak (naso-mental) va burun–peshona (naso-frontal) proyeksiyalarida o'tkaziladi; tasvirlarda burun chig'anoqlari, burun to'sig'i va qo'shimcha burun bo'shliqlari aniqlanadi. **Kompyuter tomografiya (KT)** — burun bo'shlig'i va sinuslarning tuzilishini yuqori aniqlikda baholash imkonini beradi.

Metodik ko'rsatmalar

1. Tashqi burunning suyak va tog'ay qismlarini aniqlash.
2. Burun bo'shlig'ining bo'limlari: dahliz (vestibulum nasi) va haqiqiy burun bo'shlig'ini farqlash.
3. Burun to'sig'i, burun chig'anoqlari va burun yo'llarining tuzilishini o'rganish.
4. Burun bo'shlig'i shilliq qavatining vazifalari (isitish, namlash, filtrlash)ni tushunish.
5. Hid bilish zonasining joylashuvi va ahamiyatini bilish.

Nazorat savollari

1. Tashqi burunning skeleti qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Tashqi burunning suyak qismini hosil qiluvchi suyaklarni sanang.
3. Tashqi burunning tog'aylarini ayting.
4. Tashqi burun terisi va teri osti qavatining xususiyatlari qanday?

5. Tashqi burunning qon bilan ta'minlanishi qanday?
6. Tashqi burunning innervatsiyasi qaysi nervlar orqali amalga oshadi?
7. Tashqi burunning klinik ahamiyati nimada?
8. Burun bo'shlig'i qanday bo'limlardan iborat?
9. Burun dahlizi va haqiqiy burun bo'shlig'ining farqlari nimada?
10. Burun to'sig'ining tuzilishini tushuntiring.
11. Burun chig'anoqlari qaysi suyaklardan tashkil topgan?
12. Yuqori, o'rta va pastki burun yo'llarida qaysi tuzilmalar ochiladi?
13. Burun bo'shlig'i shilliq qavatining funksiyalarini sanab bering.
14. Hid bilish zonasi qayerda joylashgan?
15. Burun bo'shlig'ining qon bilan ta'minlanish xususiyatlari qanday?
16. Burun bo'shlig'ining limfa oqimi qayerga yo'naltiriladi?
17. Burun bo'shlig'ining klinik ahamiyati nimada?

HIQILDOQ (LARYNX)

1. Funksiyasi. Hiqildoq (**larynx**) — nafas yo'lining muhim bo'g'ini bo'lib, u nafaqat havo o'tkazish, balki ovoz hosil qilish funksiyasini ham bajaradi. Nafas chiqarish jarayonida gortan orqali o'tayotgan havo tarang holatda joylashgan ovoz boylamlarini tebranishga keltiradi. Ushbu tebranishlar natijasida tovush paydo bo'ladi. Tovushning balandligi va tembri gortan bo'shlig'ining hajmi va shakliga bog'liq bo'lib, bu holat og'iz bo'shlig'i, til, halqum va gortan mushaklarining qisqarishi orqali o'zgaradi. Mazkur jarayonlar markaziy va periferik nerv tizimi tomonidan boshqariladi.

2. Rivojlanishi (Embriogenez). Xiqildoq embrional rivojlanish jarayonida homilaning 3-haftasi oxirida shakllana boshlaydi. U oldingi ichakning ventral devoridan paydo bo'lgan bo'rtma (o'sma) sifatida rivojlanadi va qalqonsimon bez kurtagidan orqa tomonda joylashadi. Keyinchalik bu tuzilma murakkablashib, gortanning tog'aylari, mushaklari va bo'shliqlari shakllanadi.


3. Topografiyasi. Xiqildoq bo'yinning oldingi sohasida — **regio cervicalis anterior**da joylashgan bo'lib, odatda IV–VI bo'yin umurtqalari darajasiga to'g'ri

keladi. Xiqildoqusti (**epiglottis**) yuqoriga qarab III bo'yin umurtqasigacha yetib borishi mumkin.

Xiqildoqning orqa tomonida xiqildoq (**pharynx**) joylashgan bo'lib, ular o'zaro halqum kirish teshigi — **aditus laryngis** orqali tutashadi. Yon tomonlarida bo'yinning yirik qon tomirlari o'tadi. Oldingi yuzasi esa til osti suyagidan pastda joylashgan mushaklar, bo'yin fastsiyasi hamda qalqonsimon bezning yon bo'laklarining yuqori qismlari bilan qoplangan. Pastki qismida gortan bevosita kekirdak (**trachea**)ga o'tadi.

4. Anatomik tuzilishi. Xiqildoq bo'shlig'i (**cavitas laryngis**) anatomik va funksional jihatdan shartli ravishda uch qismga ajratiladi. Ushbu bo'linishlar haqlum ichki tuzilmalarining joylashuvi va ovoz hosil bo'lish jarayonidagi rolini aniqroq tushunishga xizmat qiladi:

- Yuqori bo'lim — xiqildoq dahlizi (**vestibulum laryngis**). Bu qism xiqildoq kirish teshigidan ovoz burmalarigacha bo'lgan sohani qamrab oladi. Nafas yo'li sifatida havo oqimini yo'naltirishda va himoya mexanizmlarida muhim ahamiyatga ega.
- O'rta bo'lim — xiqildoq qorinchasi (**ventriculus laryngis**). Ovoz burmalari (yuqori va pastki) orasida joylashgan tor bo'shliq bo'lib, ovoz apparatining erkin tebranishi va rezonans xususiyatlarini ta'minlaydi.
- Pastki bo'lim — ovoz osti bo'shlig'i (**cavitas infraglottica**). Ovoz boylamlaridan pastda joylashgan bo'lib, pastga qarab kengayadi va bevosita kekirdakga o'tadi. Ushbu bo'lim nafas yo'lining uzluksizligini ta'minlaydi.



4-rasm. Hiqildoq bo'shlig'i:

1 – kichik tilcha, uvula; 2 – til ildizi, radix linguae; 3 – iyak–til mushagi, m. genioglossus; 4 – hiqildoq usti tog'ayi (epiglottis), cartilago epiglottica; 5 – iyak–tilosti mushagi, m. geniohyoideus; 6 – tilosti–hiqildoq usti boylami, lig. hyoepiglotticum; 7 – cho'michsimon–hiqildoq usti boylami, lig. aryepiglotticum; 8 – vestibulyar burma (soxta ovoz boylami), plica vestibularis; 9 – hiqildoq qorinchasi, ventriculus laryngis; 10 – ovoz burmasi, plica vocalis; 11 – qalqonsimon tog'ay, cartilago thyroidea; 12 – halqasimon–qalqonsimon boylam, lig. cricothyroideum; 13 – halqasimon tog'ay, cartilago cricoidea; 14 – kekirdak, trachea; 15 – kekirdak tog'ay halqalari, cartilagines tracheales; 16 – qizilo'ngach, esophagus.

5. Gistologik va anatomik tuzilishi. Xiqildoq devorining gistologik asoslari. Xiqildoq devorining asosini tog'aylar va ularning o'zaro birikmalari tashkil etadi. Tashqi tomondan gortan ko'ndalang-targ'il (skelet) mushaklar bilan o'ralgan bo'lib,

ular tashqi adventitsial qavat bilan qoplangan. Ichki tomondan esa gortan bo'shlig'i shilliq qavat bilan qoplangan bo'lib, uning asosiy qismi kiprikli silindrsimon epiteliydan iborat va seroz-shilliq bezlarga boy.

Ovoz burmalari (**plica vocales**) sohasida epiteliy tuzilishi o'zgaradi: bu yerda ko'p qavatli yassi epiteliy joylashadi va bezlar mutlaqo bo'lmaydi, bu esa mexanik ta'sirlarga moslashuvni ta'minlaydi.

Shilliq osti qatlam va fibroz-elastik membrana. Shilliq osti qatlamida ko'p miqdorda fibroz va elastik tolalar joylashib, ular birgalikda xiqildoqning fibroz-elastik membranasi — **membrana fibroelastica laryngisni** hosil qiladi. Ushbu membrana ikki asosiy qismdan iborat:

1. To'rtburchak membrana — **membrana quadrangularis**. Xiqildoqning yuqori bo'limida shilliq qavat ostida joylashadi va xiqildoq dahlizi devorini hosil qilishda ishtirok etadi. Yuqorida u cherpaloxiqildoqusti burmalarigacha yetadi. Pastda esa uning erkin chetlari o'ng va chap dahliz boylamlari — **ligg. vestibularesni** hosil qiladi. Ushbu boylamlar nomdosh burmalar ichida joylashgan.
2. Elastik konus — **conus elasticus**. Xiqildoqning pastki bo'limida shilliq qavat ostida joylashadi. Uning tolalari halqasimon tog'ay yoyining yuqori chetidan boshlanib, halqa-qalqonsimon boylam shaklida yuqoriga va biroz medial yo'nalishda davom etadi. Old tomondan qalqonsimon tog'ayning ichki yuzasiga. Orqa tomondan esa cherpalosimon tog'aylarning ovoz o'simtalariga birikadi.

Elastik konusning yuqori erkin cheti qalinlashgan va tarang bo'lib, har ikki tomonda ovoz boylamlari — **ligg. vocaliani** hosil qiladi.

Xiqildoq tog'aylari — **cartilagine larynges**. 1. Qalqonsimon tog'ay — **cartilago thyroidea**. Xiqildoqning eng yirik tog'ayi bo'lib, gialin tog'ay to'qimasidan tuzilgan. Ikki plastinkadan iborat bo'lib, ular old tomonda burchak ostida birlashadi. 2. Halqasimon tog'ay — **cartilago cricoidea**. Gialin tog'aydan tashkil topgan va halqa shakliga ega. Orqa qismida keng plastinka, old va yon tomonlarida esa yoy shaklida bo'ladi. 3. Cherpalosimon tog'aylar — **cartilagine arytenoideae**. Ovoz burmalari va gortan mushaklari bilan bevosita bog'liq.

Piramida shaklida bo'lib: Asoslari halqasimon tog'ay plastinkasining yuqori chetida. Cho'qqilari yuqoriga yo'nalgan

Asosida ikki muhim o'simta mavjud: Ovoz o'simtasi — **processus vocalis** (elastik tog'aydan), ovoz boylami birikadi. Mushak o'simtasi — **processus muscularis** (gialin tog'aydan), mushaklar birikadi. 4. Xiqildoqusti tog'ayi — **epiglottis (cartilago epiglottica)**. Barg shaklidagi elastik tog'ay plastinkasi bo'lib, gortan kirish teshigi oldida va til ildizining orqasida joylashadi. Pastga tomon torayib, xiqildoqusti sopchasi — **petiolus epiglottidis**ni hosil qiladi. Yuqori keng uchi yuqoriga qaragan. Xiqildoqga qaragan yuzasi to'liq shilliq qavat bilan qoplangan, pastki qavariq qismi esa xiqildoqusti bo'rtig'i — **tuberculum epiglotticum** deb ataladi.

1. **Mayda juft elastik tog'aylar:** Rog'simon — **cartilago corniculata** (cherpalosimon tog'ay cho'qqisida). Ponaga o'xshash — **cartilago cuneiformis** (cherpalo- xiqildoqusti boylami ichida). Donasimon — **cartilago triticea** (yon qalqon–tilosti boylamida)

Xiqildoq birikmalari. Bo'g'imlar: halqa–qalqonsimon bo'g'im — **art. Cricothyroidea**. Juft, yassi, kombinatsiyalashgan bo'g'im bo'lib, ko'ndalang aylanish o'qiga ega. Qalqonsimon tog'ay oldinga-orqaga harakatlanib, ovoz boylamlarining tarangligi yoki bo'shshishini ta'minlaydi. Halqa–cherpalosimon bo'g'im — **art. Cricoarytenoidea**. Juft, silindrsimon bo'g'im bo'lib, vertikal o'q atrofida aylanish va sirpanish harakatlari mumkin. Bu harakatlar ovoz burmalarining ochilib-yopilishida muhim ro'l o'ynaydi.

Boylamlar: O'z boylamlari: ovoz va dahliz boylamlari. Skelet boylamlari (fiksatsion): Qalqon–tilosti membranasi — **membrana thyrohyoidea**. Tilosti–nadgortan boylami — **lig. hyoepiglotticum**. Qalqon– xiqildoqusti boylami — **lig. thyroepiglotticum**. Halqa–qalqonsimon boylam — **lig. cricothyroideum** (elastik konus tarkibida). Halqa–kekirdak boylami — **lig. cricotracheale**.

Bo'g'im boylamlari va xiqildoq mushaklari. Bo'g'im boylamlari

Bo'g'im boylamlari xiqildoq tog'aylari orasidagi bo'g'imlarni mustahkamlaydi va odatda **mos bo'g'imlar nomi bilan ataladi**. Ular bo'g'im kapsulasini kuchaytirib, harakatlarning barqaror va nazoratli bo'lishini ta'minlaydi.

Xiqildoq mushaklari. Xiqildoq mushaklari tog'aylarni harakatga keltirib, xiqildoq bo'shlig'i, ovoz yorig'i (**rima glottidis**) kengligini hamda ovoz boylamlari tarangligini o'zgartiradi. Funktsional jihatdan gortan mushaklari quyidagi guruhlariga bo'linadi: Ovoz yorig'ini toraytiruvchi mushaklar (**konstriktorlar**). Ovoz yorig'ini kengaytiruvchi mushaklar (**dilatatorlar**). Ovoz boylamlari tarangligini o'zgartiruvchi mushaklar (**tenzorlar**) Quyida ovoz yorig'ini toraytiruvchi (konstriktor) mushaklar bayon etiladi.

Ovoz yorig'ini toraytiruvchi mushaklar (**konstriktorlar**).

1. Yon halqa–cherpalosimon mushak — **m. cricoarytenoideus lateralis**

Boshlanishi (H.): halqasimon tog'ay yoyidan

Birikuvi (Pr.): cherpalosimon tog'ayning mushak o'simtasi — **processus muscularisga**

Funksiyasi (F.): mushak o'simtasini oldinga va pastga tortadi, natijada ovoz o'simtasi (**processus vocalis**) medial tomonga buriladi. Shu sababli ovoz burmalari bir-biriga yaqinlashib, ovoz yorig'i torayadi, ovoz boylamlari esa biroz taranglashadi.

2. Qalqon–cherpalosimon mushak — **m. thyroarytenoideus**

To'rtburchak shaklga ega bo'lgan mushak.

Boshlanishi (H.): qalqonsimon tog'ay plastinkalarining ichki yuzasidan

Birikuvi (Pr.): cherpalosimon tog'ayning mushak o'simtasiga

Funksiyasi (F.): ikki tomondagi mushaklar bir vaqtda qisqarganda ovoz burmalaridan yuqorida joylashgan xiqildoq bo'shlig'i qismi (**regio supraglottica**) torayadi. Shu bilan birga ovoz o'simtasi old (**ventral**) tomonga tortiladi, natijada ovoz boylamlari biroz bo'shashadi.

3. Ko'ndalang cherpalosimon mushak — **m. arytenoideus transversus**

Xususiyati: toq mushak

Joylashuvi: cherpalosimon tog‘aylarning orqa (dorsal) botiq yuzalarida, bir tog‘aydan ikkinchisiga ko‘prik shaklida o‘tadi

Funksiyasi (F.): qisqarganda cherpalosimon tog‘aylarni o‘zaro yaqinlashtiradi va shu orqali ovoz yorig‘ining orqa qismini toraytiradi.

4. Qiya cherpalosimon mushaklar — **mm. arytenoidei obliqui**

Tuzilishi: **m. arytenoideus** transversusdan orqaroqda joylashgan, o‘zaro kesishuvchi juft mushak tutamlari

Davomi: ayrim tolalari **cherpalo–nadgortan mushagi** — **m. aryepiglotticus**ga o‘tadi

Funksiyasi (F.): ovoz yorig‘ini toraytiradi, shuningdek gortan kirish qismining yopilishida ishtirok etadi

Xiqildoq mushaklari: kengaytiruvchilar va taranglikni o‘zgartiruvchilar

Ovoz yorig‘ini kengaytiruvchi mushaklar (dilatatorlar)

1. Orqa halqa–cherpalosimon mushak — **m. cricoarytenoideus posterior**

Boshlanishi (H.): halqasimon tog‘ay plastinkasining orqa (**dorsal**) yuzasida

Birikuvi (Pr.): cherpalosimon tog‘ayning **mushak o‘simtasi** — **processus muscularis**ga

Funksiyasi (F.): qisqarganda mushak o‘simtasini orqaga va pastga tortadi. Natijada ovoz o‘simtasi (**processus vocalis**) lateral tomonga buriladi va ovoz yorig‘i kengayadi. Bu mushak ovoz yorig‘ini ochuvchi yagona asosiy dilatator hisoblanadi.

2. Qalqon–xiqildoqusti mushagi — **m. thyroepiglotticus**

Joylashuvi: “qalqon–nadgortan boylami (**lig. thyroepiglotticum**)” ning yon tomonida

Boshlanishi (H.): qalqonsimon tog‘ay plastinkasining ichki yuzasidan

Birikuvi (Pr.): nadgortan chetiga; tolalarning bir qismi “cherpalo–xiqildoqusti burmasi (**plica aryepiglottica**)”ga o‘tadi

Funksiyasi (F.): gortan kirish teshigi va dahlizini kengaytiradi, nafas olishda havo oqimini osonlashtiradi.

Ovoz boylamlari tarangligini o‘zgartiruvchi mushaklar (tenzorlar)

1. Halqa–qalqonsimon mushak — **m. cricothyroideus**

Boshlanishi (H.): halqasimon tog‘ay yoyining o‘rta qismidan

Birikuvi (Pr.): qalqonsimon tog‘ay plastinkasiga va uning **pastki shoxiga**

Funksiyasi (F.): qalqonsimon tog‘ayni oldinga tortib, u bilan cherpalosimon tog‘ayning ovoz o‘simtasi orasidagi masofani oshiradi. Shu sababli ovoz boylamlari taranglashadi va tovush balandligi ortadi.

2. Ovoz mushagi — **m. vocalis**

Xususiyati: halqa–qalqonsimon mushakka antagonist

Joylashuvi: ovoz burmasi (**plica vocalis**) qalinligida, “ovoz boylami (**lig. vocale**)”ga yaqin joylashgan; lateral tomonda qalqon–cherpalosimon mushak (**m. thyroarytenoideus**) tolalari bilan qo‘shiladi

Boshlanishi (H.): qalqonsimon tog‘ay burchagining pastki qismidan

Birikuvi (Pr.): ovoz o‘simtasining lateral yuzasiga (**processus vocalis**)

Funksiyasi (F.): qisqarganda ovoz o‘simtasini oldinga tortadi, natijada ovoz boylamlari bo‘shashadi va tovushning nozik modulyatsiyasi ta‘minlanadi.


6. Yoshga oid xususiyatlar. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda gortan kattalarnikiga nisbatan taxminan uch bo‘yin umurtqasi darajasi yuqoriroq joylashadi. Shu anatomik holat tufayli chaqaloq bir vaqtning o‘zida nafas olib va yuta oladi. Erta bolalik davrida gortan voronka (konus) shaklida bo‘lib, unda frontal diametri sagittal diametridan kattaroq bo‘ladi. Yosh ortishi bilan gortan shakli asta-sekin silindrsimon ko‘rinishga o‘tadi. Yangi tug‘ilganlarda xiqildoq va ovoz yorig‘i tor, xiqildoqning o‘shishi esa yillar bo‘yicha notekis kechadi.

Xiqildoqusti (epiglottis) chaqaloqlarda tilga juda yaqin joylashgan, nisbatan kichik bo‘lib, chetlari ichkariga qayrilganligi sababli ariqcha (novcha) ko‘rinishiga ega. Xiqildoqusti o‘lchamlari 16 yoshga kelib ikki baravar kattalashadi, 13 yoshda esa pastga siljib, yakuniy anatomik holatini egallaydi. Jinsiy yetilishdan keyin ovoz boylamlari va gortan mushaklari mustahkamlanadi, bu tovushning kuchi va barqarorligini oshiradi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. Halqum va xiqildoq orasidagi svishlar — embrional rivojlanishdagi ajralish jarayonlarining buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Ageneziya — organning tugʻma toʻliq yoʻqligi, juda kam uchraydigan, ammo ogʻir nuqson hisoblanadi.

8. Diagnostika usullari. Xiqildoq patologiyalarini aniqlashda quyidagi instrumental tekshiruvlar qoʻllanadi: **Laringoskopiya** — xiqildoq boʻshligʻini bevosita koʻrish va funksional baholash; **Magnit-rezonans tomografiya (MRT)** — yumshoq toʻqimalarni yuqori aniqlikda tasvirlash; **Kompyuter tomografiyasi (KT)** — togʻay va suyak tuzilmalarni batafsil baholash; **Rentgenologik tekshiruv** — topografik va struktur oʻzgarishlarni aniqlash.



5-rasm. Hiqildoq mushaklari, orqa tomondan koʻrinishi:

1 – kichik tilcha, uvula; 2 – tanglay bodomsimon bezi, tonsilla palatina; 3 – til ildizi, radix linguae; 4 – hiqildoq usti togʻayi (epiglottis), cartilago epiglottica; 5 – shilliq qavatning yon hiqildoq usti–til burmasi, plica glossoepiglottica lateralis; 6 – choʻmichsimon–hiqildoq usti mushagi, m. aryepiglotticus; 7 – qiyshiq choʻmichsimon mushaklar, mm. arytenoidei obliqui; 8 – qalqonsimon togʻay, cartilago thyroidea; 9 – halqasimon togʻay, cartilago cricoidea; 10 – orqa halqasimon–choʻmichsimon mushak, m. cricoarytenoideus posterior; 11 – traxeyaning parda devori, paries membranaceus.

Metodik ko‘rsatmalar

1. Hiqildoqning skeleti: tog‘aylari (qalqonsimon, halqasimon, hiqildoq usti va juft tog‘aylar)ni aniqlash.
2. Hiqildoq bo‘g‘imlari va boylamlarini o‘rganish.
3. Hiqildoq mushaklari va ularning vazifalarini bilish.
4. Ovoz hosil bo‘lish mexanizmini tushunish.
5. Hiqildoq bo‘shlig‘ining bo‘limlari: hiqildoq kirish qismi, ovoz yorig‘i va hiqildoq osti bo‘limini ajratish.

Nazorat savollari

1. Hiqildoqning skeletini tashkil etuvchi tog‘aylarni sanang.
2. Juft va juft bo‘lmagan hiqildoq tog‘aylari qaysilar?
3. Hiqildoq bo‘g‘imlari va boylamlarini ayting.
4. Hiqildoq mushaklari qanday guruhlarga bo‘linadi?
5. Hiqildoq ichki mushaklarining vazifalari qanday?
6. Ovoz hosil bo‘lish mexanizmini tushuntiring.
7. Hiqildoq bo‘shlig‘i qanday bo‘limlardan iborat?
8. Ovoz boylamlari qayerda joylashgan?
9. Hiqildoqning qon bilan ta‘minlanishi qanday arteriyalar orqali amalga oshadi?
10. Hiqildoqning innervatsiyasi qanday nervlar bilan ta‘minlanadi?
11. Hiqildoqning yoshga oid anatomik xususiyatlari qanday?
12. Hiqildoqning klinik ahamiyati nimada?

KEKIRDAK (TRACHEA)

1. Funksiyasi. Kekirdak — havoni o‘tkazuvchi (aerifer) yo‘l bo‘lib, xiqildoqning bevosita davomi hisoblanadi. U tashqi muhitdan o‘pkalarga havo yetkazilishini ta‘minlaydi.

2. Rivojlanish manbai (embriogenez). Embrional rivojlanishning 3-haftasida birlamchi ichakning ventral devoridan hosil bo‘lgan o‘sma naycha shakllanadi. Ushbu naychanning kaudal uchi kekirdakning rivojlanishiga asos bo‘ladi.

3. Topografiyasi. Kekirdak bo'yinning oldingi sohasida (**pars cervicalis**) va yuqori mediastinumda (**pars thoracica**) joylashadi. **Boshlanishi:** VI bo'yin umurtqasi darajasi **Tugashi:** V ko'krak umurtqasi darajasida bifurkatsiya qilib, o'ng va chap asosiy bronxlarga bo'linadi (**bronchus principalis dexter et sinister**). **Qo'shni tuzilmalar:** Old tomonda (bo'yin qismi): qalqonsimon bezning istmusi, shuningdek **m. sternohyoideus** va **m. sternothyroideus** (o'rta chiziqda ularning ichki chetlari ajraladi); Orqa tomonda: **qizilo'ngach**; Yon tomonda: tomir–nerv tutamlari.

Nomlangan mushaklar va ularni qoplaydigan fastsiya bilan traxeya old yuzasi orasida pretraxeyal bo'shliq (**spatium pretracheale**) joylashib, u bo'sh tolali biriktiruvchi to'qima va qalqonsimon bez tomirlari bilan to'ldirilgan. Ko'krak qismida kekirdak old tomondan ko'krak suyagi dastasi, **timus** va yirik tomirlar bilan, orqa tomondan qizilo'ngach bilan qo'shnichilik qiladi. Traxeyaning qizilo'ngachdan oldinda joylashuvi uning oldingi ichak ventral devoridan rivojlanishi bilan izohlanadi.

4. Anatomik tuzilishi. Kekirdak **9–11 sm** uzunlikdagi naycha bo'lib, ikki qism ajratiladi: Bo'yin qismi (**pars cervicalis**), Ko'krak qismi (**pars thoracica**).

Devor tuzilishi: 16–20 ta to'liq bo'lmagan gialin tog'ay halqalari (**cartilagine tracheales**), ular halqasimon fibroz boylamlar (**ligg. annularia**) bilan tutashgan; Har bir halqa devorning taxminan 2/3 qismini egallab, tog'ayli devorni (**paries cartilaginea**) hosil qiladi; Orqa parda devori (**paries membranaceus**) yassi bo'lib, silliq mushak tolalari (ko'ndalang va bo'ylama)ni saqlaydi. Bu mushaklar nafas olish va yo'tal paytida traxeyaning faol harakatlarini ta'minlaydi.


5. Gistologik tuzilishi. Kekirdak devori uch qavatdan tashkil topgan: Shilliq qavat (**submucosa** bilan), Tolali–tog'ayli qavat, **Adventitsial qavat**. Kekirdak (va xiqildoqning katta qismi) shilliq qavati kiprikli epiteliy bilan qoplangan bo'lib, limfoid to'qima va shilliq bezlarga boy. (**Istisno:** ovoz burmalari va xiqildoqustinning ayrim qismlari.)

6. Yoshga oid xususiyatlar. Yangi tug'ilganlarda traxeya uzunligi 3,2–4,5 sm, shakli voronkasimon; o'rta qismda lümen kengligi taxminan 0,8 sm. Parda devori

nisbatan keng, tog‘aylar ingichka va yumshoq, yetarlicha rivojlanmagan. Keksalikda tog‘aylar qattiqlashib va mo‘rtlashib, bosimda oson sinadi. O‘shish dinamikasi: tug‘ilgandan keyin ilk 6 oyda tez, so‘ng sekinlashadi, jinsiy yetilish va o‘smirlik davrida yana tezlashadi. Shilliq qavat yupqa va nozik, bezlar kam rivojlangan. Chaqaloqlarda traxeya balandroq va o‘rta chiziqdan biroz o‘ngda joylashadi. Uzunlik 10 yoshda 2 baravar, 25 yoshda 3 baravar ortadi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. Ageneziya — organning tug‘ma to‘liq yo‘qligi; Kekirdak–qizilo‘ngach fistulalari — traxeya va qizilo‘ngach o‘rtasidagi patologik tutashuvlar.

8. Diagnostika. Rentgenografiyada traxeya ichidagi havo tufayli umurtqa soyasi fonida yorqin (och) silindrsimon kontur ko‘rinishida aniqlanadi. (Zaruratda **KT/MRT** bilan qatlamli baholash qo‘llanadi.)



6-rasm. Traxeya va bronxlar:

1 – hiqildoq bo‘rtig‘i (kadiq), *prominentia laryngea*; 2 – qalqonsimon tog‘ay, *cartilago thyroidea*; 3 – halqasimon–qalqonsimon boylam, *lig. cricothyroideum*; 4 – halqasimon–kekirdak boylam, *lig. cricotracheale*; 5 – yoy shaklidagi kekirdak tog‘aylari, *cartilagine tracheales*; 6 – kekirdakning halqasimon boylamlari, *ligg. anularia*; 7 – qizilo‘ngach, *esophagus*; 8 – kekirdakning ikkiga bo‘linishi (bifurkatsiyasi), *bifurcatio tracheae*; 9 – o‘ng asosiy bronx, *bronchus principalis dexter*; 10 – chap asosiy bronx, *bronchus principalis sinister*; 11 – aorta, *aorta*.

Metodik ko‘rsatmalar

1. Kekirdakning umumiy tuzilishi va funksiyasini o‘rganish.
2. Kekirdak devorining qatlamlarini (shilliq qavat, tog‘ayli qavat, adventitsiya) tahlil qilish.
3. Kekirdakning topografiyasi va qo‘shni organlar bilan munosabatini bilish.
4. Kekirdakning ikkiga bo‘linish joyini (bifurcatio tracheae) aniqlash.

Nazorat savollari

1. Kekirdak qayerdan boshlanadi va qayerda tugaydi?
2. Kekirdakning devor tuzilishini tushuntiring.
3. Kekirdak tog‘ay halqalari qanday shaklda bo‘ladi?
4. Kekirdakning topografik munosabatlari qanday?
5. Kekirdakning bifurkatsiyasi qayerda joylashgan?
6. Kekirdak shilliq qavatining xususiyatlari qanday?
7. Kekirdakning qon bilan ta‘minlanishi va innervatsiyasi qanday?
8. Kekirdakning klinik ahamiyati nimada?

BRONXLAR (BRONCHI)

1. Vazifasi (Funksiyasi). Bronxlarning asosiy vazifasi — havoni o‘pkalarga o‘tkazish, uni mexanik zarrachalardan tozalash, namlash va qisman isitishdan iborat. Shuningdek, bronxlar nafas yo‘llarining himoya mexanizmlarida muhim rol o‘ynaydi.

2. Rivojlanish manbai (Embriogenez). Bronxlar embrional rivojlanishning 3-haftasida oldingi ichakning ventral devoridan hosil bo‘lgan epitelial o‘simtadan rivojlanadi. Ushbu o‘simtaning kaudal qismi keyinchalik bronxlar va o‘pka tuzilmalari shakllanishida ishtirok etadi.

3. Topografiyasi. Bronxlar traxeyaning bifurkatsiya sohasida, taxminan V ko‘krak umurtqasi (Th V) darajasida deyarli to‘g‘ri burchak ostida ajralib chiqadi va mos ravishda o‘ng hamda chap o‘pka darvozalariga yo‘naladi.

4. Anatomik tuzilishi. O‘ng asosiy bronx (**bronchus principalis dexter**) chap asosiy bronxga nisbatan kengroq bo‘lib, bu o‘ng o‘pkaning hajmi kattaroq ekanligi

bilan izohlanadi. Shu bilan birga, chap asosiy bronx (**bronchus principalis sinister**) o'ng bronxga qaraganda deyarli ikki baravar uzun. O'ng bronxda **6–8 ta**, chap bronxda esa **9–12 ta** tog'ay halqalar mavjud. O'ng bronx traxeyaga nisbatan vertikalroq joylashgan bo'lib, traxeyaning davomi sifatida ko'rinadi. Shu sababli begona jismlar ko'proq o'ng bronxga tushadi.

Bronxial daraxt (arbor bronchialis) quyidagilardan tashkil topadi: Asosiy bronxlar — **I-tartib**. Bo'lak bronxlari (bronchi lobares) — **II-tartib**. Segmentar bronxlar (bronchi segmentales) — **III-tartib**. Subsegmentar va intrapulmonar bronxlar — **IV–IX-tartib**

Diametri taxminan **1 mm** bo'lgan mayda bronxlar o'pka bo'lakchalariga kirib, bo'lakcha bronxlari (**bronchi lobulares**) deb ataladi. Har bir bo'lakcha bronxi 12–24 ta oxirgi bronxiolalarga (**bronchioli terminales**) bo'linadi. Ikkala o'pkada ularning umumiy soni taxminan **20 000** ni tashkil etadi. Oxirgi bronxiolalardan havo o'pkaning nafas olish parenximasiga o'tadi.

Nafas bronxiolalaridan (**bronchioli respiratorii**) boshlab alveolyar yo'llar, alveolyar xaltachalar va alveolalar shakllanib, alveolyar daraxt yoki o'pkaning nafas parenximasini hosil qiladi. Bitta oxirgi bronxioladan kelib chiqqan barcha tuzilmalar atsinus (**acinus**) deb ataladigan funksional-anatomik birlikni tashkil etadi.

5. Gistologik tuzilishi. Bronxlarning shilliq qavati tuzilishi jihatidan traxeya shilliq qavatiga o'xshash bo'lib, ko'p qatorli kiprikli silindrsimon epiteliy bilan qoplangan. Bronxlar diametri kichraygan sari epiteliy qatlamlari soni kamayadi. Shilliq osti qavatida **shilliq bezlar** joylashgan. Limfoid to'qimalarning to'planmalari — **limfoepitelial o'choqlar** uchraydi. Shilliq mushak tolalari shilliq va shilliq osti qavatlari orasida joylashib, bronx diametri kamaygani sari ularning miqdori ortadi. Bronxlarning bo'linish joylarida maxsus **halqasimon mushak tolalari** bo'lib, ularning spazmi bronxospazm (bronxial astma)ga sabab bo'lishi mumkin.

Fibroz-tog'ay qavati bronxlar bo'ylab sezilarli o'zgaradi: I–II-tartib bronxlarda — gialin tog'ay halqalari. Ichki bronxlarda — mayda **plastinkalar**. Oxirgi bronxiolalarda — tog'ay to'qimasi va shilliq bezlar **butunlay yo'qoladi**. Bronxlar

tashqi tomondan tomirlar va nervlarga boy **adventitsial qavat** bilan qoplangan bo‘lib, u o‘pka parenximasining biriktiruvchi to‘qima to‘siqlariga o‘tadi.

6. Yoshga oid xususiyatlari. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda: O‘ng bronx traxeyadan 26° , chap bronx esa 49° burchak ostida ajraladi. Asosiy bronxlar hayotning birinchi yilida va balog‘at davrida ayniqsa tez o‘sadi. Bolalarda bronxlar bo‘shlig‘i tor, tog‘ay to‘qimasi yumshoq, mushak va elastik tolalar kam rivojlangan. Shilliq qavat bezlarga kambag‘al, ammo qon tomirlarga boy bo‘ladi.

7. Diagnostika usullari. Bronxlarni tekshirishda quyidagi usullar qo‘llaniladi: Rentgenologik tekshiruv. Kompyuter tomografiyasi (KT). Magnit-rezonans tomografiya (MRT). Bronx shilliq qavatining biopsiyasi. Rentgenogrammada traxeya va bronxlar tarkibidagi havo tufayli yurak soyasi ustida **yorug‘ chiziqlar** ko‘rinishida tasvirlanadi.

Metodik ko‘rsatmalar

1. Asosiy, bo‘lak va segmentar bronxlarni farqlash.
2. Bronx devorining tuzilishidagi o‘zgarishlarni (bronx daraxti bo‘ylab) tushunish.
3. Bronxlarning o‘pkadagi tarqalishini o‘rganish.
4. Bronxlarning klinik ahamiyatini (aspiratsiya, bronxit) tushunish.

Nazorat savollari

1. Asosiy bronxlar tushunchasini izohlang.
2. O‘ng va chap asosiy bronxlarning anatomik farqlari nimada?
3. Bo‘lak bronxlari va segmentar bronxlar nima?
4. Bronx devorining tuzilishi bronx daraxti bo‘ylab qanday o‘zgaradi?
5. Bronx daraxti tushunchasini izohlang.
6. Bronxlarning qon bilan ta‘minlanishi qanday amalga oshadi?
7. Bronxlarning innervatsiyasi qanday?
8. Bronxlarning klinik ahamiyati nimada?

O‘PKA (PULMO, PNEUMO)

1. Vazifasi (Funksiyasi). O‘pkaning asosiy vazifasi — gaz almashinuvi bo‘lib, u qonning kislorod (O_2) bilan boyitilishi va undan karbonat angidrid (CO_2) ning

ajralib chiqishini ta'minlaydi. Shu orqali organizmda hujayraviy nafas olish jarayoni amalga oshadi.

2. Rivojlanish manbai (Embriogenez). O'pka birlamchi ichakning ventral devoridan hosil bo'lgan traxeobronxial kurtakdan rivojlanadi. **4-haftada** o'pka boshlang'ich kurtagining kaudal qismi uzunlamas yoriq orqali o'ng va chap o'pka kurtaklariga ajraladi. **5-haftada** har bir kurtakda kelajakdagi o'pka bo'laklariga mos sharsimon bo'rtmalar paydo bo'ladi: o'ng o'pkada — **3 ta**, chap o'pkada — **2 ta**. **Alveolyar daraxt** terminal bronxlar uchida joylashgan mezenxima hujayralari to'planishidan rivojlanadi. **4–5-oylar oxirida** terminal bronx devori yorilib, **atsinus** tarkibida alveolyar tuzilmalar shakllanadi.

3. Topografiyasi. O'pkalar deyarli butun ko'krak qafasi bo'shlig'ini egallaydi. O'ng va chap o'pkalar topografiyasida sezilarli farqlar mavjud. Har ikkala o'pkaning uch qismi (**apex pulmonis**): o'mrov suyagidan **2 sm yuqorida**, I qovurg'adan **3–4 sm balandroqda** joylashgan bo'lib, plevra gumbazi chegaralariga mos keladi.

O'ng o'pka chegaralari, oldingi chegarasi: yuqoridan o'ng sternoklavikulyar bo'g'imdan boshlanib, sternum bo'ylab VI qovurg'a tog'ayigacha tushadi. Pastki chegarasi: o'rta o'mrov chizig'ida — VI qovurg'a, oldingi qo'ltiq osti chizig'ida — VII, o'rta qo'ltiq osti — VIII, orqa qo'ltiq osti — IX, kurak chizig'ida — X, paravertebral chiziqda — XI qovurg'a bo'yni darajasida tugaydi. Chap o'pka chegaralari, oldingi chegarasi IV qovurg'a tog'ayigacha tushib, so'ng chapga — parasternal chiziq tomon og'adi va VI qovurg'a tog'ayi darajasida pastki chegaraga o'tadi. Pastki chegarasi, asosan, o'ng o'pkanikiga o'xshash, ammo yarim qovurg'a pastroqda joylashgan. Har ikkala o'pkaning orqa chegarasi: XI qovurg'a bo'ynidan II qovurg'a boshigacha bir xil joylashgan. Pastki tomondan o'pkalar diafragma, medial tomondan perikard, old, yon va orqa tomondan ko'krak qafasi devorlari bilan tutashadi. Plevraning pastki chegarasi o'pka chegarasidan bir qovurg'a pastda joylashadi.

4. Anatomik tuzilishi. O'ng o'pka chap o'pkaga nisbatan taxminan 10% kattaroq, biroq: qisqaroq va kengroq, bunga o'ng diafragma gumbazining balandroq turishi (jigar ta'siri) va yurakning chap tomonga siljiganligi sabab bo'ladi.

Har bir o'pka noto'g'ri konussimon shaklga ega: pastki qismi — asos (basis pulmonis), yuqori qismi — uchi (apex pulmonis). Uch qismida o'mrov arteriyasi bosimidan hosil bo'lgan kichik o'mrov egati (**sulcus subclavius**) kuzatiladi.

O'pka yuzalari. 1. Diafragma yuzasi (**facies diaphragmatica**) — botiq, diafragma mos. 2. Qovurg'a yuzasi (**facies costalis**) — qavariq, qovurg'alar shakliga mos. 3. Medial yuzasi (**facies medialis**) — botiq, perikard konturini takrorlaydi va: ko'ksoralig' qism (**pars mediastinalis**), umurtqa tomoni (**pars vertebralis**) ga bo'linadi.

Qirralari: pastki qirra (**margo inferior**) — qovurg'a va diafragma yuzalar tutashuvida. **Oldingi qirra (margo anterior)** — medial va qovurg'a yuzalari orasida. Orqa tomonda o'tkir qirra hosil bo'lmaydi; bu joyda o'pka umurtqa yonidagi **o'pka egatlarida (sulci pulmonales)** joylashadi.

O'pka darvozasi va ildizi: medial yuzada o'pka darvozasi (**hilus pulmonis**) joylashgan bo'lib, u orqali: bronxlar, o'pka arteriyasi, nervlar — o'pkaga kiradi, o'pka venalari va limfa tomirlari — chiqadi. Ular birgalikda “o'pka ildizi (radix pulmonis)” ni tashkil etadi.


Joylashish prinsipi: o'ng o'pkada — **BAV** (bronx–arteriya–vena), chap o'pkada — **ABV** (arteriya–bronx–vena). Bronx har doim dorsal, o'pka venalari esa eng pastda joylashadi. O'pkaning bo'laklarga bo'linishi. O'pkalar bo'laklar (**lobi**) ga bo'linadi: Har ikkala o'pkada: qiya yoriq (**fissura obliqua**) — yuqori va pastki bo'laklarni ajratadi. Faqat o'ng o'pkada: gorizontall yoriq (**fissura horizontalis**) — o'rta bo'lakni ajratadi. **O'ng o'pka** — 3 bo'lak: lobus superior, lobus medius, lobus inferior. **Chap o'pka** — 2 bo'lak: lobus superior, lobus inferior. Chap o'pkada: yurak o'yig'i (**incisura cardiaca**), va tilcha (**lingula pulmonis sinistri**) mavjud bo'lib, yurak joylashuvi bilan bog'liq.

O'pkaning segmentar tuzilishi. Segment — konussimon shakldagi bo'lakcha bo'lib: asosi o'pka yuzasiga, uchi ildizga qaragan, III-tartibli bronx bilan ventilyatsiyalanadi. Segmentlar bir-biridan **biriktiruvchi to'qima** bilan ajralgan: markazida — segmentar bronx va arteriya, chetida — segmentar vena joylashadi.

Xalqaro anatomik nomenklaturaga ko'ra: o'ng o'pkada — **10 segment**, chap o'pkada — **10 segment** mavjud.

O'ng o'pkaning segmentlari. Yuqori bo'lak (3 segment): 1. **Uchki segment (segmentum apicale)** — plevra gumbazini to'ldiradi, ko'krak kirish qismiga chiqadi. 2. **Orqa segment (segmentum posterius)** — II–IV qovurg'alar bilan tutashadi. 3. **Oldingi segment (segmentum anterius)** — I–IV qovurg'a tog'aylari, o'ng bo'lmacha va yuqori kovak vena bilan tutashadi.

O'rta bo'lak (2 segment): 1. **Lateral segment (segmentum laterale)** — oldinga va tashqariga yo'nalgan. 2. **Medial segment (segmentum mediale)** — IV–VI qovurg'alar oralig'ida, yurak va diafragma bilan tutashadi.



Rasm - 7. O'pkalar

1 – hiqildoq, larynx; 2 – traxeya, trachea; 3 – o'pkaning uchi, apex pulmonis; 4 – qovurg'a yuzasi, facies costalis; 5 – kekirdakning ikki tarmoqqa bo'linishi, bifurcatio tracheae; 6 – o'pkaning yuqori bo'lagi, lobus pulmonis superior; 7 – o'ng o'pkaning gorizontaal yorig'i, fissura horizontalis pulmonis dextri; 8 – qiya yoriq, fissura obliqua; 9 – chap o'pkaning yurak o'yig'i, incisura cardiaca pulmonis sinistri; 10 – o'pkaning o'rta bo'lagi, lobus medius pulmonis; 11 – o'pkaning pastki bo'lagi, lobus inferior pulmonis; 12 – diafragmal yuzasi, facies diaphragmatica; 13 – o'pkaning asosi, basis pulmonis.

Pastki bo‘lagi tarkibida **5 ta segment** farqlanadi: 1. Uchki (yuqori) segment — **segmentum apicale (superius)**. Pastki bo‘lakning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, klinasimon shaklga ega. U **paravertebral** (umurtqa atrofi) sohasida joylashadi. 2. Medial bazal (yurak) segment — **segmentum basale mediale (cardiacum)**. Segment asosi bilan pastki bo‘lakning ko‘ks oralig‘i va qisman diafragma yuzasini egallaydi. O‘ng bo‘lmacha va pastki kovak vena bilan bevosita tutashadi. 3. Oldingi bazal segment — **segmentum basale anterius**. Pastki bo‘lakning diafragma yuzasida joylashgan. Uning katta yon tomoni qo‘ltiq osti sohasida, VI–VIII qovurg‘alar oralig‘ida ko‘krak devoriga tutashadi. 4. Lateral bazal segment — **segmentum basale laterale**. Pastki bo‘lakning boshqa segmentlari orasiga joylashib, asosi bilan diafragma, yon tomoni bilan esa VII–IX qovurg‘alar oralig‘ida ko‘krak devoriga tutashadi. 5. Orqa bazal segment — **segmentum basale posterius**. **Paravertebral** holatda joylashgan bo‘lib, pastki bo‘lakning boshqa segmentlariga nisbatan orqaroqda yotadi. U **qovurg‘a–diafragmal plevra sinusiga** chuqur kirib boradi. Ba‘zan undan **subapikal segment** — **segmentum subapicale (subsuperius)** ajralib chiqadi.

CHAP O‘PKA (PULMO SINISTER)

Chap o‘pkada ham **10 ta segment** ajratiladi. Chap o‘pkaning yuqori bo‘lagi segmentlari (5 ta). 1. Uchki-orqa segment — **segmentum apicoposterius**. Shakli va joylashuvi jihatidan o‘ng o‘pkaning yuqori bo‘lagidagi uchki va orqa segmentlarga mos keladi. Segment asosi III–V qovurg‘alar orqa qismlari bilan tutashadi. Medial tomondan aorta yoyi va o‘mrov osti arteriyasi bilan chegaradosh. Ba‘zan ikki mustaqil segment ko‘rinishida uchraydi. 2. Oldingi segment — **segmentum anterius**. Eng yirik segment bo‘lib, yuqori bo‘lakning qovurg‘a yuzasining katta qismini (I–IV qovurg‘alar oralig‘i) hamda mediastinal yuzaning bir qismini egallaydi. Bu yerda u o‘pka magistrali (**truncus pulmonalis**) bilan tutashadi. 3. Yuqori tilchasimon segment — **segmentum lingulare superius**. Yuqori bo‘lakning oldingi yuzasida III–V qovurg‘alar, qo‘ltiq osti sohasida esa IV–VI qovurg‘alar oralig‘ida joylashadi. 4. Pastki tilchasimon segment — **segmentum lingulare**

inferius. Yuqori tilchasimon segmentdan pastroqda joylashgan bo‘lib, deyarli diafragma bilan tutashmaydi.

Ikkala tilchasimon segment o‘ng o‘pkaning **o‘rta bo‘lagiga** funksional va anatomik jihatdan mos keladi. Ular chap qorinchasi bilan tutashib, perikard va ko‘krak devori orasidagi **qovurg‘a–mediastinal plevra sinusiga** kirib boradi.

Chap o‘pkaning pastki bo‘lagi segmentlari (5 ta). Bu segmentlar o‘ng o‘pkaning pastki bo‘lagi segmentlariga deyarli simmetrik: 1. Uchki (yuqori) segment — **segmentum apicale (superius).** **Paravertebral** holatda joylashgan. 2. Medial bazal segment — **segmentum basale mediale**, 83% hollarda bronxi keyingi segment — **segmentum basale anterius** bronxi bilan umumiy magistraldan boshlanadi. Bu segment yuqori bo‘lakning tilchasimon segmentlaridan qiya yoriq (**fissura obliqua**) orqali ajralgan bo‘lib, o‘pkaning qovurg‘a, diafragmal va mediastinal yuzalarini shakllantirishda ishtirok etadi. 3. Lateral bazal segment — **segmentum basale laterale.** Pastki bo‘lakning qovurg‘a yuzasida, qo‘ltiq osti sohasida, X–XII qovurg‘alar darajasida joylashgan. 4. Orqa bazal segment — **segmentum basale posterius.** Katta hajmli segment bo‘lib, boshqa segmentlarga nisbatan orqaroqda joylashadi. U VII–X qovurg‘alar, diafragma, pastga tushuvchi aorta va qizilo‘ngach bilan tutashadi. 5. Subapikal segment — **segmentum subapicale (subsUPERIUS).** Har doim ham uchramaydi (variant anatomik tuzilma).

O‘PKA BO‘LAKCHALARI (LOBULI PULMONES)

O‘pka segmentlari ikkilamchi o‘pka bo‘lakchalaridan (**lobuli pulmones secundarii**) tashkil topgan. Har bir bo‘lakchaga IV–VI-tartibli bo‘lakcha bronxi kiradi. Bo‘lakcha piramidasimon shaklda, diametri 1,0–1,5 sm. Ular segment periferiyasida 4 sm gacha qalinlikdagi qatlam hosil qiladi. Bir-biridan biriktiruvchi to‘qima to‘siqlari bilan ajralgan bo‘lib, bu to‘siqlarda venalar va limfa kapillyarlari joylashadi. Ushbu to‘siqlarda ko‘mir changi to‘planishi sababli ular makroskopik jihatdan yaxshi ko‘rinadi. Har ikkala o‘pkada ikkilamchi bo‘lakchalar soni taxminan 1000 ta.

5. Gistologik tuzilishi: Alveolyar daraxt (**Arbor alveolaris**), o‘pka parenximasi funksional va struktur jihatdan ikki bo‘limga bo‘linadi: **1. O‘tkazuvchi bo‘lim:** bu

— bronxial daraxtning intrapulmonar qismi bo‘lib, havoni nafas olish zonalariga yetkazadi. **2. Respirator (nafas) bo‘lim:** bu bo‘limda gaz almashinuvi amalga oshadi. U kichik qon aylanish doirasi orqali kelgan venoz qon va alveolalardagi havo o‘rtasida kechadi.


Respirator bo‘lim “atsinuslar (**acinus**)”dan tashkil topgan bo‘lib, har bir atsinus bitta terminal bronxioladan rivojlanadi. Terminal bronxiola → “2 ta nafas bronxiolasi (**bronchioli respiratorii**)” ga bo‘linadi. Nafas bronxiolalari devorida alveolalar (**alveoli pulmones**) paydo bo‘ladi. Alveolalar ichki tomondan yassi alveolotsitlar bilan qoplangan. Alveola devorida elastik tolalar mavjud. Nafas bronxiolalari 3–4 marta dixotomik bo‘linadi. Ular kengayib “alveolyar yo‘llar (**ductuli alveolares**)” ni hosil qiladi (3–17 ta). Har bir alveolyar yo‘l alveolyar xaltachalar (**sacculi alveolares**) bilan tugaydi.

Alveolalar devori zich kapillyar to‘r bilan o‘ralgan bo‘lib, gazlar diffuziya yo‘li bilan almashinadi. Alveolalar ichki yuzasi **surfaktant** bilan qoplangan bo‘lib: yuzaki taranglikni kamaytiradi, alveolalarning yopishib qolishidan (**atelektaz**) saqlaydi. Voyaga yetgan odam o‘pkasida taxminan **300 million alveola** mavjud.

O‘PKA ATSINUSI (ACINUS PULMONIS)

Bitta terminal bronxioladan kelib chiqqan: bir necha avlod nafas bronxiolalari, alveolyar yo‘llar, alveolyar xaltachalar, alveolalar birgalikda o‘pka **atsinusini** tashkil etadi. O‘pka respirator parenximasi bir necha yuz ming atsinuslardan iborat bo‘lib, alveolyar daraxt deb ataladi.

Birlamchi o‘pka bo‘lakchasi (lobulus pulmonis primarius) — bu: oxirgi nafas bronxiolasi, undan chiqqan alveolyar yo‘llar va xaltachalardan iborat tuzilma. Har bir atsinusda taxminan 16 ta birlamchi bo‘lakcha mavjud.



Rasm 8. Atsinusning tuzilish sxemasi

1 – oxirgi bronxiola, bronchiola terminalis; 2 – nafas (respirator) bronxiolasi, bronchiola respiratoria; 3 – alveolyar yo‘l, ductus alveolaris; 4 – o‘pka alveolalari, alveoli pulmonales; 5 – alveolyar xaltachalar, sacculus alveolaris.

6. Yoshga oid xususiyatlar. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda o‘pkalar noto‘g‘ri konussimon shaklga ega bo‘ladi. Yuqori bo‘laklar nisbatan kichik, o‘ng o‘pkaning o‘rta bo‘lagi hajm jihatdan yuqori bo‘lakka teng, pastki bo‘lak esa nisbatan yirik bo‘ladi. Bola hayotining ikkinchi yilida o‘pka bo‘laklarining o‘zaro nisbatlari kattalarnikiga yaqinlashadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloq o‘pkasining: massasi — o‘rtacha 57 g (39–70 g oralig‘ida), hajmi — taxminan 67 sm³. O‘pkalarda yoshga bog‘liq involyutsion jarayonlar odatda 50 yoshdan keyin boshlanadi. Yosh o‘tishi bilan o‘pkalarning chegaralari va holati ham ma’lum darajada o‘zgaradi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. O‘pkaning rivojlanishida quyidagi tug‘ma nuqsonlar uchrashi mumkin:

- **O'pka ageniziyasi** — bitta yoki ikkala o'pkaning umuman rivojlanmasligi. Ikkala o'pka yo'qligi holatida homila hayotga layoqatsiz bo'ladi.
- **O'pka gipogeneziyasi** — o'pkaning yetarli darajada rivojlanmasligi bo'lib, ko'pincha nafas yetishmovchiligi bilan kechadi.
- **Bronxial daraxtning terminal qismlaridagi anomaliyalar** — **bronxoektaziyalar**, ya'ni terminal bronxiolalarning noto'g'ri, xaltachasimon kengayishlari.
- **Ko'krak qafasi a'zolarining teskari joylashuvi (situs inversus)** — bunda: o'ng o'pka 2 bo'lakdan, chap o'pka esa 3 bo'lakdan iborat bo'ladi.
- Teskari joylashuv: faqat ko'krak (**torakal**), faqat qorin (**abdominal**), yoki to'liq (**total**) shaklda bo'lishi mumkin.

8. Diagnostika. Rentgenologik tekshiruv. Ko'krak qafasi rentgenogrammasida ikkita yorqin "o'pka maydoni" aniq ko'rinadi. Bu ularning havo bilan to'lgani va rentgen nurlarini yaxshi o'tkazishi bilan bog'liq.

O'pka maydonlari orasida joylashgan intensiv **markaziy soya**: sternum, umurtqa pog'onasi, yurak, yirik qon tomirlari tomonidan hosil qilinadi va medial chegarani belgilaydi. Yuqori va yon chegaralar — qovurg'alar, pastki chegarani — diafragma tashkil etadi. Yuqori qismda o'pka maydoni o'mrov suyagi bilan kesishadi. O'mrovdan pastda oldingi va orqa qovurg'a qismlarining soyasi o'pka maydoniga ustma-ust tushadi.

Nafas fazalarida rentgen o'zgarishlar. Nafas olishda (**inspiratsiya**): diafragma pastga tushadi, uning gumbazlari yassilanadi, qovurg'alar ko'tariladi, qovurg'alar oralig'i kengayadi, o'pka maydonlari yorqinlashadi, o'pka rasmlari aniqroq ko'rinadi, plevra sinuslari "ochiladi", yurak vertikalroq holatga kelib, uchburchaksimon shakl oladi. Nafas chiqarishda (**ekspiratsiya**) — bu jarayonlarning aksi kuzatiladi.

Maxsus rentgen usullari. **Rentgenokimografiya** — diafragmaning nafas, qo'shiq aytish va nutq paytidagi harakatlarini o'rganish imkonini beradi. **Qatlamli rentgenografiya (tomografiya)** — o'pka tuzilishini oddiy rentgenografiyaga qaraganda aniqroq ko'rsatadi. **Elektrorentgenografiya** — o'pkaning: bronxlari,

qon tomirlari, biriktiruvchi to‘qima karkasini ko‘rishga imkon berib, tirik odamda butun o‘pka parenximasini baholash imkonini yaratadi.

Metodik ko‘rsatmalar

1. O‘pkaning tashqi tuzilishi: yuzalari, qirralari, uchini aniqlash.
2. O‘ng va chap o‘pkaning bo‘laklari va yoriqlarini farqlash.
3. O‘pka darvozasi va ildizining tarkibini o‘rganish.
4. O‘pkaning struktur-funksional birligi — atsinni va alveolalarni tushunish.
5. O‘pkaning qon bilan ta‘minlanishi va limfa oqimini bilish.

Nazorat savollari

1. O‘pkaning tashqi tuzilishini tushuntiring.
2. O‘ng va chap o‘pkaning bo‘laklari va yoriqlari qanday?
3. O‘pkaning yuzalari va qirralari qaysilar?
4. O‘pka darvozasi va ildizining tarkibi nimadan iborat?
5. O‘pkaning struktur-funksional birligi nima?
6. Atsinus va alveolalarning tuzilishini tushuntiring.
7. O‘pkaning qon aylanishi qanday tashkil topgan?
8. O‘pkaning limfa drenaji qanday amalga oshadi?
9. O‘pkaning innervatsiyasi qanday?
10. O‘pkaning klinik ahamiyati nimada?

PLEVRA (PLEURA)

Ko‘krak qafasida **uchta mustaqil seroz xaltacha** mavjud: har bir o‘pka uchun bittadan, yurak uchun esa bitta (o‘rta joylashgan). O‘pkani qoplaydigan seroz parda plevra deb ataladi va ikki varaqdan iborat: visseral (o‘pka) plevra — **pleura visceralis (pulmonalis)**, parietal (devoriy) plevra — **pleura parietalis**

Plevraning tavsifi. **Visseral plevra** o‘pka yuzasini qoplaydi va uning to‘qimasi bilan juda zich birikkan, shuning uchun ajratib olish to‘qima shikastlanishsiz mumkin emas. U o‘pka egatlari ichiga kirib, bo‘laklarni bir-biridan ajratadi. O‘pkaning o‘tkir qirralarida plevraning mayda kipriksimon bo‘rtmalari uchraydi. O‘pka ildizi sohasida visseral plevra bevosita parietal plevraga o‘tadi.

Parietal plevra — plevral xaltaning tashqi varag‘i bo‘lib: tashqi tomoni bilan ko‘krak qafasi devorlariga, ichki tomoni bilan visseral plevruga qaragan. Ichki yuzasi mezoteliy bilan qoplangan. Plevra varaqlari orasidagi oz miqdordagi seroz suyuqlik nafas paytida ularning ishqalanishini kamaytiradi.

Plevraning funksional ahamiyati. Plevra: transsudatsiya (suyuqlik ajralishi), **rezorbsiya** (suyuqlik so‘rilishi) jarayonlarida muhim ro‘l o‘ynaydi. Kasalliklarda bu muvozanat keskin buziladi.

Embriologik kelib chiqish farqi sababli: visseral plevra asosan chiqaruvchi (**sekretsiyon**), **parietal plevra** esa, ayniqsa qovurg‘a qismida limfa tomirlari ustunligi tufayli, so‘ruvchi (**rezorbktiv**) funksiyani bajaradi.

Plevra bo‘shlig‘i va sinuslar. Visseral va parietal plevra orasidagi tor bo‘shliq plevra bo‘shlig‘i (*cavitas pleuralis*) deb ataladi. Tinch holatda unda **1–2 ml suyuqlik** bo‘ladi. Bu suyuqlik ko‘krak qafasining inspirator kengayishi va o‘pkaning elastik tortilishi o‘rtasidagi mexanik muvozanatni ta‘minlaydi. Sog‘lom odamda plevra bo‘shlig‘i makroskopik ko‘rinmaydi. O‘pka va plevra chegaralari mos kelmagan joylarda plevra sinuslari (**recessus pleurales**) hosil bo‘ladi: qovurg‘a-diafragmal sinus — **recessus costodiaphragmaticus** (eng katta), qovurg‘a-mediastinal sinus — **recessus costomediastinalis** (chap o‘pkada, yurak o‘yig‘i sohasida), diafragma-mediastinal sinus — **recessus phrenicomediastinalis**. **Plevra sinuslari** plevra bo‘shlig‘ining zaxira hududlari bo‘lib, plevritda suyuqlik to‘planadigan joy hisoblanadi.

Metodik ko‘rsatmalar

1. Plevraning turlari: visseral va parietal plevrani ajratish.
2. Plevra bo‘shlig‘i va plevra sinuslarini o‘rganish.
3. Plevraning topografik chegaralarini aniqlash.
4. Plevraning klinik ahamiyatini (plevrit, pnevmotoraks) tushunish.

Nazorat savollari

1. Plevra qanday qismlardan iborat?
2. Visseral va parietal plevranning farqlari nimada?

3. Plevra bo'shlig'ining ahamiyati nimada?
4. Plevra sinuslari qaysilar?
5. Plevraning chegaralarini tushuntiring.
6. Plevraning qon bilan ta'minlanishi va innervatsiyasi qanday?
7. Plevraning klinik ahamiyati nimada?

KO'KS ORALIG'I (MEDIASTINUM)

Ko'ks oralig'i (mediastinum) — bu o'ng va chap plevra qopchalari orasida joylashgan murakkab anatomik tuzilma bo'lib, bir qator muhim hayotiy organlarni o'z ichiga oladi.

Chegaralari: **old tomondan** – to'sh suyagi (sternum); **orqa tomondan** – ko'krak umurtqa pog'onasi; **yon tomondan** – o'ng va chap mediastinal plevra; **yuqoridan** – ko'krak qafasining yuqori aperturasi; **pastdan** – diafragma bilan chegaralangan.

ANATOMIK TAQSIMLANISHI

Anatomik jihatdan ko'ks oralig'i yuqori va pastki qismlarga bo'linadi. Ular quyidagi shartli gorizontallik bilan ajratiladi: old tomonda to'sh suyagi dastasi (**manubrium sterni**) bilan tanasi tutashgan joydan, orqa tomonda esa IV–V ko'krak umurtqalari orasidagi umurtqalararo tog'aygacha o'tkazilgan tekislik.


Yuqori ko'ks oralig'i (**Mediastinum superius**). Ushbu qismda quyidagi tuzilmalar joylashgan: timus, kekirdak, qizilo'ngach, limfa tugunlari, yirik qon tomirlari va nervlar: aorta yoychasi va undan chiqadigan tomirlar, yuqori kovak vena, o'pka venalari, diafragma nervlari.

Pastki ko'ks oralig'i (**Mediastinum inferius**). Perikardga nisbatan pastki mediastinum uch bo'limga ajratiladi. 1. Oldingi ko'ks oralig'i (**Mediastinum anterius**). To'sh suyagi tanasi bilan perikardning old devori orasida joylashgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: ichki ko'krak arteriyalari va venalari, limfa tugunlari. 2. O'rta ko'ks oralig'i (**Mediastinum medium**). Bu qismda: yurak (perikard bilan o'ralgan holda), intraperikardial qon tomirlari, asosiy bronxlar, yondosh arteriyalar, venalar va limfa tugunlari joylashgan. 3. Orqa ko'ks oralig'i (**Mediastinum posterius**). Perikardning orqa devori bilan ko'krak umurtqalari

orasida joylashib, quyidagi tuzilmalarni o'z ichiga oladi: qizilo'ngach, tushuvchi aorta, adashgan nerv (n. vagus), ko'krak limfa yo'li (ductus thoracicus), limfa tugunlari, pastki kovak vena.

KLINIK TAQSIMLANISHI

Amaliy tibbiyotda o'rta ko'krak bo'shlig'i soddalashtirilgan tarzda: oldingi ko'ks oralig'i (**mediastinum anterior**), orqa ko'ks oralig'i (**mediastinum posterior**) ga ajratiladi. Ular orasidagi chegara sifatida o'pkalar ildizlari va traxeya orqali o'tkazilgan frontal tekislik qabul qilinadi. Ba'zi hollarda traxeya bifurkatsiyasidan diafragma gacha o'pka boylami (**ligamentum pulmonale**) deb ataluvchi biriktiruvchi to'qima pardasi cho'ziladi. Ushbu tuzilma yallig'lanish jarayonlarining ko'ks oralig'i bo'limlari orasida tarqalishini cheklaydi.



Rasm 9. IX ko'krak umurtqasi darajasida ko'krak qafasining ko'ndalang kesimi

1 — umurtqa tanasi (9-ko'krak umurtqasi), corpus vertebrae (ThIX); 2 — aortaning ko'krak qismi, pars thoracica aortae; 3 — chap qorincha, ventriculus sinister; 4 — chap o'pka, pulmo sinister; 5 — to'sh suyagi, sternum; 6 — o'ng qorincha,

ventriculus dexter; 7 — o'ng o'pka, pulmo dexter; 8 — o'ng bo'lmacha, atrium dextrum; 9 — pastki kovak vena, vena cava inferior.

Metodik ko'rsatmalar

1. Ko'ks oralig'ining bo'limlarini (oldingi, o'rta, orqa) aniqlash.
2. Har bir bo'limda joylashgan organlarni sanab berish.
3. Ko'ks oralig'i organlarining o'zaro munosabatlarini tushunish.
4. Mediastinumning xirurgik va klinik ahamiyatini bilish.

Nazorat savollari

1. Ko'ks oralig'i tushunchasini izohlang.
2. Ko'ks oralig'ining bo'limlarini sanab bering.
3. Oldingi mediastinumda qaysi tuzilmalar joylashgan?
4. O'rta mediastinumda qaysi organlar joylashgan?
5. Orqa mediastinum tarkibiga nimalar kiradi?
6. Mediastinum organlarining topografik munosabatlari qanday?
7. Mediastinumning klinik va xirurgik ahamiyati nimada?

II BOB. SIYDIK CHIQRISH TIZIMI, *SYSTEMA UROPOETICA*

Mashg'ulot maqsadi:

Siydik chiqarish tizimining anatomik tuzilishini va funksional ahamiyatini o'rganish. Xususan:

1. **Buyraklar (renes)** ning tashqi va ichki tuzilishini, ularning topografiyasi va skeletotopografiyasini o'rganish;
2. Buyrakning qon bilan ta'minlanishi, venoz va limfatik oqimi hamda innervatsiyasini tahlil qilish;
3. **Nefron** – buyrakning strukturaviy-funksional birligi sifatida, uning bo'limlari va siydik hosil bo'lishidagi rolini o'rganish;
4. **Siydik yo'llari:** buyrak jomi va kosachalari (**pelvis renalis, calyces renales**), siydik nayi (**ureter**), siydik pufagi (**vesica urinaria**) va siydik chiqarish kanali (**urethra**) ning tuzilishi, topografiyasi va funksional xususiyatlarini o'rganish;

5. Siydik chiqarish tizimining yoshga xos anatomik xususiyatlari va klinik ahamiyatini tushuntirish.

O‘quv (ta’limiy) vositalari:

1. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulot materiallari
2. Odam anatomiyasi bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha darsliklar
3. Anatomik mulyajlar va maketlar
4. Jadvallar va sxemalar (buyrak tuzilishi, nefron, qon tomirlari)
5. Nam (ho‘l) anatomik preparatlar
6. Multimedia taqdimotlari (zaruratga ko‘ra)

Nazariy ma’lumotlar

SIYDIK AJRATISH TIZIMI (SYSTEMA UROPOETICA)

Siydik ajratish tizimi buyraklar va siydik chiqaruvchi yo‘llardan iborat bo‘lib, ular quyidagi qismlarga bo‘linadi:

1. **Ichki buyrak qismlari (intraparenximatoz):** to‘plovchi naychalar (**tubulalar**), cho‘zinchoq kanallar (**ductus papillaris**), kichik bo‘shliqlar (**calices minores, 8–9 dona**), katta bo‘shliqlar (**calices majores, 2–3 dona**), buyrak poyalari (**pelvis renalis**)
2. **Tashqi buyrak qismlari (ekstraparenximatoz):** siydik qopiplari (**ureter**), siydik pufagi (**vesica urinaria**), siydik chiqaruvchi kanal (**urethra**).

Bu organlar modda almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan, organizmda o‘zgarishlarga uchramaydigan birikmalarni tashqi muhitga ajratish vazifasini bajaradi. Asosan yakuniy mahsulotlar suvli eritmalar shaklida – tuzlar, ishqorlar va organik moddalar ko‘rinishida chiqariladi. Siydik ajratish tizimi kuniga 1700 litrdan ortiq qonning murakkab filtratsiya va qayta so‘rilish mexanizmini amalga oshiradi.

Rivojlanish bosqichlari. Filogenez. Eng oddiy ko‘p hujayrali organizmlarda, masalan, shilliqqo‘mloqlarda, maxsus ajratish organlari mavjud emas; almashinuvi mahsulotlari hujayra poralari orqali diffuziya orqali chiqariladi. Pastki qurtlarda ajratish organlari **pronefridiyalar** – tarmoqsimon naychalar bo‘lib, ular teri yuzasidagi teshiklar orqali ochiladi. Halqali qurtlarda esa **metanefridiyalar** rivojlangan; ular ikkilamchi bo‘shliq (coelom) bilan bog‘liq bo‘lib, bir uchi

coelomga ochilgan, ikkinchi uchi teri yuzasiga chiqqan. Metanefridiyalar umurtqalilarning ajratish organlarining prototipi hisoblanadi.

Umurtqalilarda asosiy buyrak organi buyrak bo'lib, evolyutsiya davomida uch rivojlanish bosqichidan o'tadi. Bu jarayon ontogenezda ham takrorlanadi, shuning uchun insonda ham uch avlod buyrak shakllari ketma-ket rivojlanadi.

Ontogenez. Buyraklar **mezodermaning o'rta qatlamidan (mesoderm)**, ya'ni uning segmental oyoqlaridan (**nefromlar**) rivojlanadi.

1. **Oldingi buyrak (Pronephros).** Ikkinchi haftaning oxirida shakllanadi va 40–50 soat davomida faoliyat ko'rsatadi. Mezodermaning oldingi 8–10 segmental oyoqlaridan egri naychalar (pronefridiyalar) hosil bo'ladi. Pastki umurtqalilar va baliq, amfibiyalar larvalarida ishlaydi, yuqori umurtqalilar va insonda mavjud emas.
2. **Dastlabki buyrak (Mesonephros).** Uch haftaning oxiridan rivojlanadi. Mezodermaning 25 segmental oyoqlaridan hosil bo'ladi. Baliq va amfibiyalar kabi kattalarda faoliyat ko'rsatadi. Yuqori umurtqalilar va inson embrionida vaqtinchalik faol bo'ladi. Metanefridiyalar hosil bo'lib, ular mesoneftral kanal bilan bog'lanadi. Shu vaqtda aortadan chiqadigan qon tomirlari kapillyar to'r hosil qiladi, kanalchalar bu kapillyarlarga yopishadi va buyrak tanachasi (**corpusculum renale**) hosil bo'ladi.
3. **Oxirgi buyrak (Metanephros).** Ikkinchi oyda rivojlanishni boshlaydi va uchinchi oyda doimiy buyrak funksiyasini bajaradi. Bu kattalar umurtqalilarda va insonda hayot davomida faoliyat ko'rsatadigan buyrakdir. Rivojlanishi ikki manbadan: mesoneftral (**Wolff**) kanal – siydik yo'llari, siydik qopiqdari, buyrak bo'shliqlari, cho'zinchoq kanallar va to'plovchi naychalar rivojlanadi. Nefrogenik to'qima – buyrak kanalchalari (nefronlar) hosil bo'ladi.

Siydik pufagi va uretra cloaca transformatsiyasi bilan rivojlanadi: Embrionda **cloaca** – bu orqa ichakning kengayishi bo'lib, siydik, axlat va jinsiy mahsulotlar umumiy qabul qiluvchisi. **Wolff** kanali cloacaga ochilgan joyda allantois paydo bo'ladi. **Urorrectal** o'tkazuvchi qatlam cloacani old va orqa qismlarga ajratadi: orqa qismi to'g'ruchak ichakka aylanadi, old qismi esa siydik pufagi va genitourinal

sinusga aylanadi. Doimiy buyrak eng oxirgi bel va yuqori sakral segmentlarda rivojlana boshlaydi, keyin esa uchinchi oyda ko‘tariladi.

Yoshga bog‘liq xususiyatlar. Yangi tug‘ilgan chaqaloq va 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarda buyrak lobli va qobiq yuzasi g‘allali. Kattalarda silliq bo‘ladi. Buyrakning o‘sishi asosan birinchi yil davomida sodir bo‘ladi; jinsiy yetilishgacha kortikal qism o‘sadi. Buyrak bo‘shliqlari yangi tug‘ilganlarda keng, ampul shaklida. Ureterlar egri yo‘nalishda. Siydik pufagi yangi tug‘ilganlarda cho‘ziq shakl, birinchi yillarda nok shakl, 8–12 yoshda tuxum shaklida. 1–3 yoshda pufakning tag qismi pubik simfiz sathida joylashadi, keyinchalik pastga tushadi. Qariyalar davrida siydik ajratish tizimi mushak tolalari elastikligini yo‘qotadi.

Tizimni tekshirish usullari: tsistoskopiya, urokinamika, ultrasonografiya (USG), kompyuter tomografiya (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT), urografiya, sintigrafiya, laborator tahlillar.

Metodik ko‘rsatmalar

1. Darslik va ma‘ruza materiallari asosida siydik ajratish tizimining umumiy tuzilishi va funksional ahamiyatini o‘rganish. Tizim tarkibiga kiruvchi organlar (buyraklar, siydik naylari, siydik pufagi va siydik chiqarish kanali)ning o‘zaro anatomik va funksional bog‘liqligini tahlil qilish.
2. Siydik ajratish tizimining asosiy vazifalarini (siydik hosil qilish, organizmdan almashinuv mahsulotlarini chiqarish, suv-tuz va kislota-ishqor muvozanatini saqlash) tushuntirish.
3. Tizim organlarining topografik joylashuvi, qo‘shni organlar bilan munosabati va klinik ahamiyatiga e‘tibor qaratish.
4. Siydik ajratish tizimining qon bilan ta‘minlanishi, venoz va limfatik oqimi hamda innervatsiyasining umumiy prinsiplari bilan tanishish.
5. Siydik ajratish tizimi organlarining yoshga oid va jinsiy xususiyatlarini tahlil qilish.

Nazorat savollari

1. Siydik ajratish tizimi tarkibiga qaysi organlar kiradi?
2. Siydik ajratish tizimining asosiy va qo‘shimcha vazifalarini sanab bering.


3. Buyrakning organizm homeostazini saqlashdagi ahamiyati nimadan iborat?
4. Siydik ajratish tizimi organlarining umumiy topografiyasini tushuntiring.
5. Siydik ajratish tizimining qon bilan ta'minlanishining umumiy prinsiplari qanday?
6. Siydik ajratish tizimi innervatsiyasining ahamiyati nimada?
7. Siydik ajratish tizimi organlarining yoshga oid xususiyatlarini aytib bering.
8. Siydik ajratish tizimi kasalliklarining klinik belgilariga misollar keltiring.

BUYRAK (REN, NEPHROS)

1. Vazifalari (Funksiyalari). Buyrak siydik ajratish tizimining asosiy juft a'zosi bo'lib, nafaqat siydik hosil bo'lishini, balki organizm ichki muhitining barqarorligini ta'minlovchi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi: **Asosiy ajratuvchi funktsiya:** qonni filtrlash, qayta so'rilish va sekretiya jarayonlari orqali siydik hosil qilish. **Gomeostatik funktsiya:** organizm ichki muhitining doimiyligini saqlash: qonning kislota-ishqor muvozanati (**pH**) ni me'yorda ushlab turish; ion va tuzlar muvozanatini tartibga solish; azotli almashinuv mahsulotlari (mochevina, kreatinin va boshqalar) miqdorini boshqarish. **Gemodinamik (bosimni tartibga soluvchi) funktsiya:** arterial qon bosimini boshqarishda ishtirok etadi; renin–angiotenzin–aldosteron tizimi orqali renin gormonini sintez va sekretiya qiladi; kallikrein–kinin tizimi faoliyatini ta'minlaydi. **Gemopoezga ta'siri:** eritropoetin gormonini ishlab chiqarish orqali suyak ko'migida eritrotsitlar hosil bo'lishini rag'batlantiradi. **Biologik faol moddalar sintezi:** prostaglandinlar va boshqa biologik faol moddalarni sintez qiladi, ular tomir tonusi va yallig'lanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

2. Rivojlanish manbai (Embriogenezi). Buyrak mezodermaning o'rta qatlamidan, aniqrog'i uning segmentar oyoqchalari – nefrotomlardan rivojlanadi. Ontogenez davomida buyrak ketma-ket almashinuvchi uch rivojlanish bosqichi orqali shakllanadi: 1. Oldingi buyrak – **Pronephros:** embrional rivojlanishning dastlabki davrida hosil bo'ladi; 5–8 ta naychadan tashkil topgan; Taxminan 50 soat davomida mavjud bo'ladi; Funksional ahamiyati yuqori umurtqalilar va insonda yo'q, ammo pronephrosning chiqaruv yo'li (kanali) keyingi buyrak avlodlari uchun

saqlanib qoladi. 2. Dastlabki (birlamchi) buyrak – **Mesonephros**: oldingi buyrakdan keyin rivojlanadi; 25–30 ta egri naychadan iborat; Naychalar kapillyar chigallar bilan birikib, buyrak tanachalarini (**corpusculum renale**) hosil qiladi; Pastki umurtqalilarda (baliqlar, amfibiyalar) doimiy buyrak sifatida faoliyat ko‘rsatadi; Inson embrionida esa vaqtinchalik faoliyat bajaradi va keyinchalik regressiyaga uchraydi.



Rasm 10. Buyrak, orqa tomondan ko‘rinishi

1 – yuqori uchi, *extremitas superior*; 2 – medial cheti, *margo medialis*; 3 – buyrakning po‘stloq moddasi, *cortex renis*; 4 – kichik buyrak kosachalari, *calyces renales minores*; 5 – lateral cheti, *margo lateralis*; 6 – buyrak jomi, *pelvis renalis*; 7 – katta buyrak kosachalari, *calyces renales majores*; 8 – buyrakning miya moddasi (piramidalar), *medulla renis (pyramides renales)*; 9 – siydik nayi, *ureter*; 10 – pastki uchi, *extremitas inferior*.

Embrion rivojlanish jarayonida birlamchi buyrak chiqaruv yo‘li – **Volf (Wolff) kanali** paydo bo‘ladi. U siydik-jinsiy burma (**plica urogenitalis**) tarkibida joylashadi va embrionda taxminan 2 oygacha faoliyat ko‘rsatadi.

Keyinchalik uning o‘rnini yakuniy, doimiy buyrak – **metanefros (metanephros)** egallaydi. Ushbu bosqichda quyidagi tuzilmalar shakllanadi: buyrakning po‘stloq (**kortikal**) va mag‘iz (**medullyar**) moddalari; buyrak jomi (**pelvis renalis**); katta va kichik kosachalar; siydik naychalari. Buyrak rivojlanishi

jarayonida u dastlab kichik chanoq sohasida joylashib, keyinchalik bel sohasiga ko'tariladi (buyrakning ko'tarilishi – **ascensus renis**).

3. Buyrakning topografiyasi. Ikkala buyrak ham bel sohasida, qorin pardaning orqa tomonida (**retroperitoneal**) joylashgan.

Old qorin devoriga proyeksiyasi: **o'ng buyrak**: regio epigastrica, regio umbilicalis, regio abdominalis lateralis dextra; **chap buyrak**: regio epigastrica, regio abdominalis lateralis sinistra.

Skeletotopiya. Buyraklar umurtqa pog'onasining ikki tomonida, XII ko'krak va I–II bel umurtqalari darajasida joylashadi; Chap buyrakning yuqori uchi ba'zan XI ko'krak umurtqasigacha yetadi; XII qovurg'a: chap buyrakni deyarli teng ikki qismga bo'ladi; o'ng buyrakda esa 1/3 qismi qovurg'adan yuqorida, 2/3 qismi pastda joylashadi.

Qo'shni a'zolar: o'ng buyrak bilan tutashadi: o'ng buyrakusti bezi, jigar, o'n ikki barmoqli ichak, ingichka ichak, yo'g'on ichakning o'ng egilishi (flexura coli dextra). Chap buyrak bilan tutashadi: chap buyrakusti bezi, taloq, oshqozon, oshqozon osti bezi, ingichka ichak, yo'g'on ichakning chap egilishi (flexura coli sinistra). Orqa tomondan: buyraklar mushakli yotoqda joylashadi: m. diaphragmaticus, m. psoas major, m. quadratus lumborum, m. transversus abdominis.

4. Buyrakning makroskopik tuzilishi. Buyrakda quyidagi anatomik qismlar ajratiladi: oldingi (ko'proq bo'rtib chiqqan) va orqa yuzalar – facies anterior et posterior; yuqori va pastki uchlari – extremitas superior et inferior; lateral (qavariq) va medial (botiq) chetlari – margo lateralis et medialis. Medial chetning markazida buyrak darvozasi – **hilum renale** joylashgan. Shu joydan: buyrak arteriyasi, buyrak venasi, nervlar va siydik nayi (**ureter**) o'tadi. Bu tuzilmalar majmuasi buyrak oyoqchasi – **crus renis** deb ataladi. Darvoza ichkarida buyrak sinusiga – **sinus renalis** olib boradi.

Buyrak qobiq va fiksatsiyasi. Buyrak tashqaridan: Fibroz qobiq (**capsula fibrosa**) bilan qoplangan – u parenximadan oson ajraladi; Yog'li qobiq (**capsula adiposa**) – ayniqsa orqa tomonda qalin; **Buyrak fassiyasi** – old va orqa

varaqchalardan iborat. Buyrakning mustahkamlanishi quyidagilar orqali ta'minlanadi: buyrak fassiyasi; qorin ichki bosimi; mushak yotoq; buyrak oyoqchasi; yog'li kapsula; bel lordozi; boylamlar (lig. hepatorenale, lig. hepatoduodenale).

Buyrakning segmentar tuzilishi. Har bir buyrakda **5 ta segment** ajratiladi: yuqori segment; yuqori-oldingi segment; pastki-oldingi segment; pastki segment; orqa segment. Har bir segment 2–3 ta buyrak bo'lagidan (**lobus renalis**) tashkil topgan. Bir buyrak bo'lagi: bitta piramida, unga yondosh po'stloq moddadan iborat.


5. Gistologik tuzilishi. Buyrak ichki tuzilmasi: buyrak sinusi, parenxima: po'stloq (**cortex renis**) va mag'iz (**medulla renis**) moddalardan iborat. Mag'iz modda 17–20 ta **buyrak piramidalaridan** iborat; ularning uchi buyrak so'rg'ichi (**papilla renalis**) bilan sinusga ochiladi. Po'stloq modda periferiyada joylashadi; piramidalar orasiga kirib, buyrak ustunlarini (**columnae renales**) hosil qiladi; asosiy funksional birlik – **nefronlar** joylashgan.

Nefron – buyrakning struktur-funksional birligi. Har bir buyrakda 1 milliondan ortiq nefron mavjud. Nefron tarkibi: kapillyar chigali – **glomerulus**; glomerula kapsulasi (**Bowman kapsulasi**); proksimal o'ralma kanalcha; **Genle halqasi**; distal o'ralma kanalcha; to'plovchi naycha.

Buyrak qon bilan ta'minlanishi va siydik hosil bo'lishi. Buyrak arteriyasi qorin aortasidan chiqib, yuqori bosim bilan keladi. Qon aylanishining xususiyati — ikki karra kapillyar tarmoq mavjudligi: 1. **glomerulyar** – filtratsiya uchun; 2. **kanalchaviy** – qayta so'rilish (reabsorbsiya) uchun. Bir sutkada: buyrakdan ≈ 1500 litr qon o'tadi; 1,5–2 litr ikkilamchi siydik ajraladi.

Siydik chiqaruvchi tuzilmalar: to'plovchi naychalar \rightarrow so'rg'ich kanallari (**ductuli papillares**) \rightarrow kichik kosachalar (7–10 ta) \rightarrow katta kosachalar (2–3 ta) \rightarrow buyrak jomi. Kosacha devoridagi **fornikal apparat**: sistolik va diastolik qisqarish orqali siydik oqimini ta'minlaydi.

6. Yoshga bog'liq xususiyatlar. Yangi tug'ilganlarda buyrak yumaloq va bo'rtma; vazni ≈ 12 g; Asosiy o'sish 1-yilda; Po'stloq modda 16 yoshda to'liq rivojlanadi; 50 yoshdan keyin va ozg'inlikda buyraklar pastga tushadi; Barcha yoshda o'ng buyrak chapdan pastroq joylashadi.



Rasm 11. Nefronning tuzilishi

1 – kapillyar tugunchasi (glomerula), glomerulus; 2 – naychanning proksimal qismi: 2a – glomerula kapsulasi (Bowman kapsulasi), capsula glomeruli; 2b – buyrakning o‘ralma proksimal naychasi, tubulus renalis contortus proximalis; 3 – naychanning distal qismi (o‘ralma distal naycha), tubulus renalis contortus distalis; 4 – Genle halqasining ingichka qismi, ansa nephroni (**Henle**).

7. Buyrak rivojlanishining anomaliyalari. Buyrak anomaliyalari asosan soni, joylashuvi, tuzilishi hamda chiqaruvchi yo‘llari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Buyrak soniga oid anomaliyalar. **Buyrak aplaziyasi** – buyrakning tug‘ma yo‘qligi; bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo‘lishi mumkin; qo‘shimcha (uchinchi) buyrak; Ikki martalik (dubl) buyrak; **Qo‘shilib ketgan buyraklar:** podkova shaklidagi buyrak; L-simon buyrak; S-simon buyrak.

Buyrak joylashuvining anomaliyalari (distopiyalar). Buyrakning normal anatomik holatdan chetga chiqib joylashishi **buyrak distopiyasi** deb ataladi.

Joylashuviga qarab quyidagi turlari farqlanadi: chanoq buyragi; bel sohasidagi buyrak; yonbosh buyrak; ko'krak qafasi buyragi.

Boshqa anomaliyalar: chiqaruvchi yo'llar anomaliyalari (kosacha–jom tizimi va ureterlar); buyrak segmentatsiyasining buzilishi; tuzilish anomaliyalari, jumladan: buyrak polikistozi – ko'p sonli kistalar bilan kechuvchi irsiy kasallik; megakalioz – buyrak kosachalarining patologik kengayishi.

Potter sindromi (**Potter yuzi**). Ikki tomonlama buyrak yetishmovchiligi yoki og'ir buyrak anomaliyalari bilan kechadi. Quyidagi tashqi belgilar bilan xarakterlanadi: ko'zlarning keng joylashuvi (**ko'z gipertelorizmi**); quloq supralarining past joylashishi; burunning yassiligi va zich ko'rinishi.

8. Buyrakni tekshirish va diagnostika usullari. Rentgenologik tekshiruv. Bel sohasining oddiy rentgenografiyasida buyraklarning pastki qismi konturlari ko'rinishi mumkin; Buyrakni to'liq vizualizatsiya qilish uchun (**pnevmoretroperitoneografiya**) qo'llaniladi. Kontrastli rentgen tekshiruv. Buyrakning chiqaruvchi tizimini (kosachalar, jom, ureter) tirik organizmda o'rganish imkonini beradi; Tomir ichiga kontrast modda yuboriladi, u buyrak orqali ajralib, siydik bilan birga rentgenogrammada aniq tasvir hosil qiladi. Ushbu usul vena ichiga uroografiya (**intravenoz uroografiya**) deb ataladi va buyrakning morfofunktsional holatini baholashda keng qo'llaniladi.

Metodik ko'rsatmalar

1. Buyrakning tashqi tuzilishini o'rganish: yuqori va pastki uchlari, medial va lateral chetlari, oldingi va orqa yuzalari.
2. Buyrak darvozasi va uning tarkibiy qismlarini (a. renalis, v. renalis, pelvis renalis) aniqlash.
3. Buyrak parenximasining tuzilishini o'rganish: po'stloq va miya moddasi, buyrak piramidalari va so'rg'ichlari.
4. Buyrak ichki bo'shliqlar tizimini ko'rib chiqish: kichik va katta buyrak kosachalari, buyrak jomi.
5. Nefron tuzilishi va uning funksional bo'limlarini (glomerula, naychalar tizimi) o'rganish hamda ularning siydik hosil bo'lishidagi rolini tushuntirish.

6. Buyrakning qon bilan ta'minlanishi va mikrotsirkulyator ruslani (glomerulyar kapillyarlar) klinik nuqtai nazardan tahlil qilish.

Nazorat savollari

1. Buyrakning tashqi tuzilishini tavsiflab bering.
2. Buyrak darvozasi orqali qaysi tuzilmalar o'tadi?
3. Buyrak parenximasi qanday qismlardan iborat?
4. Buyrak piramidalari va so'rg'ichlarining funksional ahamiyati nimada?
5. Buyrak kosachalari va buyrak jomining vazifasini tushuntiring.
6. Nefron nima va u qanday qismlardan tashkil topgan?
7. Glomerulyar filtratsiya nima?
8. Buyrakning qon bilan ta'minlanishi va mikrotsirkulyatsiyasi qanday amalga oshadi?
9. Buyrakning klinik jihatdan muhim anatomik xususiyatlarini ayting.
10. Buyrakning yoshga oid anatomik farqlari nimalardan iborat?

SIYDIK NAYI (URETER)

1. Vazifasi. Siydik nayi — buyrak jomini (**pelvis renalis**) siydik pufagi (**vesica urinaria**) bilan bog'lovchi juft naychasimon a'zo hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi buyrakda hosil bo'lgan siydikni **peristaltik qisqarishlar** orqali siydik pufagiga o'tkazishdan iborat.

2. Rivojlanish manbai (Embriogenezi). Siydik nayi birlamchi buyrak (**mesonefros**) chiqaruv yo'lining ureteral o'simtasidan rivojlanadi. Ushbu o'simta keyinchalik buyrak jomi va kosachalar tizimi bilan birgalikda differensiyalanadi.

7. Diagnostika. Bulbouretral bezlarni tekshirishda quyidagi usullar qo'llaniladi: magnit-rezonans tomografiya (MRT); kompyuter tomografiya (KT); ultratovush tekshiruvi (UTT); bez sekretining biokimyoviy tahlili.

Metodik ko'rsatmalar

1. **Bulbouretral bezlarning umumiy tavsifi va vazifasi** bulbouretral bezlarning juft qo'shimcha jinsiy bezlar ekanligini, ularning erkak reproduktiv tizimidagi o'rnini va funksional ahamiyatini o'rganish. Bezlar tomonidan ishlab chiqariladigan shilliq sekretning urug' suyuqligi tarkibidagi roli va siydik chiqarish kanalini himoyalashdagi ahamiyatiga e'tibor qaratish.
2. **Topografiyasi va joylashuvi** bulbouretral bezlarning chanoq tubida, siydik chiqarish kanalining pardali qismi (**pars membranacea urethrae masculinae**) ostida, chuqur ko'ndalang oraliq muskuli (**m. transversus perinei profundus**) ichida joylashishini aniqlash. Ularning siydik chiqarish kanaliga nisbatan anatomik munosabatlarini tushunish.
3. **Tashqi va ichki tuzilishi** bezlarning shakli, kattaligi, kapsulasi va juft holda joylashishini o'rganish. Har bir bezdan chiqadigan chiqaruvchi yo'llar (**ductus glandulae bulbourethrales**) ning siydik chiqarish kanalining g'ovak qismiga (**pars spongiosa urethrae**) ochilishini aniqlash.
4. **Gistologik tuzilishi** bulbouretral bezlarning murakkab nay-pufaksimon (**tubuloalveolyar**) bezlar ekanligini, ularning sekretor epiteliy hujayralari va shilliq ishlab chiqaruvchi xususiyatlarini mikroskopik darajada o'rganish.
5. **Fiziologik ahamiyati** bezlar sekreti siydik chiqarish kanalini moylash, urug' suyuqligi o'tishini yengillashtirish va kanal ichidagi kislota muhitini neytrallashtirishdagi rolini tushuntirish.
6. **Yoshga oid va klinik jihatlar** bulbouretral bezlarning jinsiy yetilish davrida rivojlanishi va faoliyati, yallig'lanish kasalliklari (kupperit) hamda ularning klinik ahamiyatini muhokama qilish.

Nazorat savollari

1. Bulbouretral bezlar qaysi jinsiy tizimga mansub va nechta bo'ladi?
2. Bulbouretral bezlarning anatomik joylashuvi va topografiyasi qanday?

3. Bezlarning chiqaruvchi yo'llari qayerga ochiladi?
4. Bulbouretral bezlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Ularning sekretining urug' suyuqligi tarkibidagi ahamiyati nimada?
6. Bulbouretral bezlarning gistologik tuzilishi qanday bezlar turiga kiradi?
7. Siydik chiqarish kanali bilan anatomik va funksional bog'liqligi qanday?
8. Bulbouretral bezlarning yallig'lanish kasalligi qanday ataladi?
9. Ushbu bezlarning erkak reproduktiv salomatligidagi klinik ahamiyati nimadan iborat?

ERKAK SIYDIK CHIQARISH KANALI (URETHRA MASCULINA)

Erkak siydik chiqarish kanali siydik-tanosil tizimiga mansub bo'lib, siydik va spermani tashqariga chiqaruvchi umumiy yo'l vazifasini bajaradi.

1. Funktsiyasi. Erkak uretrasi ikki xil biologik suyuqlikni: siydikni, urug' suyuqligini (spermani) tashqi muhitga chiqaradi.

2. Rivojlanishi. Embrional rivojlanishning **8-haftasida** jinsiy a'zolarining boshlang'ich belgilari paydo bo'ladi. Jinsiy bo'rtma (**tuberculum genitale**) uzunlik bo'yicha faol o'sadi. Uning pastki yuzasida joylashgan yoriq jinsiy burmalar (**plicae urogenitales**)ning qo'shilishi natijasida yopilib, siydik chiqarish kanali shakllanadi.

3. Topografiyasi. Uretra: siydik pufagining ichki teshigidan (**ostium urethrae internum**) boshlanadi; prostata bezidan o'tadi; jinsiy olat bo'ylab davom etib, uning boshida joylashgan tashqi teshik (**ostium urethrae externum**) bilan tugaydi.

4. Anatomik tuzilish. Erkak siydik chiqarish kanalida uch qism ajratiladi: **a)** Prostatik qism (**pars prostatica**): prostata bezining ichida joylashgan; uzunligi taxminan **3 sm**; orqa devorida uretral qirradi (**crista urethralis**) mavjud; qirraning eng bo'rtib chiqqan qismi urug' bo'rtig'i (**colliculus seminalis**) deb ataladi; Bu yerda paramezonefros kanalining rudimenti — prostatik bachadoncha (**utriculus prostaticus**) joylashgan; uning ikki tomoniga ejakulyator yo'llar va prostata bezlari yo'llari ochiladi. **b)** Parda (membranoz) qism (**pars membranacea**): kichik tos tubida joylashgan; prostata bezidan jinsiy olat piyozchasigacha cho'ziladi; uzunligi taxminan **1,5 sm**; siydik-jinsiy diafragmadan o'tgan joyida ixtiyoriy tashqi sfinkter (**m. sphincter urethrae**) joylashadi. **c)** Gubkali qism (**pars spongiosa**): jinsiy olat

ichida joylashgan; eng uzun qism bo‘lib, **15 sm** atrofida; uretraning eng harakatchan bo‘limidir.

Torayish joylari: ichki uretral teshik sohasida; siydik-jinsiy diafragmadan o‘tganda; tashqi uretral teshikda. **Kengayish joylari:** prostatik qismda; jinsiy olat piyozchasida; oxirgi bo‘limda — qayiqsimon chuqurcha (**fossa navicularis**).

5. Gistologik tuzilishi. Uretraning shilliq qavati ko‘plab mayda shilliq bezlarni o‘z ichiga oladi; Prostatik qismda u o‘tuvchi epiteliy bilan qoplangan; Membranoz va gubkali qismlarda — ko‘p qatorli prizmatik epiteliy; Jinsiy olat boshida — ko‘p qatlamli yassi epiteliy bilan qoplangan; Shilliq qavat tashqarisida silliq mushak tolalari qatlami joylashadi.

6. Yoshga bog‘liq xususiyatlari Katta yoshdagi erkaklarda uretra uzunligi taxminan 18 sm; Kanal bo‘shlig‘i maksimal 10 mm diametrli kateterni o‘tkaza oladi.

7. Diagnostika. Tekshiruv usullari: kontrast modda bilan rentgenologik tekshiruv; kompyuter tomografiya (KT); ultratovush tekshiruvi (UTT).

ERKAK ICHKI JINSIY A‘ZOLARINING RIVOJLANISH ANOMALIYALARI

Agonadizm – jinsiy bezlarning tug‘ma yo‘qligi. **Anorxiya (anorxizm)** – tuxumdonlarning tug‘ma yo‘qligi. **Germafroditizm** (androginiya, interseksualizm) – bir shaxsda ikki jins belgilari mavjudligi. **Haqiqiy germafroditizm** – erkak va ayol jinsiy bezlarining bir vaqtda mavjudligi. **Gipogenitalizm** – jinsiy a‘zolarining qisman yoki to‘liq rivojlanmasligi. **Gipogonadizm** – jinsiy bezlar va ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanishining gormonal yetishmovchilik sababli susayishi. **Kriptorxizm** – tuxumdonlarning skrotumga tushmasligi. **Monorxizm** – bitta tuxumdonning yo‘qligi. **Aberrant tushish** – tuxumdonning noto‘g‘ri joyda (chov, son, oraliq yoki penis ostida) joylashishi. **Paradoksal tushish** – chap tuxumdonning o‘ng, o‘ng tuxumdonning chap skrotumga tushishi. **Poliurxizm** – qo‘shimcha bitta yoki bir nechta tuxumdonlarning mavjudligi. **Sinorxizm** – tuxumdonlarning qorin bo‘shlig‘ida yoki skrotumda birikib qolishi. **Urug‘ yo‘lining atreziyasi** – urug‘ yo‘lining yopilishi. **Urug‘ pufakchalarining gipoplaziyasi** – yetarli rivojlanmasligi. **Urug‘ yo‘lining ikki barobar bo‘lishi.** **Urug‘ pufakchasi**

kistalari. Urug' kanati kistalari – biriktiruvchi to'qimada suyuqlik bilan to'lgan yopiq bo'shliqlar hosil bo'lishi; bu holat qorin pardasining vaginal o'simtasi to'liq yopilmasligi bilan bog'liq.

Metodik ko'rsatmalar

1. **Darslik va ma'ruza materiallari asosida** erkak siydik chiqarish kanalining umumiy tuzilishi, topografiyasi va vazifalarini o'rganish. Kanalning siydik chiqarish va reproduktiv tizimdagi ikki funksiyasini tushuntirish.
2. **Topografiya va bo'limlari** erkak siydik chiqarish kanali uzunligi, bo'linishi va joylashuvini o'rganish: prostatik qism (**pars prostatica urethrae masculinae**) – prostata bezidan o'tadi; pardali qism (**pars membranacea urethrae masculinae**) – chuqur ko'ndalang oraliq muskuli orqali; g'ovak qism (**pars spongiosa urethrae masculinae**) – penis urug' pufagi va spongioz qismi orqali.
3. **Anatomik tuzilishi va qo'shni organlar bilan munosabat** kanalning prostata, urug' pufagi, bulbouretral bezlar, siydik pufagi va penis bilan topografik munosabatini o'rganish.
4. **Shilliq va mushak qavatlari** shilliq qavat (**tunica mucosa**), uning nabot hujayralari va mukus ishlab chiqaruvchi xususiyati. Mushak qavati (ichki bo'ylama va halqasimon qavat) peristaltik harakatlarda va ejakulyatsiyada ishtirokini tushuntirish.
5. **Fiziologik ahamiyati** kanal orqali siydik chiqarish va ejakulyatsiya jarayonida spermaning harakati va muhofazasini tushuntirish.
6. **Qon bilan ta'minlanishi va innervatsiya** kanalning arterial, venoz va limfatik tizimi, vegetativ va somatik innervatsiyasi bilan tanishish.
7. **Yoshga oid va klinik jihatlar** neonatal, balog'at va reproduktiv davrdagi morfologik va funksional o'zgarishlarni tahlil qilish. Klinik ahamiyat: uretrit, stenoz, travma, kongenital anomaliyalar.
8. **Amaliy mashg'ulotlar talabalardan quyidagilarni talab qiladi:** Erkak siydik chiqarish kanalining bo'limlarini preparat va maketda ko'rsatish; Shilliq va mushak qavatlarini mikroskopik preparatda aniqlash; Topografik va funksional munosabatini tushuntirish; Klinik ahamiyatini izohlash.

Nazorat savollari

1. Erkak siydik chiqarish kanali nima va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Kanalning reproduktiv va siydik chiqarish tizimidagi funksiyalarini tushuntiring.
3. Erkak siydik chiqarish kanalining bo'limlarini nomlang va har birining joylashuvini tushuntiring.
4. Prostatik, pardali va g'ovak qismlarning topografik munosabatini izohlang.
5. Kanalning prostata, urug' pufagi va penis bilan bog'liqligini tushuntiring.
6. Urethra masculina shilliq qavatining tuzilishi va mukus ishlab chiqarish xususiyati qanday?
7. Mushak qavati (ichki bo'ylama va halqasimon qavat) funksional ahamiyati nimada?
8. Eyakulyatsiya va siydik chiqarishda kanal qanday rol o'ynaydi?
9. Kanalning arterial qon bilan ta'minlanishi va venoz tizimi qanday amalga oshadi?
10. Limfatik oqim va innervatsiya funksional ahamiyati nimada?
11. Neonatal va balog'at davridagi siydik chiqarish kanalining anatomik va funksional o'zgarishlarini tushuntiring.
12. Erkak siydik chiqarish kanali kasalliklari (uretrit, stenoz, kongenital anomaliyalar) va ularning klinik ahamiyati nimada?
13. Kanal travmasi yoki jarrohlik amaliyotida ehtiyot choralari nimadan iborat?

MOYAK QOPCHASI (SCROTUM)

Moyak qopchasi erkak jinsiy tizimiga mansub bo'lib, teri-mushakli qop vazifasini bajaradi va uning ichida tuxumdonlar (testis) va ularning qo'shimchalari joylashgan. Shu bilan birga, uning tarkibida urug' yo'llarining pastki bo'limlari ham mavjud.

1. Funktsiyasi. Tuxumdonlar va ularning qo'shimchalarini himoya qiladi; Ularning haroratini saqlash orqali spermatogenez jarayonini qo'llab-quvvatlaydi; Urug' yo'llarining pastki bo'limlarini himoya qiladi.

2. Rivojlanishi. Embrional rivojlanishda jinsiy bo'rtmalar (**labia genitalia**) ayniqsa kaudal (pastki) sohalarda ko'proq cho'zilib, o'zaro yaqinlashadi va o'rtacha

chiziq bo‘ylab birlashadi. Ushbu birlashgan joy “moyak qopchasining tikish chizig‘i (**raphe scroti**)” ni hosil qiladi, u jinsiy olatning ildizidan anal teshikka qadar davom etadi.


3. Topografiyasi. Jinsiy olat ildizi orqasida va pastida joylashgan; Tanadagi boshqa bo‘shliqlardan tashqariga chiqarilgan; Tuxumdonlar va ularning qo‘shimchalarini o‘z ichiga oladi.

4. Anatomik tuzilishi. Moyak qopchasi ikkita birlashgan yarmdan iborat bo‘lib, har bir tuxumdon alohida joylashgan; Bu klinik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega.

5. Gistologik tuzilishi. Moyak qopchasining devori 7 qatlamdan tashkil topgan: 1. Teri (**cutis**) – tashqi qavat; 2. Go‘shltli qobiq (**tunica dartos**) – qorin va oraliq subkutan biriktiruvchi to‘qimasidan hosil bo‘lgan, yog‘ hujayralari yo‘q va silliq mushak tolalariga boy qatlam; 3. Tashqi urug‘ fasiyasi (**fascia spermatica externa**) – qorin yuzaki fasiyasining hosilasi; 4. Moyakni ko‘taruvchi mushak fasiyasi (**fascia cremasterica**) – qorin tashqi qiyshiq mushagi fasiyasi va aponevrozining tolalaridan hosil bo‘lgan; 5. Moyakni ko‘taruvchi mushak (**m. cremaster**) – qorin transvers va ichki qiyshiq mushaklaridan ajralgan mushak to‘plamlari; 6. Ichki urug‘ fasiyasi (**fascia spermatica interna**) – qorin transvers fasiyasining hosilasi; 7. Tuxumdon qoplamasi (**tunica vaginalis testis**) – qorin pardasidan hosil bo‘lgan va ikki qatlamga ajraladi: devor qatlami (**lamina parietalis**), ichki qavat (**lamina visceralis**). Ushbu qatlamlar orasida yopiq seroz bo‘shliq mavjud bo‘lib, u **processus vaginalis** orqali hosil bo‘ladi.

6. Yoshga bog‘liq xususiyatlari. Bolalikda moyak qopchasi kichik o‘lchamli bo‘lib, teri burmalar hosil qiladi; Jinsiy yetilish davrida tuxumdonlar o‘sishi bilan qopcha kattalashadi; Soch qoplamasi paydo bo‘ladi; Moyak pastga tushadi; Teridagi bezlar maxsus hidli sekret ishlab chiqaradi.

7. Diagnostika. Asosiy usul – vizual tekshiruv, masalan: suv to‘planishi va boshqa kasalliklarni aniqlash.



Rasm 16. Moyak (Scrotum) va uning qavatleri

1 – teri, cutis; 2 – oq qavat (tunica albuginea), tunica albuginea
 3 – moyak vaginasi (ichki, visceral qatlam), tunica vaginalis testis (lamina visceralis); 4 – moyak vaginasi (tashqi, parietal qatlam), tunica vaginalis testis (lamina parietalis); 5 – moyak qo‘shimchasi (epididimis), epididymis; 6 – ichki urug‘ fasiyasi, fascia spermatica interna; 7 – armut shaklidagi vena to‘plami, plexus pampiniformis; 8 – moyak arteriyasi, a. testicularis; 9 – urug‘ chiqaruvchi yo‘l, ductus deferens; 10, 19 – moyakni ko‘targan mushak, m. cremaster; 11, 20 – moyakni ko‘targan mushak fasiyasi, fascia cremasterica; 12 – olat g‘ovak tanasi, corpus spongiosum penis; 13 – olat osma boylami, lig. suspensorium penis; 14 – olat g‘ovakli tanasi, corpus cavernosum penis; 15 – tashqi inguinal halqa, anulus inguinalis superficialis; 16 – urug‘ ipi (**funiculus spermaticus**), funiculus spermaticus; 17 – tashqi urug‘ fasiyasi, fascia spermatica externa; 18 – moyak bo‘lagi, septum scroti; 21 – tashqi urug‘ fasiyasi, fascia spermatica externa; 22 – go‘shli qavat (dartos), tunica dartos.

Metodik ko'rsatmalar

1. **Darslik va ma'ruza materiallari asosida** moyak qopchasining umumiy tuzilishi, topografiyasi va funksiyalarini o'rganish. Qopchanning erkak reproduktiv tizimidagi biologik ahamiyatini tushuntirish: moyak va epididimisni himoya qilish, haroratni tartibga solish.
2. **Anatomik tuzilishi va qatlamlari** teri va subkutan to'qima (tunica dartos bilan birga); qopchanning mushak qavati (tunica); fascia va biriktiruvchi to'qima qatlamlari; ichki qavat: tunica vaginalis (parietal va visceral qatlamlari).
3. **Topografik jihatlar** scrotumning yuqori va pastki chegaralari, medial va lateral cheklari; o'ng va chap moyak o'rtasidagi perenial bo'linish (raphe scroti); scrotumning qon bilan ta'minlanishi va limfatik drenaji.
4. **Fiziologik ahamiyati** moyak va epididimisning termoregulyatsiyasi (yarim daraja pasayishi yoki ko'tarilishi); chov mushaklari va dartos mushaklari orqali haroratni nazorat qilish; jinsiy salomatlik va spermatogenez jarayonidagi ahamiyati.
5. **Yoshga oid o'zgarishlar** neonatal davrda, balog'atga yetish va reproduktiv yoshda anatomik-funksional farqlar; scrotum terisi, hajmi va elastikligi yoshga qarab o'zgarishi.
6. **Klinik ahamiyat** gipertermiya yoki gipotermiya, travma va infeksiya (orxit, epididimit); varikosele, giperplaziya, kista va boshqa patologiyalar; jarrohlik amaliyotida (masalan, vasektomiya) ehtiyot choralari.
7. **Amaliy mashg'ulotlarda talab qilinadigan ko'nikmalar** scrotum qatlamlarini preparat va maketda ko'rsatish; uning ichki va tashqi topografiyasini tushuntirish; qon va limfa bilan ta'minlanishini, innervatsiyasini aniqlash; funksional va klinik ahamiyatini tushuntirish.

Nazorat savollari

1. Scrotum nima va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Moyak qopchasining erkak reproduktiv tizimidagi biologik ahamiyatini tushuntiring.
3. Scrotumning tashqi va ichki qatlamlarini nomlang.

4. Dartos mushagi va cremaster mushagi qanday funktsiya bajaradi?
5. O'ng va chap moyakni ajratuvchi tuzilma nima?
6. Scrotumning qon bilan ta'minlanishi va limfatik drenajini tushuntiring.
7. Scrotum moyak va epididimisning haroratini qanday nazorat qiladi?
8. Termoregulyatsiyaning spermatogenez jarayoniga ta'siri nimada?
9. Neonatal, balog'at va reproduktiv yoshdagi scrotumning anatomik va funksional farqlarini tushuntiring.
10. Scrotum kasalliklari (varikosele, orxit, epididimit, kista) va ularning klinik belgilarini ayting.
11. Moyak qopchasining jarrohlik amaliyotidagi ahamiyatini tushuntiring.
12. Scrotum terisi va qatlamlarining travma yoki infeksiya paytida klinik ahamiyati nimada?

JINSIY OLAT (PENIS)

Jinsiy olat erkak jinsiy tizimining tashqi a'zosi bo'lib, siydik chiqarish va sperma ejakulyatsiyasi jarayonlarida ishtirok etadi.

1. Funktsiyasi. Siydikni siydik pufagidan tashqariga chiqaradi; Urug' suyuqligini tashqariga chiqaradi.

2. Rivojlanishi. Embriogenezning **3-oyida**, kloaka pardasining oldida mezenchimadan jinsiy bo'rtma hosil bo'ladi; Ushbu bo'rtma olatning g'ovak (**cavernosus**) tanalariga asos bo'ladi; Gubkali tana (**corpus spongiosum**) uretral yoriq va jinsiy burmalardan rivojlanadi.

3. Topografiyasi. O'lat inson tanasi bo'shlig'idan tashqarida joylashgan; Qov simfizining pastki qismidan boshlanadi; Orqa tomonida moyak qopchasi (**scrotum**) bilan yaqin aloqada.

4. Anatomik tuzilish O'latning uch asosiy qismi mavjud: 1. Ildiz (**radix penis**) – orqa qismi, oldingi lobiyning yuzasiga birikadi; 2. Tana (**corpus penis**) – ikki peshona va bitta gubkali tana bilan tashkil topgan; 3. Bosh (**glans penis**) – gubkali tananing oxiri; 4. Orqa sirt (**dorsum penis**) – tananing yuqori tomoni.

G'ovak tanalar (**corpora cavernosa**): silindrsimon shakl; orqa uchlari (crura penis) qov simfizining pastki shoxlariga birikadi; gubkali tana (corpus spongiosum)

gubkali shaklda, oldi qismi bosh bilan yakunlanadi; Ichida uretra joylashgan, bosh qismida kengayib qayiqsimon chuqurcha hosil qiladi. **Tuzilishi va eraksiya:** peshona tanalar maxsus gubkali to‘qimadan tashkil topgan bo‘lib, ko‘plab bo‘shliqlar qon bilan to‘lib rigidlik (**ereksiya**) hosil qiladi; Qon oqimi tugagach, to‘qima siqiladi; Teri yupqa va harakatchan; boshga o‘tishda old qavat (**preputium**, qovushgan qobiq) hosil qiladi.


5. Gistologik tuzilishi. Peshona va gubkali tanalar chuqur va yuzaki fasiyalar bilan o‘ralgan; Teri bilan qoplangan; Preputium ichki qatlamida maxsus preputial bezlar (**glandulae preputiales**) mavjud bo‘lib, himoya qiluvchi, bakteritsid va yog‘lovchi smegma sekreti ishlab chiqaradi.

6. Yoshga bog‘liq xususiyatlari. Yangi tug‘ilgan bolada uzunligi 2–2,5 sm, preputium boshni to‘liq qoplaydi; Bolalik va prepubertal davrda sekin o‘sadi; Pubertat davrda o‘sishi tezlashadi; Mushak va gubkali to‘qimalar rivojlanadi, bosh ochilishi va teri moslashadi.

7. Diagnostika. Vizual tekshiruv; Ultrasonografiya (UTT); Kompyuter tomografiya (KT).

ERKAK TASHQI JINSIY A‘ZOLARNING ANOMALIYALARI

Agenitalizm – tug‘ma jinsiy organlarning yo‘qligi; Soxta germafroditizm (**pseudohermafroditizm**) erkak turi – erkak jinsiy bezlari mavjud, lekin tashqi jinsiy a‘zolar ayolga xos; **Gipospadiya** – uretraning oxirgi bo‘limi yetishmasligi, teshik pastki yuzada, skrotum yoki perineumda ochiladi; **Makrofallos (megalopenis)** – uzunligi 25 sm dan oshgan penis (ereksiya holatida); **Mikropeniya** – ereksiya holatida 6 sm dan kichik penis, ko‘pincha tuxumdon gipoplaziyasi bilan birga; **Fimoz** – preputium tor bo‘lib, boshni ochib bo‘lmaydi; bolalarda normal (3–9 yoshgacha); **Parafimoz** – preputiumni noto‘g‘ri qayta joylashtirishda bosh siqilishi, shish va nekroz xavfi; **Olatning egilishi** – tug‘ma yoki orttirilgan deformatsiya.



Rasm 17. Olat (jinsiy a'zo) tuzilishi

1 – orqa yo‘lak (anus), **anus**; 2 – olat ildizi, radix penis; 3 – olat poyasi (bulbus penis), bulbus penis; 4 – o‘tiruvchi-g‘ovak mushak, m. ischiocavernosus; 5 – olat g‘ovak tanalari, corpora cavernosa penis; 6 – olatning sirt va chuqur fasiyalari, fasciae penis superficialis et profunda; 7 – olat tanasi, corpus penis; 8 – umumiy teri qavati, integumentum commune; 9 – qalin teri frenulumi (old qismi frenulumi), frenulum preputia; 10 – siydik chiqarish kanalining tashqi teshigi, ostium urethrae externum; 11 – olat boshchasini, glans penis; 12 – boshchaniq toj qismi, corona glandis; 13 – olat qalin terisi (preputium), preputium penis; 14 – olat tikilishi (raphe), raphe penis; 15 – olat g‘ovak tanasi (shilliqlik tanasi), corpus spongiosum penis; 16 – chuqur ko‘ndalang perineal mushak, m. transversus perinei profundus; 17 – orqa yo‘lak tashqi sfinkteri, m. sphincter ani externus.

Metodik ko‘rsatmalar

1. **Darslik va ma'ruza materiallari asosida** jinsiy olatning umumiy tuzilishi, topografiyasi va funksiyalarini o'rganish. Olatning erkak reproduktiv tizimidagi vazifalari: siydik chiqarish va ejakulyatsiya jarayonidagi roli tushuntiriladi.
2. **Topografiya va bo'limlari** radix penis – ildiz qismi, perineumga bog'langan; **Corpus penis** – tana qismi, ichida g'ovak (corpora cavernosa) va shilliq g'ovak tanasi (corpus spongiosum) mavjud; **Glans penis** – boshcha qismi, yuqori, sezgir zona.
3. **Mushak va fasiyalar** ischiocavernosus mushagi (m. ischiocavernosus) – g'ovak tanasini siqadi va ereksiya jarayonini qo'llab-quvvatlaydi; Bulbospongiosus mushagi (bulbus penis atrofida) – shilliq tanani siqib ejakulyatsiyani qo'llab-quvvatlaydi; Fasciae penis superficialis et profunda – penis tanasini o'rab turuvchi sirt va chuqur biriktiruvchi to'qima.
4. **Shilliq qavat va old teri** preputium (qalin teri) – glansni himoya qiladi; Frenulum preputii – glans old qismini bog'laydi va sezgirlikni oshiradi; Raphe penis – moyak va penisni o'rtadagi tikuvli qism.
5. **Siydik chiqarish kanali bilan bog'liqlik** pars spongiosa urethrae penis g'ovak tanasida joylashgan; Ostium urethrae externum tashqi teshik orqali siydik chiqarish amalga oshadi.
6. **Qon ta'minoti va innervatsiya** arterial qon: a. penis, a. dorsalis penis; venoz drenaj: plexus venosus; innervatsiya: sezgir va vegetativ nervlar orqali ereksiya va ejakulyatsiya jarayonini boshqaradi.
7. **Fiziologik ahamiyati** olat siydik chiqarish va jinsiy aloqada reproduktiv vazifani bajaradi; G'ovak tanalar orqali ereksiya jarayonini amalga oshiradi; Glans sezgirligi reproduktiv funksiyani ta'minlaydi.
8. **Yoshga oid va klinik jihatlar** neonatal davrda, balog'at va reproduktiv yoshda penis o'lchami va sezgirligi o'zgaradi; Klinik ahamiyat: fimozis, paraphimosis, priapizm, travmalar va jinsiy patologiyalar.
9. **Amaliy mashg'ulotlarda talaba quyidagilarni bajara olishi kerak:** Olatning bo'limlarini maket va preparatda ko'rsatish; Mushak va fasiyalarni aniqlash;

Glans, preputium, frenulum va raphe strukturasi bilan tanishish; FunkSIONAL va klinik ahamiyatini tushuntirish.

Nazorat savollari

1. Olat nima va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Olatning erkak reproduktiv tizimidagi biologik ahamiyatini tushuntiring.
3. Olatning bo'limlarini nomlang va ularning topografiyasini tushuntiring (radix, corpus, glans).
4. Glans olatning anatomik tuzilishi va preputium bilan munosabatini izohlang.
5. Raphe olat nima va uning funktsiyasi nimada?
6. Penis g'ovak tanalari va shilliq g'ovak tanasi farqini tushuntiring.
7. M. ischiocavernosus va m. bulbospongiosus mushaklarining vazifasini tushuntiring.
8. Olat fasiyalari (fasciae penis superficialis et profunda) qanday funktsiya bajaradi?
9. Penis orqali siydik chiqarish kanali qanday joylashgan?
10. Olatning qon bilan ta'minlanishi va venoz drenaji qanday amalga oshadi?
11. Olat ereksiya jarayonida mushaklar va g'ovak tanalarining roli nimada?
12. Frenulum preputii va glans sezgirligining klinik ahamiyati nimada?
13. Neonatal, balog'at va reproduktiv yoshdagi olat o'lchami va funkSIONAL xususiyatlari qanday o'zgaradi?
14. Olat patologiyalari: fimozis, paraphimosis, priapizm va travmalar qanday klinik ahamiyatga ega?

AYOL JINSIY A'ZOLARI ORGANA GENETALIA FEMININA

Ayol jinsiy a'zolari ichki va tashqi jinsiy a'zolarga bo'linadi.

Ichki ayol jinsiy a'zolari: Tuxumdonlar – ovarium (oophoron); Tuxumdon qo'shimchalari – epoophoron; Bachadon naylari – tubae uterinae (salpinx); Bachadon – uterus; Qin – vagina; Tashqi ayol jinsiy a'zolari: qin dahlizi – vestibulum vaginae; katta va kichik jinsiy lablar – labia majora et minora pudenda; klitor – clitoris; katta va kichik dahliz bezlari – glandulae vestibulares majores et

minores; qin dahlizi piyozchasi – bulbus vestibuli. Ichki va tashqi jinsiy a'zolar chegarasida qizlik pardasi (**hymen**) joylashgan.

TUXUMDON OVARIUM (OPHORON)

1. Funktsiyasi. Ayol jinsiy hujayralari — tuxum hujayralarining hosil bo'lishi va yetilishi; Qon va limfaga ajraladigan ayol jinsiy gormonlarini (estrogen, progesteron) ishlab chiqarish.

2. Rivojlanishi. Embriogenezning 7-haftasida jinsiy gonadalar ayol jinsiy a'zolariga differensiyalanadi; Jinsiy hujayralar dastlab mezenximada joylashadi, keyinchalik ularning bir qismi tuxumdon follikulalarini hosil qiladi; Tuxumdonning po'stloq (**cortex**) va miya (**medulla**) qavatlarini shakllanadi; Rivojlanish jarayonida tuxumdonlar bachadon naylari bilan birga kichik chanoq bo'shlig'iga tushadi; Birlamchi buyrak (mezonefros) naychalari ayol jinsiy tizimi rivojida **reduksiyalanadi**.

3. Topografiyasi. O'ng va chap ingvinal sohada joylashadi; Kichik chanoqning yon devorlariga proyeksiya qiladi; Erkin qavariq qirrasi orqaga, dumg'aza tomon qaragan; Yuqorida — bachadon nayi, medial tomonda — bachadon, lateral tomonda — bachadon nayining kiprikchalari; Yaqinida ichki va tashqi yonbosh tomirlari, obturator arteriya va katta bel mushagi joylashadi.

4. Anatomik tuzilishi. Tuxumdon — bachadonning ikki tomonida joylashgan juft a'zo. Uni quyidagi boylamlar tutib turadi: Tuxumdonning o'z boylami – **lig. ovarii proprium** (tuxumdonning bachadon uchidan bachadonga boradi); Osuvchi boylam – **lig. suspensorium ovarii** (kichik chanoq devoridan tuxumdonga tushuvchi qorin parda burmasi, tomirlar o'tadi); Tuxumdon tutqichi – **mesoovarium** (bachadonning keng boylamiga birikadi). Tuxumdon qismlari: medial yuzasi — **facies medialis**, lateral yuzasi — **facies lateralis**, bachadon uchi — **extremitas uterine**, nay uchi — **extremitas tubaria**, erkin qirrasi — **margo liber**, tutqich qirrasi — **margo mesoovaricus**. Tutqich qirrada tuxumdon darvozasi — **hilus ovarii** joylashgan.

5. Gistologik tuzilishi. Tashqi tomondan bir qatlamli embrional epiteliy bilan qoplangan; Ostida oq parda — **tunica albuginea** joylashadi; Parenxima ikki

qismdan iborat: **miya qavati (medulla ovarii)** — stroma, qon tomirlari va nervlar; po'stloq qavati (**cortex ovarii**) — ko'plab follikulalar va tuxum hujayralar. Follikula rivojlanishi: Birlamchi follikul → vezikulyar (**Graaf**) follikula; Ovulyatsiya vaqtida follikula yorilib, tuxum hujayra ajraladi; Yorilgan follikula o'rnida sariq tana — **corpus luteum** hosil bo'ladi; Urug'lanish bo'lmasa — “oq tana (**corpus albicans**)” ga aylanadi; Urug'lanishda — homiladorlik sariq tanasi (**corpus luteum graviditatis**) hosil bo'lib, endokrin bez sifatida faoliyat yuritadi.

6. Yoshga bog'liq xususiyatlari. Yangi tug'ilgan chaqaloqda tuxumdon balandroq joylashadi; Birinchi yil davomida o'z doimiy joyiga tushadi; Pubertat davrida kattalashadi, menstrual sikl boshlanadi; Urug'lanish bo'lmasa progesteron kamayadi va endometriy ko'chishi — menstruatsiya sodir bo'ladi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. Agenitalizm (agonadizm) — jinsiy bezlarning tug'ma yo'qligi; Tuxumdonning noto'g'ri joylashuvi — ingvinal kanal yoki katta jinsiy lablar sohasiga siljish; Qo'shimcha tuxumdon — ~4% holatlarda; Tuxumdon gipoplaziyasi — bir yoki ikkala tuxumdon yetarli rivojlanmasligi, endokrin yetishmovchilik bilan; Germafroditizm — ikki jins belgilarining mavjudligi; haqiqiy; soxta (ayol turi) — jinsiy bezlar ayolga xos, tashqi a'zolar erkakka o'xshash.

8. Diagnostika. Rentgenologik tekshiruv; Ultrasonografiya (UTT); Magnit-rezonans tomografiya (MRT); Kompyuter tomografiya (KT); Instrumental tekshiruvlar.

Metodik ko'rsatmalar

- 1. Darslik va ma'ruza materiallari asosida** ayol jinsiy a'zolarining umumiy tuzilishi, rivojlanish manbalari va funksiyalarini o'rganish. Ayol reproduktiv tizimining asosiy vazifalari — gameta hosil bo'lishi, urug'lanish, homiladorlik va tug'ruq jarayonlaridagi rolini tushuntirish.
- 2. Ayol jinsiy a'zolarining tasnifi** ayol jinsiy a'zolarini ichki va tashqi qismlarga ajratib o'rganish: ichki jinsiy a'zolar: tuxumdonlar (ovaria), bachadon naylari (tubae uterinae), bachadon (uterus), qin (vagina). **Tashqi jinsiy a'zolar:** ayol

jinsiy a'zolari majmuasi — pudendum femininum (katta va kichik jinsiy lablar, klitor, qin dahlizi).

3. **Tuxumdon (ovarium)** tuxumdonning shakli, topografiyasi, tashqi va ichki tuzilishi, po'stloq va miya moddasini o'rganish. Ovogenez, gormonlar (estrogen va progesteron) sintezi va tuxumdonning endokrin funksiyasiga e'tibor qaratish.
4. **Bachadon naylari (tubae uterinae)** naylarning bo'limlari (infundibulum, ampulla, isthmus, pars uterina), ularning tuxum hujayra va urug'lanish jarayonidagi ahamiyatini tushuntirish.
5. **Bachadon (uterus)** bachadonning bo'limlari (fundus, corpus, cervix), devor qatlamlari (endometrium, myometrium, perimetrium), topografiyasi va homiladorlik davridagi funksional o'zgarishlarini o'rganish.
6. **Qin (vagina)** qin devorining tuzilishi, shilliq qavat xususiyatlari, mikroflora va tug'ruq kanalidagi roli bilan tanishish.
7. **Tashqi jinsiy a'zolar (pudendum femininum)** katta va kichik jinsiy lablar, klitor, qin dahlizi, Bartholin bezlari tuzilishi va funksional ahamiyatini o'rganish.
8. **Qon bilan ta'minlanishi va innervatsiya** ayol jinsiy a'zolarining arterial, venoz va limfatik ta'minoti hamda vegetativ va somatik innervatsiyasi haqida bilim hosil qilish.
9. **Yoshga oid va klinik jihatlar** neonatal davr, balog'at, reproduktiv yosh va menopauzadagi anatomik-funksional o'zgarishlarni tahlil qilish. Klinik ahamiyat: yallig'lanish kasalliklari, rivojlanish nuqsonlari, o'smalar.
10. **Amaliy mashg'ulotlarda talab qilinadigan ko'nikmalar:** ayol jinsiy a'zolarini maket va preparatda aniqlash; Ichki va tashqi a'zolari farqlash; bachadon va uning bo'limlarini ko'rsatish; Klinik va funksional ahamiyatini izohlash.

Nazorat savollari

1. Ayol jinsiy a'zolari nima va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Ayol reproduktiv tizimining erkak tizimidan asosiy farqlari nimada?
3. Ayol jinsiy a'zolari qanday qismlarga bo'linadi?
4. Ichki ayol jinsiy a'zolarini sanab bering.
5. Tashqi ayol jinsiy a'zolari tarkibiga nimalar kiradi?

6. Tuxumdonning tuzilishi va funksiyalarini tushuntiring.
7. Bachadon naylarining bo‘limlari va ularning vazifalari qanday?
8. Bachadon devorining qatlamlarini ayting va ularning funksiyasini tushuntiring.
9. Bachadon bo‘limlari va topografik munosabatlarini izohlang.
10. Qin devorining tuzilishi va fiziologik ahamiyati nimada?
11. Ayol jinsiy a‘zolarining qon bilan ta‘minlanishi qanday amalga oshadi?
12. Limfatik oqim va innervatsiyaning klinik ahamiyati nimada?
13. Balog‘at davrida ayol jinsiy a‘zolarida qanday o‘zgarishlar kuzatiladi?
14. Homiladorlik vaqtida bachadonda qanday morfologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?
15. Menopauza davrida ayol jinsiy a‘zolarining funksional holati qanday o‘zgaradi?
16. Ayol jinsiy a‘zolarining yallig‘lanish kasalliklari va ularning klinik ahamiyatini ayting.

BACHADON UTERUS (METRA, HISTERA)

1. Funktsiyasi. Bachadon — homilaning bachadon ichida rivojlanishi va olib yurilishi uchun mo‘ljallangan asosiy ayol jinsiy a‘zosi hisoblanadi.

2. Rivojlanishi. Bachadon paramezonefral (**Myuller**) protoklarning distal qismlarining o‘zaro qo‘shilishi natijasida rivojlanadi.

3. Topografiyasi. Bachadon kichik chanoq bo‘shlig‘ida, **regio pubicada** joylashgan; To‘g‘ri ichak va siydik pufagi orasida joylashadi; Istmus (bo‘g‘iz) taxminan III–IV dumg‘aza umurtqalari darajasida joylashadi;

Bachadon holatlari: **Anteversio** — bachadon oldinga egilgan holat; **Anteflexio** — bachadon bo‘yni bilan tanasi orasida o‘tkir bo‘lmagan burchak hosil bo‘lib, u siydik pufagi tomonga ochiladi (fiziologik holat); Siydik pufagi to‘lganda bachadon yuqoriga ko‘tarilib, burchak tekislanadi — **retroflexio**; Bachadonning patologik orqaga og‘ishi — **retroversio**.

Bachadonni fiksatsiya qiluvchi boylamlar: Keng bachadon boylamlari – **ligg. lata uteri**; Yumaloq bachadon boylamlari – **ligg. teres uteri** (chov kanali orqali o‘tadi); To‘g‘ri ichak–bachadon boylamlari – **lig. rectouterina**; Qov–bachadon boylamlari – **lig. pubouterina**; Kardinal boylam – **lig. cardinale**.

4. Anatomik tuzilishi. Bachadon — ichi bo‘sh, mushakli organ bo‘lib, quyidagi qismlardan iborat: Bachadon tubi – **fundus uteri**; Bachadon tanasi – **corpus uteri**; Bachadon bo‘yni – **cervix uteri**. Bachadon bo‘ylama kesimida uning bo‘shlig‘i — **cavum uteri** uchburchak shaklga ega. Uchburchak asosining burchaklarida bachadon naylari ochiladi; Uchburchakning pastki uchi bachadon bo‘yni kanaliga o‘tadi; Toraygan joy ichki bachadon teshigi deb ataladi; Bachadon bo‘yni kanali — **canalis cervicalis uteri**; Qin tomonga ochiluvchi teshik — **ostium uteri**. **Tug‘magan ayolda** tashqi bachadon teshigi yumaloq, **Tug‘gan ayolda** — ko‘ndalang yoriq shaklida bo‘ladi.

5. Gistologik tuzilishi. Bachadon devori uch qavatdan tashkil topgan: 1. Shilliq qavat — **endometrium**: bir qatlamli prizmatik epiteliy bilan qoplangan; bachadon bo‘yni kanalining old va orqa devorlarida palmaga o‘xshash burmalar — **plicae palmatae** hosil qiladi. 2. Mushak qavati — **myometrium**: juda kuchli rivojlangan; tug‘ruq vaqtida qisqarib homilaning tashqariga chiqishini ta‘minlaydi. 3. Seroz qavat — **perimetrium**: bachadonning deyarli barcha qismini qoplaydi; bo‘yin old qismining kichik sohasi qoplanmagan. Bachadon bo‘yni atrofida, qorin parda ostida **parametriy** — atrof-bachadon biriktiruvchi to‘qimasi joylashadi.


6. Yoshga bog‘liq xususiyatlari. Homiladorlik davrida bachadon sezilarli darajada kattalashadi; Kichik chanoq bo‘shlig‘idan qorin bo‘shlig‘iga ko‘tariladi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. Ametriya (agenziya) — bachadonning tug‘ma yo‘qligi; **Gipogenitalizm** — jinsiy a‘zolarining qisman yoki to‘liq rivojlanmasligi; **Gipogonadizm** — jinsiy gormonlar sekretsiasining kamayishi;

Muller protoklari rivojlanishidagi nuqsonlar: Ikki bachadon va ikki qin — protoklar qo‘shilmasligi; **Ikki shoxli bachadon** — bachadon tubining bo‘linishi; **Septali bachadon va qin** — ichki to‘siq mavjud; **Bir shoxli bachadon** — bitta Myuller protoki atrofiyasi; **Aplaziya** — bachadon, bachadon naylari va qinning yo‘qligi (juda kam uchraydi);

Qisman nuqsonlar: Yassi bachadon tubi (embrional holat); Bachadon va qin orasida aloqa yo‘qligi; **Rudimentar (fetal) bachadon**; **Infantil bachadon** — bolalarnikiga o‘xshash shakl.

8. Diagnostika. Rentgenologik tekshiruv — metrosalpingografiya; Ultrasonografiya (UTT); Magnit-rezonans tomografiya (MRT); Kompyuter tomografiya (KT); Instrumental tekshiruvlar.



Rasm 18. Bachadon, bachadon naylari va tuxumdon

1 – qin, vagina; 2 – qorin parda, peritoneum; 3 – bachadon bo‘yni, cervix uteri; 4 – bachadon tanasi, corpus uteri; 5 – bachadonning chap cheti, margo uteri sinister; 6, 12 – bachadonning yumaloq boylami, ligg. teres uteri; 7 – subseroz asos, tela subserosa; 8, 13 – bachadonning o‘z boylami (tuxumdon boylami), lig. ovarii propria; 9, 16 – bachadon nayi, tuba uterine; 10 – bachadonning chap shoxi, cornu uterinum sinistrum; 11 – bachadon tubi, fundus uteri; 14 – bachadon nayining tor qismi (istmus), isthmus tubae uterinae; 15 – bachadon nayining mezenteriyasi, mesosalpinx; 17 – mezenterial cheti, margo mesovaricus; 18 – tuxumdon qo‘shimchasi (ko‘ndalang naychalar), epoophoron (ductuli transversi); 19 – tuxumdon qo‘shimchasining bo‘ylama yo‘li, ductus epoophori longitudinalis; 20 – nay tomoni (tuxumdonning nay uchi), extremitas tubaria; 21 – bachadon nayining ampulasi, ampulla tubae uterinae; 22 – bachadon nayining kiprikchalari (fimbriyalar), fimbriae tubae; 23 – bachadon nayining qorin bo‘shlig‘iga ochiladigan teshigi, ostium abdominale tubae uterinae; 24 – tuxumdonni osib turuvchi bog‘lama, lig. suspensorium ovarii; 25 – pufaksimon qo‘shimchalar, appendix vesiculosa; 26 – tuxumdon (medial yuzasi), ovarium (facies medialis); 27 –

tuxumdonning erkin cheti, margo liber ovarii; 28 – bachadonning keng bog‘lamasi, lig. latum uteri; 29 – bachadon tomoni (nayning bachadonga tutashgan uchi), extremitas uterine; 30 – to‘g‘ri ichak–bachadon burmasi, plica rectouterine.

Metodik ko‘rsatmalar

1. **Nazariy tayyorgarlik** darslik va ma‘ruza materiallari asosida bachadonning rivojlanishi, umumiy tuzilishi va ayol reproduktiv tizimidagi o‘rnini o‘rganish. Bachadonning homiladorlik, tug‘ruq va hayz siklidagi asosiy funksiyalarini tushuntirish.
2. **Topografiya va joylashuvi** bachadonning kichik chanoq bo‘shlig‘ida joylashuvi, siydik pufagi va to‘g‘ri ichak bilan topografik munosabatlarini o‘rganish. Bachadonning normal holati — **anteversio** va **anteflexio** tushunchalariga e‘tibor qaratish.
3. **Tashqi tuzilishi va bo‘limlari** bachadonning asosiy bo‘limlarini aniqlash: **fundus uteri** — bachadon tubi; **corpus uteri** — bachadon tanasi; **cervix uteri** — bachadon bo‘yni (pars vaginalis va pars supravaginalis).
4. **Bachadon devorining tuzilishi** bachadon devorining qatlamlarini o‘rganish: **perimetrium** — tashqi seroz qavat; **myometrium** — silliq mushak qavati (asosiy kontraktil qavat); **endometrium** — ichki shilliq qavat (hayz sikliga bog‘liq o‘zgaradi).
5. **Bachadon bo‘shlig‘i va kanali** bachadon bo‘shlig‘ining shakli, bachadon bo‘yni kanali, ichki va tashqi bachadon teshiklarini (ostium uteri internum et externum) o‘rganish.
6. **Boylam apparati** bachadonni ushlab turuvchi boylamlarini o‘rganish: **lig. latum uteri** — keng boylama; **lig. teres uteri** — yumaloq boylam; **lig. sacrouterinum** — dumg‘aza–bachadon boylami; **lig. ovarii proprium** — tuxumdonning o‘z bog‘lamasi.
7. **Qon bilan ta‘minlanishi va innervatsiya** bachadonning arterial (a. uterina), venoz, limfatik va nerv ta‘minotini, ularning klinik ahamiyatini o‘rganish.
8. **Fiziologik ahamiyati** bachadonning hayz sikli, embrion implantatsiyasi, homiladorlikni saqlash va tug‘ruq jarayonidagi rolini tushuntirish.

9. **Yoshga oid va klinik jihatlar** neonatal davr, balog‘at, reproduktiv yosh va menopauzadagi bachadon o‘zgarishlarini tahlil qilish. Klinik jihatlar: rivojlanish nuqsonlari, yallig‘lanish, mioma, endometrioz.

10. **Amaliy mashg‘ulotlarda talab qilinadigan ko‘nikmalar** bachadon bo‘limlarini maket va preparatda ko‘rsatish; devor qatlamlarini aniqlash; topografik munosabatlarini tushuntirish; klinik ahamiyatini izohlash.

Nazorat savollari

1. Bachadon nima va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Bachadonning ayol reproduktiv tizimidagi ahamiyatini tushuntiring.
3. Bachadonning normal holati qanday ataladi? (*anteversio, anteflexio*)
4. Bachadonning bo‘limlarini sanab bering va ularni tavsiflang.
5. Bachadon bo‘shlig‘ining shakli qanday?
6. Bachadon devorining qatlamlarini nomlang va ularning funksiyalarini tushuntiring.
7. Endometrium hayz siklida qanday o‘zgaradi?
8. Bachadonni ushlab turuvchi asosiy bog‘lamlarni sanab bering.
9. Bachadonning arterial qon bilan ta‘minlanishi qanday amalga oshadi?
10. Limfatik oqim va innervatsiyaning klinik ahamiyati nimada?
11. Implantatsiya va homiladorlik davrida bachadonda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
12. Tug‘ruq paytida bachadon mushaklarining roli nimada?
13. Menopauza davrida bachadon qanday o‘zgaradi?
14. Bachadonning asosiy kasalliklarini sanab bering (mioma, endometrioz va boshqalar).
15. Bachadonning tug‘ma rivojlanish nuqsonlari qanday klinik ahamiyatga ega?

BACHADON (FALLOPIY) NAYI TUBA UTERINA (SALPINX)

1. Funktsiyasi. Bachadon nayi tuxum hujayrani “tuxumdon (**ovarium**)” dan bachadon bo‘shlig‘iga olib o‘tadi. Aynan bachadon nayida tuxum hujayraning spermatozoid bilan urug‘lanishi sodir bo‘ladi.

2. Rivojlanishi. Bachadon naylari paramezoneftral (**Myuller**) protoklardan rivojlanadi.

3. Topografiyasi. Bachadon nayi — juft a'zo, bachadonning ikki yonida joylashgan; Kichik chanoq bo'shlig'ida, taxminan II dumg'aza umurtqasi darajasida joylashadi; **Regio inguinalis dexter et sinister** sohasiga proyeksiya qilinadi; Nayning keng uchi qorin bo'shlig'iga ochiladi va tuxumdon yaqinida joylashadi; Tor uchi bachadon bo'shlig'iga ochiladi.

4. Anatomik tuzilishi. Bachadon nayida quyidagi bo'limlar farqlanadi: 1. Voronka — **infundibulum tubae uterinae**; Qorin bo'shlig'iga ochiluvchi teshik bilan tugaydi: **ostium abdominale tubae uterinae**; Ko'plab nay baxromchalari — **fimbriae tubae** mavjud; Ulardan biri tuxumdonga birikadi — **fimbria ovarica**. 2. Ampula — **ampulla tubae uterinae**: eng keng va uzun qismi; Odatda urug'lanish shu yerda sodir bo'ladi. 3. Bo'yinchasi — **isthmus tubae uterinae**, tor va qalin devorli qism. 4. Bachadon (intramural) qismi — **pars uterine**, bachadon devori ichidan o'tib, uning bo'shlig'iga ochiladi.

5. Gistologik tuzilishi. Bachadon nayining devori to'rt qavatdan iborat: 1. Shilliq qavat — **tunica mucosa tubae uterinae**, bir qatlamli kiprikchali prizmatik epiteliy bilan qoplangan; Ko'plab uzunlamasimon burmalar hosil qiladi — **plicae tubariae**. 2. Shilliqosti qavati — biriktiruvchi to'qimadan iborat. 3. Mushak qavati — **tunica muscularis tubae uterinae**. Ichki aylanma (sirkulyar) qatlam; Tashqi uzunlamasimon qatlam; Peristaltik harakatlar orqali tuxum hujayraning siljishini ta'minlaydi. 4. Seroz qavat — bachadon nayini to'liq qoplaydi.

6. Yoshga bog'liq xususiyatlari. Yangi tug'ilgan qiz bolalarda bachadon naylari qisqa va tor bo'ladi; Jinsiy yetilish davrida to'liq shakllanadi va funksional jihatdan yetiladi.

7. Rivojlanish anomaliyalari. Bachadon, qin va bachadon naylarining aplaziyasi — Myuller protoklarining to'liq reduksiyasi natijasida yuzaga keladi; Juda kam uchraydi va ko'pincha boshqa hayotiy muhim a'zolar nuqsonlari bilan birga kuzatiladi.

8. Diagnostika. Rentgenologik tekshiruv — **metrosalpingografiya**; Ultrasonografiya (UTT); Magnit-rezonans tomografiya (MRT); Kompyuter tomografiya (KT); Instrumental tekshiruv usullari.

Metodik ko'rsatmalar

1. **Nazariy tayyorgarlik** darslik va ma'ruza materiallari asosida bachadon (Fallopdiy) nayining umumiy tuzilishi, rivojlanishi va ayol reproduktiv tizimidagi o'rmini o'rganish. Naylarning urug'lanish va tuxum hujayraning bachadonga transportida tutgan muhim ro'liga e'tibor qaratish.
2. **Topografiya va joylashuvi** bachadon naylarining kichik chanoq bo'shlig'ida joylashuvi, bachadon burchaklaridan boshlanishi va tuxumdonlar bilan anatomik munosabatlarini o'rganish. Naylarning bachadonning keng boylami (**lig. latum uteri**) tarkibida joylashishini tushuntirish.
3. **Tashqi tuzilishi va bo'limlari** bachadon nayining bo'limlarini aniqlash: **Pars uterina** — bachadon devori ichidan o'tuvchi qismi; **Isthmus tubae uterinae** — tor qismi; **Ampulla tubae uterinae** — kengaygan qismi (urug'lanish ko'pincha shu yerda sodir bo'ladi); **Infundibulum tubae uterinae** — voronkasimon qismi; **Fimbriae tubae** — kiprikchali o'simtalar.
4. **Nay devorining tuzilishi** bachadon nay devorining qatlamlarini o'rganish: **Tunica mucosa** — shilliq qavat (ko'p burmali, kiprikli epiteliy); **Tunica muscularis** — silliq mushak qavati (ichki aylana va tashqi bo'ylama qatlamlar); **Tunica serosa** — tashqi seroz qavat.
5. **Fiziologik ahamiyati** naylarning tuxum hujayrani tutib olish, urug'lanish uchun sharoit yaratish va zigotani bachadonga yetkazishdagi roli. Kiprikchalar harakati va mushak peristaltikasining ahamiyatini tushuntirish.
6. **Qon bilan ta'minlanishi va innervatsiya** bachadon naylarining arterial (a. uterina va a. ovarica shoxlari), venoz va limfatik ta'minoti hamda vegetativ innervatsiyasi bilan tanishish.
7. **Yoshga oid va gormonal o'zgarishlar** hayz sikli davomida bachadon naylari shilliq qavatidagi funksional o'zgarishlarni o'rganish. Menopauzada naylarning regressiv o'zgarishlariga e'tibor qaratish.

8. **Klinik ahamiyati** bachadon naylarining yallig‘lanish kasalliklari (salpingit), yopishmalar, ektopik (nay) homiladorlik va sterilizatsiya amaliyotlarining klinik ahamiyatini tahlil qilish.
9. **Amaliy mashg‘ulotlarda talab qilinadigan ko‘nikmalar.** Bachadon nayining bo‘limlarini maket va preparatda ko‘rsatish; Devor qatlamlarini aniqlash; Urug‘lanish joyini tushuntirish; Klinik holatlar bilan bog‘lab izohlash.

Nazorat savollari

1. Bachadon (Fallopdiy) nayi nima va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Naylarning ayol reproduktiv tizimidagi ahamiyatini tushuntiring.
3. Bachadon naylari qayerda joylashgan va qaysi bog‘lama tarkibida o‘tadi?
4. Bachadon nayining bo‘limlarini sanab bering.
5. Urug‘lanish ko‘pincha qaysi bo‘limda sodir bo‘ladi?
6. Bachadon nay devorining qatlamlarini nomlang.
7. Nay shilliq qavatining burmalari va kiprikchalarining vazifasi nimada?
8. Mushak qavatining peristaltik harakati qanday ahamiyatga ega?
9. Bachadon naylarining arterial qon bilan ta‘minlanishi qaysi tomirlar orqali amalga oshadi?
10. Limfatik oqim va innervatsiyaning klinik ahamiyati nimada?
11. Hayz sikli davomida bachadon naylarida qanday funksional o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?
12. Salpingit nima va uning oqibatlarini qanday?
13. Ektopik (nay) homiladorlik nima sababdan rivojlanadi?
14. Bachadon naylarining yopishmalari qanday bepustlikka olib keladi?
15. Naylarning sterilizatsiya jarayonidagi ahamiyati nimada?

QIN VAGINA

1. Funktsiyasi. Qin ayol jinsiy tizimining reproduktiv a‘zosi bo‘lib, jinsiy aloqa jarayonida, hayz qonining tashqariga chiqishida hamda tug‘ruq vaqtida tug‘ruq yo‘li vazifasini bajaradi.

2. Rivojlanishi. Qin yuqori (proksimal) qismi — **paramezonefral (Myuller)** protoklarning qo‘shilib ketgan distal qismlaridan rivojlanadi; Pastki (distal) qismi va qin dahlizi — siydik-jinsiy bo‘shliqdan hosil bo‘ladi.

3. Topografiyasi. Qin kichik chanoq bo‘shlig‘ida, qov simfizidan pastroqda joylashgan; Yuqori keng uchi bachadon bo‘ynini o‘rab turadi; Pastki uchi siydik-jinsiy diafragma orqali o‘tib, jinsiy yoriqqa ochiladi; Orqa tomondan — to‘g‘ri ichak, Old tomondan — siydik pufagi tubi va uretra bilan chegaradosh; Atrofidagi a‘zolar bilan zich va bo‘sh biriktiruvchi to‘qima orqali mustahkamlangan.

4. Anatomik tuzilishi. Qinda quyidagi qismlar ajratiladi: old devor — **paries anterior vaginae**; orqa devor — **paries posterior vaginae**. Pastki uchi oldinga va pastga yo‘nalgan, yuqori qismi esa kengayib, gumbazsimon chuqurlik hosil qiladi va qin gumbazi (**fornix vaginae**) deb ataladi. Gumbaz: oldingi qismdan; chuqurroq bo‘lgan orqa qismdan iborat. Qinning uzunligi 8–10 sm, devor qalinligi taxminan 3 mm. Qin teshigi orqali qin dahlizi bilan tutashadi.


5. Gistologik tuzilishi. Qin devori uch qavatdan iborat: 1. Shilliq qavat (**tunica mucosa**) ko‘p qatlamli yassi epiteliy bilan qoplangan; Ko‘plab ko‘ndalang burmalar — **rugae vaginales** hosil qiladi; Bu burmalar old va orqa devorlarda burmalar ustunlarini hosil qiladi: **columnae rugarum anterior et posterior**; Shilliq qavatda bezlar mavjud emas. 2. Mushak qavati (**tunica muscularis**) ichki aylanma va tashqi uzunlamasimon silliq mushak tolalaridan iborat; Yuqori qismda bachadon mushak qavati bilan tutashadi; **Ostium vaginae** sohasida ko‘ndalang-targ‘il mushak tolalari to‘planib, mushakli sfinkter hosil qiladi. 3. Tashqi qavat — adventitsiya (**tunica adventitia**) bo‘sh biriktiruvchi to‘qimadan tashkil topgan; Elastik tolalarga boy.

6. Yoshga bog‘liq xususiyatlari. Bokira qizlarda qin teshigi qizlik pardasi — **hymen** bilan yopilgan bo‘ladi, unda faqat kichik teshik mavjud; Tug‘ruqdan keyin qizlik pardasi o‘rnida mayda doirasimon bo‘rtmalar — **carunculae hymenales** saqlanib qoladi.

Sinonimlari: epifiz, shishasimon bez, miyaning yuqori qo'shimchasiю

Shishasimon tana — markaziy nerv tizimiga mansub bo'lgan neyroendokrin bez bo'lib, organizmning biologik ritmlari va gormonal muvozanatini boshqarishda muhim ro'l o'ynaydi.


1. Rivojlanish manbai (Embriogenez). Shishasimon tana homila rivojlanishining 6–7-haftasida paydo bo'ladi. U oraliq miyaning (**diensefalon**) kelajakdagi III qorincha (**ventriculus tertius**) tom qismidan hosil bo'lgan juft bo'lmagan o'sma (bo'rtma) sifatida rivojlanadi.

Rivojlanish bosqichlari: III qorincha tom qismidan epitelial bo'rtma paydo bo'ladi. Ushbu bo'rtma hujayralari zichlashib, kompakt hujayraviy massa hosil qiladi. Mazkur tuzilma ichiga mezoderma o'sib kiradi. Mezodermadan kelajakda bezning stromasi (biriktiruvchi to'qimasi) shakllanadi. Shunday qilib: **Parenxima** — neyroektodermal kelib chiqishga ega. **Stroma** — mezodermal kelib chiqishga ega.



Rasm 36. Epifiz (shishasimon tana), yuqoridan ko‘rinishi:

1 – thalamus; 2 – o‘rta miyaning yuqori tepalikchalari; 3 – shishasimon tana (epifiz);
4 – o‘rta miyaning pastki tepalikchalari; 5 – uchinchi qorincha; 6 – uzunchoq miya.



Rasm 37. Shishasimon tananing (epifizning) mikroskopik tuzilishi:

A – Kichik kattalashtirish: 1 – biriktiruvchi to‘qima kapsulasi; 2 – parenxima; 3 – shishasimon tananing stromasi; 4 – “miya qumi” (corpora arenacea)
5 – qon tomirlari. **B** – Katta kattalashtirish: 6 – gliotsit; 7 – yorug‘ pinealotsitlar; 8 – to‘q pinealotsitlar.

2. Topografiyasi. Shishasimon tana — juft bo‘lmagan, oval shakldagi kichik organ bo‘lib, bosh suyagi bo‘shlig‘ida joylashadi. U o‘rta miyaning tom qismidagi yuqori tepachalar (**colliculi superiores**) orasidagi sayoz egatda joylashgan. Maxsus tutqichlar — **habenulalar** orqali oraliq miyaning ko‘ruv bo‘rtmalari (talamus) bilan bog‘langan. Epifiz oraliq miyaning **epitalamus** qismiga kiradi. Tashqaridan u biriktiruvchi to‘qimali kapsula bilan o‘ralgan bo‘lib, kapsula ichkariga to‘siqlar yuboradi va bez parenximasini bo‘lakchalarga ajratadi.

3. Anatomik tuzilishi. Shishasimon tana tashqi ko‘rinishidan archa shishasiga o‘xshaydi (lotincha **pineus** — archa). U qo‘shni miya tuzilmalariga nisbatan qizg‘ish-kulrang rangda bo‘lgani uchun yaqqol ajralib turadi. O‘lchamlari: uzunligi: 8–10 mm; kengligi: ≈ 6 mm; massasi: $\approx 0,2$ g. Tuzilmasi: **asosi** — III qorinchaning orqa devoriga tutashgan, oldinga qaragan; **uchi (cho‘qqisi)** — yuqori tepachalar orasidagi egatda joylashgan, orqaga yo‘nalgan. Bez tashqaridan biriktiruvchi to‘qimali kapsula bilan qoplangan.

4. Gistologik tuzilishi. Bez parenximasi bo‘lakchalardan iborat bo‘lib, unda ikki asosiy hujayra turi mavjud: **Pinealotsitlar (sekretor hujayralar):** yirik hujayralar, yirik, och rangli yadrolarga ega, asosan bo‘lakchanning markazida, qon tomirlari atrofida joylashadi, sekretor faoliyatni bajaradi. **Glial hujayralar (gliotsitlar):** kichik o‘lchamli, ko‘p sonli o‘simtalarga ega, to‘q rangli yadrolarga ega, asosan periferiyada joylashadi. Shishasimon tananing muhim xususiyati shundaki, u ichki sekretsia bezlari orasida yagona bez bo‘lib, unda bez hujayralari bilan bir qatorda **astrotsitlar** (markaziy nerv tizimiga xos hujayralar) ham mavjud. “Miya qumi” (**corpora arenacea**). Katta yoshli va ayniqsa keksalarda bez stromasida kalsiy va fosfat tuzlarining cho‘kmalari uchraydi. Bu tuzilmalar “miya qumi” yoki “qum tanachalari” deb ataladi.

5. Funksiyasi. Shishasimon tananing funksiyasi to‘liq o‘rganilmagan, biroq u neyroendokrin bez sifatida qabul qilinadi. **Pinealotsitlar sekresiyasi.** Pinealotsitlar quyidagi biologik faol moddalarni ishlab chiqaradi: **Melatonin. Serotonin.** Sutkalik ritm: kechasi → melatonin sintezi kuchayadi, kunduzi → serotonin sintezi ustun

bo'ladi. Bu ritm yorug'lik bilan bog'liq. Yorug'lik melatonin ishlab chiqarilishini susaytiradi. Ushbu jarayon gipotalamus ishtirokida amalga oshadi. **Serotonin ta'siri.** Serotonin gormon va mediator o'rtasida oraliq modda hisoblanadi. Organizmga kiritilganda: arteriolalarni toraytiradi, ichak peristaltikasini kuchaytiradi, antidiuretik ta'sir ko'rsatadi. **Melatonin ta'siri.** Melatonin faqat shishasimon tanada sintez qilinadi. Qon orqali butun organizmga tarqalib: teri pigment hujayralariga ta'sir qiladi, terini ochartiradi, gipofizning intermedin gormoniga antagonistik ta'sir ko'rsatadi.

6. Reproktiv tizimga ta'siri. Hozirgi qarashlarga ko'ra, shishasimon tana neyroendokrin bez bo'lib: antigipotalamik omil ishlab chiqaradi, jinsiy bezlar faoliyatini bilvosita boshqaradi, ma'lum yoshgacha reproduktiv tizim rivojlanishini tormozlaydi. Shu sababli epifiz balog'atga yetish jarayonini boshqarishda muhim ro'l o'ynaydi.

7. Rivojlanish anomaliyalari, gipo- va giperfunksiya. Gipopunksiya (sekresiyaning kamayishi). Shishasimon tana faoliyati pasayganda unda ishlab chiqariladigan **antigipotalamik omil** keskin kamayadi. Natijada: gipotalamus tormozlovchi nazorati susayadi, gipofizning gonadotrop gormonlari (FSH va LH) sekresiyasi tezlashadi, jinsiy bezlar erta faollashadi. Bu holat "**erta makrogenitosomiya**" deb ataladi.

Klinik xususiyatlari: Kasallik ko'proq o'g'il bolalarda uchraydi. tashqi jinsiy a'zolar kattalashadi, jinsiy olat, moyaklar va moyak xaltasi kattaligi kattalarnikiga yaqinlashadi, spermatogenez boshlanadi, ikkilamchi jinsiy belgilar erta rivojlanadi: soqol va mo'ylov o'sishi, qo'ltiq va qov sohasida tuklanish. Bu jarayon organizmning erta jinsiy va jismoniy yetilishiga olib keladi. **Giperfunksiya (sekresiyaning ortishi).** Shishasimon tana gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi: Bolalik davrida: o'sishning sekinlashuvi, jinsiy yetilishning kechikishi. Kattalarda: jinsiy funksiyaning buzilishi, jinsiy bezlar (tuxumdonlar va moyaklar) massasining kamayishi. Ba'zi hollarda epifiz giperfunksiyasi **gipogenitalizm** bilan bog'liq deb hisoblanadi.

Qon ta'minoti va venoz oqim. Arterial qon ta'minoti: orqa miya arteriyasi (**a. cerebri posterior**), yuqori miyachok arteriyasi (**a. cerebellaris superior**). **Venoz oqim:** katta miya venasi (*v. cerebri magna*), uning tarmoqlari, III qorinchaning tomir chigali.

8. Innervatsiyasi. Shishasimon tana to'qimasiga qon tomirlari bilan birga simpatik nerv tolalari kiradi. Simpatik innervatsiya: o'ng va chap yuqori bo'yin simpatik tugunlaridan keladi. Bundan tashqari: bosh miya yarimsharlari, miya ustuni bo'limlaridan markaziy nerv tolalari ham bezga yo'naladi.

9. Xulosa. Shishasimon tana: neyroendokrin regulyatsiyada muhim o'rin tutadi, gipotalamus–gipofiz–gonada o'qi faoliyatiga ta'sir qiladi, bolalik va o'smirlik davridagi jinsiy rivojlanishni boshqaradi. Uning funksional buzilishi jinsiy yetilishning erta yoki kech boshlanishiga olib kelishi mumkin.


Metodik ko'rsatmalar

- 1. Ta'rifi.** Oraliq miyada joylashgan neyroendokrin bez.
- 2. Gistologiyasi.** Pinealotsitlar, gliotsitlar, miya qumi (*corpora arenacea*).
- 3. Gormoni.** Melatonin.
- 4. Funksiyasi.** Sirkadiyal ritmni boshqarish.
- 5. Klinik ahamiyati.** Uyqu buzilishlari, erta jinsiy yetilish.

Nazorat savollari

1. Shishasimon tana organizmning qaysi qismida joylashgan?
2. U bosh miyaning qaysi bo'limiga kiradi?
3. Shishasimon tananing sinonim nomlarini ayting.
4. Shishasimon tana qanday turdagi bez hisoblanadi?
5. Uning asosiy biologik vazifasi nimadan iborat?
6. Shishasimon tana qaysi embrional manbadan rivojlanadi?
7. Homila rivojlanishining nechanchi haftasida uning boshlang'ichi paydo bo'ladi?
8. U qaysi miya bo'shlig'ining tom qismidan hosil bo'ladi?
9. Bez stromasi qaysi to'qimadan rivojlanadi?
10. Shishasimon tana qanday hujayralardan tashkil topgan?

11. Pinealotsitlar qanday vazifa bajaradi?
12. Gliotsitlar qanday rol o'ynaydi?
13. "Miya qumi" (corpora arenacea) nima?
14. Yosh o'tishi bilan bezda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
15. Shishasimon tana qaysi asosiy gormonni ishlab chiqaradi?
16. Melatoninning biologik vazifalari nimadan iborat?
17. Melatonin sutkalik ritmlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
18. Shishasimon tana jinsiy yetilish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
19. Yorug'lik va qorong'ulik melatonin sekretyasiga qanday ta'sir qiladi?
20. Shishasimon tana faoliyati qaysi markaz orqali boshqariladi?
21. Gipotalamus bilan bog'liqligi qanday amalga oshadi?
22. Simpatik nerv tizimi melatonin ajralishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
23. Melatonin yetishmovchiligi qanday buzilishlarga olib keladi?
24. Uyqu ritmining buzilishi qaysi gormon bilan bog'liq?
25. Shishasimon tana o'smalari qanday klinik belgilar berishi mumkin?
26. Erta jinsiy yetilish shishasimon tana bilan qanday bog'liq?
27. Shishasimon tananing neyroendokrin tizimdagi o'rni qanday?
28. Melatonin va gipofiz o'rtasidagi funksional bog'liqlikni tushuntiring.
29. Sirkadiyal ritm va shishasimon tana o'rtasidagi bog'lanishni izohlang.
30. Shishasimon tanani "biologik soat" deb atalishining sababi nima?



Rasm 38. Epifizning funksiyalari.

Paragangliyalar (paraganglia)

Sinonimi: xromaffin tanachalar.

Paragangliyalar — xromaffin (adrenalin tizimi) organlariga kiruvchi tuzilmalar bo‘lib, simpatik nerv tizimi bilan chambarchas bog‘langan qo‘shimcha neuroendokrin organlardir.

1. Rivojlanish manbai (Embriogenez). Paragangliyalar nerv tizimi boshlang‘ichidan rivojlanadi va kelib chiqishi jihatidan simpatik nerv tizimi elementlariga yaqin turadi. Ular: Simpatik stvol tugunlarining medial yoki dorsal tomonida joylashadi. Qo‘shimcha simpatik organlar sifatida qaraladi. Kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan ular buyrak usti bezining mag‘iz moddasiga (**medulla**

suprarenalis) mos keladi. Ular ham buyrak usti bezining miya qavati kabi **xromaffin hujayralarni** o‘z ichiga oladi. “Xromaffin” nomining sababi: Bu hujayralar xrom tuzlari bilan reaksiyaga kirishib, jigarrang rang hosil qiladi (xrom bilan bo‘yalish xususiyati).


2. Topografiyasi. Paragangliylar organizmda mayda hujayra to‘plamlari shaklida tarqalgan. Eng ko‘p joylashadigan soha: Qorin orti (retroperitoneal) yog‘ kletchatkasi, ayniqsa aorta atrofida. Yirik paragangliylar: **Paraaortal tanachalar** aortaning bifurkatsiyasidan yuqorida, chap va o‘ng tomonda. **Koksigeal tanacha (copchik tanachasi)** aorta bifurkatsiyasidan pastda, o‘rta dumg‘aza arteriyasi uchida joylashadi. **Karotid glomus (uyqu tanachasi)** umumiy uyqu arteriyasi bifurkatsiyasi sohasida. **Simpatik paragangliylar** simpatik stvol tugunlari tarkibida. Mayda paragangliylar: mezenteriy ildizida, aorta yoyida, o‘mrov osti arteriyasi atrofida, buyrak arteriyalari sohasida, vegetativ nerv tizimi elementlari Ichida. Ularning ko‘pchiligi doimiy emas. Masalan: **Yurak usti paragangliyasi** — o‘pka poyasi bilan aorta orasida joylashadi va yosh o‘tishi bilan regressiyaga uchraydi.

3. Funksiyasi. Paragangliylarning funksiyasi buyrak usti bezining miya moddasiga o‘xshaydi. Ular **xromaffin hujayralardan** tashkil topgan bo‘lib, **katexolaminlar** ishlab chiqaradi: Adrenalin; Noradrenalin.

Katexolaminlarning ta’siri: simpatik tizim tonusini saqlaydi, tomirlarni toraytiradi, arterial bosimni oshiradi, “Stress reaksiyasi”ni ta’minlaydi.

4. Patologiyasi. Xromaffin to‘qimadan kelib chiqadigan gormonal faol o‘smalar rivojlanganda katexolaminlar ortiqcha ishlab chiqariladi. Natijada: doimiy yoki xurujli arterial gipertenziya, yurak urish tezlashishi, terlash, vegetativ krizlar eng ko‘p uchraydigan simptom hisoblanadi.

Xulosa. Paragangliylar: neyroektodermal kelib chiqishga ega, simpatik tizim bilan yaqin bog‘langan, buyrak usti bezining miya moddasiga funksional jihatdan o‘xshash, katexolaminlar ishlab chiqaruvchi qo‘shimcha neyroendokrin tuzilmalar.



Rasm 39. Inson tanasida vaqtinchalik va doimiy xromaffin paragangliylarning joylashish sxemasi:

1,15 – uyqu arteriyasi oralig‘idagi paragangliylar; 2,4 – qizilo‘ngach nerv chigalida joylashgan doimiy bo‘lmagan paragangliylar; 3 – yurak usti paragangliylar; 5 – quyosh chigalidagi paragangliylar; 6,13 – buyrak usti paragangliylar; 7 – buyrak nerv chigalidagi doimiy bo‘lmagan paragangliy; 8 – yuqori tutqich (mezenterial) chigalidagi doimiy bo‘lmagan paragangliy; 9,12 – bel-aortal gangliy; 10 – moyakdagi doimiy bo‘lmagan paragangliy; 11 – pastki qorin chigalidagi doimiy bo‘lmagan paragangliy; 14 – yulduzsimon tugundagi doimiy bo‘lmagan paragangliy.

Metodik ko‘rsatmalar

- 1. Ta’rifi.** Vegetativ nerv tizimi bilan bog‘liq xromaffin tuzilmalar.
- 2. Joylashuvi.** Karotid tanachasi, aortal paragangliylar va boshqalar.
- 3. Funksiyasi.** Katexolamin ishlab chiqarish.
- 4. Klinik ahamiyati.** Paraganglioma, feoxromotsitoma.

Nazorat savollari

1. Paragangliyalar nima?
2. Ular yana qanday nom bilan ataladi?
3. Paragangliyalar qaysi tizim tarkibiga kiradi?
4. Ularning organizmdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?
5. Paragangliyalar qanday turdagi bezlarga kiradi?
6. Paragangliyalar qaysi embrional manbadan rivojlanadi?
7. Ularning rivojlanishi qaysi nerv tizimi bilan bog'liq?
8. Paragangliyalar kelib chiqishi jihatidan qaysi bez qismiga o'xshaydi?
9. Xromaffin hujayralar nima sababdan shunday nomlangan?
10. Paragangliyalar organizmda qanday joylashgan?
11. Eng ko'p qaysi sohada uchraydi?
12. Paraaortal tanachalar qayerda joylashadi?
13. Koksigeal (dum) tanacha qayerda joylashgan?
14. Karotid glomus qaysi arteriya sohasida joylashadi?
15. Simpatik paragangliyalar qayerda uchraydi?
16. Qaysi paragangliyalar doimiy emas?
17. Paragangliyalar qanday hujayralardan tashkil topgan?
18. Xromaffin hujayralarning sitologik xususiyati nimada?
19. Ularning kapillyar tarmog'i qanday tuzilgan?
20. Paragangliyalarda qo'llab-quvvatlovchi hujayralar bormi?
21. Paragangliyalar qanday gormonlar ishlab chiqaradi?
22. Adrenalin va noradrenalin organizmga qanday ta'sir ko'rsatadi?
23. Katexolaminlarning simpatik tizimdagi roli qanday?
24. Qon bosimiga qanday ta'sir qiladi?
25. Stress reaksiyasida paragangliyalar qanday ishtirok etadi?
26. Paragangliyalar faoliyati qanday boshqariladi?
27. Simpatik nerv impulslari sekretsiyaga qanday ta'sir ko'rsatadi?
28. Po'stloq va miya modda bilan funksional bog'liqligi bormi?
29. Paraganglioma nima?

30. Feoxromotsitoma qanday kelib chiqadi?
31. Katexolaminlar ortiqcha ishlab chiqarilganda qanday simptomlar paydo bo‘ladi?
32. Arterial gipertenziya paragangliyalar bilan qanday bog‘liq?
33. Paragangliyalar yosh o‘tishi bilan qanday o‘zgaradi?
34. Paragangliyalarni buyrak usti bezining miya moddasidan qanday farqlash mumkin?
35. Paragangliyalar va simpatik nerv tizimi o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni tushuntiring.
36. Paragangliyalar organizmning adaptatsion reaksiyalarida qanday rol o‘ynaydi?

APUD-tizimi (Diffuz endokrin tizim)

APUD — inglizcha “**Amine Precursor Uptake and Decarboxylation**” iborasining qisqartmasi bo‘lib, amin prekursorlarini o‘zlashtirish va ularni dekarboksillash qobiliyatiga ega hujayralar tizimini anglatadi.

APUD-tizim — bu organizm bo‘ylab tarqalgan, biogen aminlar va/yoki peptid gormonlar ishlab chiqarish va to‘plash xususiyatiga ega, umumiy embriologik kelib chiqishga ega bo‘lgan hujayralar majmuasidir.

1. Umumiy tavsifi. APUD-tizim tarkibiga taxminan 40 ga yaqin hujayra tiplari kiradi. Ular quyidagi tuzilmalarda uchraydi: Markaziy nerv tizimi, gipotalamus, miyacha, gipofiz, epifiz (shishasimon tana), qalqonsimon bez, oshqozon osti bezining Langerhans orolchalari, buyrak usti bezlari, tuxumdonlar, oshqozon-ichak trakti, o‘pka, buyrak va siydik yo‘llari, paragangliyalar, yo‘ldosh (platsenta).

2. Hujayralarning joylashuvi. APUD tizimi hujayralari — **apudotsitlar**: organlarda diffuz (tarqoq) holda yoki boshqa hujayralar orasida kichik guruhlar shaklida joylashadi. Ular klassik bez tuzilmasini hosil qilmaydi, shu sababli tizim “diffuz endokrin tizim” deb ataladi..

3. Sekretsiya va biologik funksiyalari. APUD hujayralari ishlab chiqaradigan biologik faol moddalar quyidagi yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi: 1) Endokrin ta’sir — Gormonlar qon orqali uzoqdagi nishon hujayralarga ta’sir qiladi. 2) Neyrokrin ta’sir — Nerv oxirlari orqali ajraladi. 3) Neyroendokrin ta’sir — Nerv va endokrin

mexanizmlar birgalikda ishlaydi. 4) Parakrin ta'sir — Agar peptidlar hujayralararo suyuqlikka ajralsa, qo'shni hujayralarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. Oshqozon-ichak traktidagi APUD hujayralari. APUD tizimi hujayralarining eng ko'p qismi oshqozon-ichak yo'li bo'ylab joylashgan. **D1-hujayralar:** asosan o'n ikki barmoq ichakda, vazofaol intestinal peptid (VIP) ishlab chiqaradi, tomirlarni kengaytiradi, oshqozon shirasining sekretsijasini kamaytiradi. **P-hujayralar:** oshqozonning pilorik qismi, o'n ikki barmoq ichak, och ichak, bombesin ishlab chiqaradi, tuz kislotasi va pankreatik shira sekretsijasini rag'batlantiradi. **N-hujayralar:** oshqozon va yonbosh ichakda, neyrotensin ishlab chiqaradi, bez sekretsijasini, jumladan tuz kislotasi ajralishini kuchaytiradi. **K-hujayralar:** asosan o'n ikki barmoq ichakda, GIP (gastrin-ingibitor peptid) ishlab chiqaradi, oshqozon kislotasi sekretsijasini tormozlaydi. **S-hujayralar:** asosan o'n ikki barmoq ichakda, sekretin ishlab chiqaradi, oshqozon osti bezining sekretsijasini rag'batlantiradi. **I-hujayralar:** o'n ikki barmoq ichakda, xolesistokinin-pankrezozimin ishlab chiqaradi, oshqozon osti bezining sekretsijasini kuchaytiradi.

5. Xulosa APUD-tizim: diffuz joylashgan neyroendokrin hujayralar majmuasidir, biogen aminlar va peptid gormonlar ishlab chiqaradi, endokrin, parakrin va neyroendokrin mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi, eng katta funksional ahamiyatga oshqozon-ichak traktida ega, organizmning vegetativ va metabolik regulatsiyasida muhim ro'l o'ynaydi.

Metodik ko'rsatmalar

1. Ta'rif. Amine Precursor Uptake and Decarboxylation xususiyatiga ega diffuz endokrin hujayralar tizimi.

2. Joylashuvi. Hazm yo'li, nafas yo'llari, siydik yo'llari, teri va boshqalar.

3. Sekreksiya qiluvchi moddalar. Serotonin, gastrin, sekretin, xolesistokinin va boshqalar.

4. Klinik ahamiyati. Karsinoid sindrom, neyroendokrin o'smalar.

5. Amaliy ko'nikmalar. Diffuz joylashgan endokrin hujayralarni gistologik farqlash.

Nazorat savollari

1. APUD atamasi nimani anglatadi?
2. APUD tizimining to'liq inglizcha nomini ayting.
3. Diffuz endokrin tizim deganda nima tushuniladi?
4. APUD tizimi hujayralari qanday umumiy xususiyatga ega?
5. APUD tizimi nechta hujayra turini o'z ichiga oladi?
6. APUD hujayralari qaysi embrional manbadan rivojlanadi?
7. Ular nima sababdan neyroendokrin hujayralar deb ataladi?
8. APUD hujayralarining amin prekursorlarini o'zlashtirish xususiyati nimani anglatadi?
9. Dekarboksillanish jarayonining biologik ahamiyati nimada?
10. APUD tizimi hujayralari qanday joylashadi?
11. APUD hujayralari qaysi organlarda uchraydi?
12. Markaziy nerv tizimida APUD hujayralari bormi?
13. Oshqozon-ichak traktida APUD tizimi qanday ahamiyatga ega?
14. Qaysi endokrin bezlarda APUD hujayralari mavjud?
15. Paragangliylar APUD tizimiga kiradimi?
16. APUD hujayralari qanday biologik faol moddalar ishlab chiqaradi?
17. Biogen aminlar deganda nima tushuniladi?
18. APUD hujayralarining endokrin ta'siri nimadan iborat?
19. Parakrin ta'sir mexanizmini tushuntiring.
20. Neyrokrin va neyroendokrin ta'sir o'rtasidagi farq nimada?
21. D1-hujayralar qaysi gormonni ishlab chiqaradi?
22. VIP qanday biologik ta'sir ko'rsatadi?
23. P-hujayralar qanday modda ishlab chiqaradi?
24. Bombesinning asosiy vazifasi nimada?
25. K-hujayralar qanday gormon ishlab chiqaradi?
26. GIP qanday ta'sir ko'rsatadi?
27. S-hujayralar qanday gormon ajratadi?
28. Sekretin qanday fiziologik rol o'ynaydi?

29. I-hujayralar qanday gormon ishlab chiqaradi?
30. Xolesistokinin-pankrezimin qanday ta'sir ko'rsatadi?
31. Neyroendokrin o'smalar (NET) qaysi tizim hujayralaridan rivojlanadi?
32. APUD tizimi o'smalarining umumiy xususiyati nimada?
33. Ortiqcha gormon sekretsiyasi qanday klinik belgilar berishi mumkin?
34. Karcinoid sindrom nima bilan bog'liq?
35. APUD tizimining organizm homeostazidagi o'rni qanday?
36. APUD tizimi va klassik endokrin bezlar o'rtasidagi farq nimada?
37. APUD tizimining neyroendokrin regulyatsiyadagi ahamiyatini tushuntiring.
38. Diffuz joylashuvning funksional afzalligi nimada?

Mustaqil tayyorgarlik uchun testlar

1. Nafas olish tizimining asosiy vazifasi:

- A) Ovqat hazm qilish
- B) Gaz almashinuvi
- C) Qon hosil qilish
- D) Gormon ishlab chiqarish

Javob: B

2. Gaz almashinuvi qayerda sodir bo'ladi?

- A) Bronxlar
- B) Traxeya
- C) Alveolalar
- D) Plevra

Javob: C

3. O'pkaning struktur-funksional birligi:

- A) Lobus
- B) Segment
- C) Alveola
- D) Bronxiola

Javob: C

4. Traxeya devorida qanday tog‘ay mavjud?

- A) Elastik
- B) Tolali
- C) Gialin
- D) Suyak

Javob: C

5. O‘ng o‘pka nechta bo‘lakdan iborat?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

Javob: B

6. Chap o‘pka nechta bo‘lakdan iborat?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 1

Javob: A

7. O‘pkani tashqi tomondan qoplaydigan parda:

- A) Perikard
- B) Plevra
- C) Periton
- D) Fasciya

Javob: B

8. Nafas markazi qayerda joylashgan?

- A) O‘rta miya
- B) Uzunchoq miya
- C) Miyacha
- D) Talamus

Javob: B

9. Surfaktant qaysi hujayralar tomonidan ishlab chiqariladi?

- A) I-tip pnevmotsit
- B) II-tip pnevmotsit
- C) Makrofag
- D) Endoteliy

Javob: B

10. Nafas olishning asosiy muskuli:

- A) Qovurg'alararo muskullar
- B) Diafragma
- C) Qorin muskullari
- D) Ko'krak muskullari

Javob: B

11. Plevra bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi natijasida o'pka siqildi. Qanday holat?

- A) Emfizema
- B) Plevral ekssudat
- C) Atelektaz
- D) Bronxit
- E) Astma

Javob: B

12. CO bilan zaharlanishda gemoglobinning kislorod tashish qobiliyati kamayadi. Sabab?

- A) Alveola shikastlanishi
- B) Karboksigemoglobin hosil bo'lishi
- C) Surfaktant yetishmovchiligi
- D) Bronx torayishi
- E) Eritrotsit kamayishi

Javob: B

13. Nafas chiqarish paytida ko'krak qafasi hajmi kamayadi. Qaysi jarayon sodir bo'ladi?

- A) Diafragma qisqaradi

- B) Diafragma bo'shashadi
- C) Plevra bosimi pasayadi
- D) O'pka kengayadi
- E) Qovurg'alar ko'tariladi

Javob: B

14. Astmatik xurujda xirillash sababi?

- A) Alveola kollapsi
- B) Bronx torayishi
- C) Plevra yallig'lanishi
- D) Surfaktant ko'payishi
- E) Interstitsial shish

Javob: B

15. O'pka fibrozida asosiy buzilish turi?

- A) Obstruktiv
- B) Restriktiv
- C) Sekretor
- D) Gemodinamik
- E) Nevrologik

Javob: B

16. 60 yoshli KOAH bilan og'rigan bemorda ABG natijasi:

pH – 7.32

PaCO₂ – 60 mmHg

HCO₃⁻ – 32 mEq/L

Bu qaysi holatni ko'rsatadi?

- A) O'tkir respirator asidoz
- B) Surunkali respirator asidoz kompensatsiyalangan
- C) Metabolik asidoz
- D) Respirator alkaloz
- E) Aralash buzilish

Javob: B

17. 25 yoshli ayolda to'satdan nafas qisishi va ko'krak og'rig'i paydo bo'ldi.

ABG:

pH – 7.48

PaCO₂ – 30 mmHg

PaO₂ – 60 mmHg

V/Q nisbati oshgan. Eng ehtimoliy tashxis?

- A) Astma
- B) Pnevmoniya
- C) O'pka emboliyasi
- D) KOAH
- E) Atelektaz

Javob: C

18. Yotib qolgan bemorda pastki o'pka bo'limlarida alveola kollapsi kuzatildi.

V/Q nisbati kamaygan. Qaysi jarayon ustun?

- A) O'lik bo'shliq ventilyatsiyasi
- B) Shunt hosil bo'lishi
- C) Giperventilyatsiya
- D) Bronx spazmi
- E) Surfaktant ortishi

Javob: B

19. Bemor kuchli tashvish xurujida tez va chuqur nafas olmoqda. ABG:

pH – 7.52

PaCO₂ – 25 mmHg

HCO₃⁻ – 24

Tashxis?

- A) Metabolik alkaloz
- B) O'tkir respirator alkaloz
- C) Surunkali respirator asidoz
- D) Aralash asidoz
- E) Laktatsidoz

Javob: B

20. Og'ir pnevmoniyada alveolalar suyuqlik bilan to'lgan. PaO₂ pasaygan, ammo 100% kislorod berilganda ham sezilarli yaxshilanmaydi. Sabab?

- A) Diffuziya buzilishi
- B) Bronx spazmi
- C) Anatomik shunt
- D) Giperventilyatsiya
- E) O'lik bo'shliq ortishi

Javob: C

21. O'pka emfizemasi bo'lgan bemorda DLCO (diffuziya qobiliyati) kamaygan. Bunga sabab?

- A) Bronx spazmi
- B) Alveolyar yuzaning kamayishi
- C) Surfaktant ko'payishi
- D) Plevra qalinlashuvi
- E) CO₂ ortishi

Javob: B

22. Yangi tug'ilgan chaqaloqda respirator distress sindromi. Qaysi modda profilaktika uchun homiladorlik davrida beriladi?

- A) Insulin
- B) Progesteron
- C) Betametazon
- D) Adrenalin
- E) Heparin

Javob: C

23. Baland tog' sharoitida uzoq yashovchi odamda qaysi o'zgarish kuzatiladi?

- A) PaO₂ oshadi
- B) Eritropoetin kamayadi
- C) Gemoglobin kamayadi

- D) 2,3-BFG ortadi
- E) Alveola soni kamayadi

Javob: D

24. Astmatik bemorda V/Q nisbat qaysi yo‘nalishda o‘zgaradi?

- A) Ortadi (dead space)
- B) Kamayadi
- C) O‘zgarmaydi
- D) Nolga teng
- E) Cheksizga intiladi

Javob: B

25. Markaziy nafas markazi opioid bilan bostirilgan. Qaysi ABG natija kutiladi?

- A) pH ↑, CO₂ ↓
- B) pH ↓, CO₂ ↑
- C) pH normal, CO₂ ↓
- D) HCO₃⁻ ↓
- E) PaO₂ ↑

Javob: B

26. Buyrakning struktur-funksional birligi:

- A) Glomerula
- B) Nefron
- C) Piramida
- D) Kaliks

Javob: B

27. Birlamchi siydik qayerda hosil bo‘ladi?

- A) Henle halqasi
- B) Distal kanalcha
- C) Glomerula
- D) Siydik nayi

Javob: C

28. Buyrakning po'stloq qismi qayerda joylashgan?

- A) Ichki qismida
- B) Tashqi qismida
- C) Markazida
- D) Tos qismida

Javob: B

29. ADH qaysi jarayonni kuchaytiradi?

- A) Filtratsiya
- B) Reabsorbsiya
- C) Sekretsia
- D) Diurez

Javob: B

30. 65 yoshli diabetik bemorda proteinuriya va GFR pasayishi aniqlangan.

Eng ehtimoliy patogenez?

- A) O'tkir tubulyar nekroz
- B) Glomerulyar bazal membrana qalinlashuvi
- C) Interstitsial nefrit
- D) Buyrak arteriyasi stenozi
- E) Piyelonefrit

Javob: B

31. Bemor ko'p qusishdan so'ng:

pH – 7.49

HCO₃⁻ – 34 mEq/L

PaCO₂ – 47 mmHg

Buyrak kompensatsiyasi qanday?

- A) H⁺ sekretsiyasi ortadi
- B) HCO₃⁻ chiqarilishi ortadi
- C) NH₄⁺ kamayadi
- D) Renin kamayadi
- E) K⁺ qayta so'rilishi kamayadi

Javob: B

32. Buyrak arteriyasi stenozi bo'lgan bemorda arterial gipertenziya rivojlangan. Qaysi tizim faollashadi?

- A) ANP
- B) RAAS
- C) ADH pasayadi
- D) Eritropoetin kamayadi
- E) Aldosteron kamayadi

Javob: B

33. O'tkir qon yo'qotishdan so'ng siydik miqdori kamaydi. Qaysi mexanizm asosiy?

- A) ANP ortishi
- B) ADH sekretsiyasi ortishi
- C) GFR ortishi
- D) Natriy chiqarilishi ortishi
- E) PTH ortishi

Javob: B

34. Bemor ACE-ingibitor qabul qilmoqda. Qaysi o'zgarish kutiladi?

- A) Efferent arteriola torayadi
- B) GFR ortadi
- C) Efferent arteriola kengayadi
- D) Renin kamayadi
- E) Aldosteron ortadi

Javob: C

35. O'tkir tubulyar nekrozda qaysi belgi xos?

- A) Proteinuriya >3.5 g
- B) Gialin silindrlar
- C) Granulyar "muddy brown" silindrlar
- D) Gematuriya
- E) Glyukozuriya

Javob: C

36. Metabolik asidozda buyrak qanday kompensatsiya qiladi?

- A) H^+ sekretsiyasini kamaytiradi
- B) NH_4^+ chiqarilishini oshiradi
- C) HCO_3^- chiqarilishini oshiradi
- D) Aldosteronni kamaytiradi
- E) ADHni kamaytiradi

Javob: B

37. Nefrotik sindromda asosiy mexanizm?

- A) Tubulyar shikastlanish
- B) Glomerulyar filtr to'sig'i buzilishi
- C) Interstitsial fibroz
- D) RAAS bloklanishi
- E) ADH yetishmovchiligi

Javob: B

38. Diabetik ketoatsidozli bemorda:

pH – 7.20

HCO_3^- – 12

$PaCO_2$ – 25

Bu qaysi kompensatsiya?

- A) Metabolik alkaloz
- B) Respirator kompensatsiyali metabolik asidoz
- C) Respirator asidoz
- D) Aralash alkaloz
- E) Surunkali asidoz

Javob: B

39. Bemor ko'p suv ichadi va ko'p siydik ajratadi. ADH yetishmovchiligi aniqlangan. Tashxis?

- A) SIADH
- B) Nefrotik sindrom

- C) Qandli diabet
- D) Markaziy diabet insipidus
- E) Piyelonefrit

Javob: D

40. SIADHda qaysi laborator belgi kuzatiladi?

- A) Gipernatremiya
- B) Siydik osmolyaligi past
- C) Giponatremiya
- D) GFR ortishi
- E) Poliuriya

Javob: C

41. Proksimal tubulada qaysi modda to'liq qayta so'riladi (normal sharoitda)?

- A) Kreatinin
- B) Inulin
- C) Glyukoza
- D) Paraaminohippurat
- E) Urea

Javob: C

42. GFRni aniqlash uchun eng aniq modda?

- A) Kreatinin
- B) Inulin
- C) Natriy
- D) Urea
- E) Glyukoza

Javob: B

43. Kaliy tejoychi diuretiklar qayerga ta'sir qiladi?

- A) Proksimal tubula
- B) Henle halqasi
- C) Distal tubula boshlanishi

D) Yig'uvchi nay

E) Glomerula

Javob: D

44. Loop diuretiklar qaysi tashuvchini bloklaydi?

A) Na/Cl kotransporter

B) Na/K/2Cl kotransporter

C) Na/H almashinuvi

D) Aquaporin

E) Na/K ATPaza

Javob: B

45. Postrenal o'tkir buyrak yetishmovchiligida asosiy sabab?

A) Glomerulonefrit

B) Nefrotoksin

C) Siydik yo'li obstruksiyasi

D) Gipotenziya

E) Diabet

Javob: C

46. Surunkali buyrak yetishmovchiligida anemiya sababi?

A) Temir yetishmovchiligi

B) Eritropoetin kamayishi

C) Qon ketishi

D) Gemoliz

E) Folat yetishmovchiligi

Javob: B

47. Giperaldosteronizm da qaysi o'zgarish kuzatiladi?

A) Giperkalemiya

B) Giponatremiya

C) Gipokalemiya

D) Asidoz

E) Poliuriya

Javob: C

48. Buyrak toshi (kalsiy oksalat) ko‘pincha qaysi sharoitda hosil bo‘ladi?

- A) Gipokalsemiya
- B) Giperkalsemiya
- C) Giponatremiya
- D) Gipokapniya
- E) Gipofosfatemiya

Javob: B

49. Bemor NSAID ko‘p qabul qilgan. GFR pasaygan. Sabab?

- A) Efferent arteriola kengayishi
- B) Prostaglandin bloklanishi → afferent torayish
- C) Renin ortishi
- D) Aldosteron ortishi
- E) ADH ortishi

Javob: B

50. O‘tkir glomerulonefritda siydik tahlilida nimani ko‘ramiz?

- A) Lipid silindrlar
- B) Eritrotsit silindrlari
- C) Granulyar silindrlar
- D) Oqsil yo‘q
- E) Glyukoza ko‘p

Javob: B

51. Erkak jinsiy bezlari:

- A) Tuxumdon
- B) Moyak
- C) Bachadon
- D) Prostata

Javob: B

52. Testosteron qayerda ishlab chiqariladi?

- A) Sertoli hujayralari

- B) Leydig hujayralari
- C) Spermatogoniya
- D) Prostata

Javob: B

53. Ayol jinsiy hujayrasi:

- A) Spermatozoid
- B) Ovotsit
- C) Zigota
- D) Blastula

Javob: B

54. Urug‘lanish qayerda sodir bo‘ladi?

- A) Bachadon
- B) Tuxumdon
- C) Bachadon nayi
- D) Qin

Javob: C

55. Estrogenlar qayerda ishlab chiqariladi?

- A) Gipofiz
- B) Bachadon
- C) Tuxumdon
- D) Buyrak

Javob: C

56. 28 yoshli ayolda amenoreya va galaktoreya kuzatilmoqda. Prolaktin darajasi yuqori. Eng ehtimoliy tashxis?

- A) PCOS
- B) Gipotalamik amenoreya
- C) Prolaktinoma
- D) Asherman sindromi
- E) Tuxumdon yetishmovchiligi

Javob: C

57. Erkakda bepushtlik. Sperma tahlilida azospermiya, FSH yuqori. Sabab?

- A) Gipofiz yetishmovchiligi
- B) Testikulyar yetishmovchilik
- C) Prolaktin ortishi
- D) Varikotsele
- E) Erektal disfunktsiya

Javob: B

58. 16 yoshli qizda birlamchi amenoreya. Bachadon yo‘q, ammo tuxumdonlar normal. Kariotip 46XX. Tashxis?

- A) Turner sindromi
- B) Androgen insensitivlik
- C) Mayer-Rokitansky sindromi
- D) PCOS
- E) Kallmann sindromi

Javob: C

59. 32 yoshli ayolda hayz sikli noturg‘un, semizlik va giperandrogenizm mavjud. LH/FSH nisbati yuqori. Tashxis?

- A) Giperprolaktinemiya
- B) PCOS
- C) Endometrioz
- D) Gipotiroidizm
- E) Prematur menopauza

Javob: B

60. Erkak jinsiy gormoni ishlab chiqarilishi qayerda sodir bo‘ladi?

- A) Sertoli hujayralar
- B) Leydig hujayralar
- C) Prostata
- D) Epididimis
- E) Seminal vezikula

Javob: B

61. Yosh ayolda og‘riqli hayz (dismenoreya) va bepushtlik. Endometriy to‘qimasi tuxumdon tashqarisida aniqlangan. Tashxis?

- A) Myoma
- B) Adenomioz
- C) Endometrioz
- D) PCOS
- E) Salpingit

Javob: C

62. Erkakda Klinefelter sindromi (47XXY). Qaysi belgi xos?

- A) Testosteron yuqori
- B) Ginekomastiya
- C) FSH past
- D) Fertillik normal
- E) LH past

Javob: B

63. Homiladorlikning 6-haftasida progesteron qaysi tuzilma tomonidan ishlab chiqariladi?

- A) Gipofiz
- B) Plasenta
- C) Korpus luteum
- D) Endometriy
- E) Follikula

Javob: C

64. Ektopik homiladorlik ko‘pincha qayerda joylashadi?

- A) Bachadon bo‘yni
- B) Tuxumdon
- C) Ampulyar qism
- D) Istmus
- E) Qorin bo‘shlig‘i

Javob: C

65. Yosh erkakda epididimit. Ko‘pincha sababchi mikroorganizmlar?

- A) E. coli
- B) HPV
- C) Candida
- D) Mycobacterium
- E) CMV

Javob: A

66. Ovulyatsiya qaysi gormon pikiga bog‘liq?

- A) FSH
- B) Estrogen
- C) LH
- D) Progesteron
- E) Prolaktin

Javob: C

67. Ayolda menopauza davrida qaysi gormon ortadi?

- A) Estrogen
- B) Progesteron
- C) FSH
- D) Inhibin
- E) Prolaktin

Javob: C

68. Testikulyar torsiyada asosiy patogenez?

- A) Infeksiya
- B) Vena oqimi buzilishi
- C) Arterial spazm
- D) Sperma to‘planishi
- E) Testosteron kamayishi

Javob: B

69. Implantatsiya qachon sodir bo‘ladi?

- A) Urug‘lanishdan 1 kun o‘tib

- B) 3-kuni
- C) 6–7-kuni
- D) 14-kuni
- E) 21-kuni

Javob: C

70. Homiladorlik testi nimani aniqlaydi?

- A) Progesteron
- B) Estrogen
- C) hCG
- D) LH
- E) FSH

Javob: C

71. Gipogonadotrop gipogonadizmida qaysi o'zgarish kuzatiladi?

- A) LH/FSH yuqori
- B) LH/FSH past
- C) Testosteron yuqori
- D) Prolaktin yuqori
- E) Estradiol yuqori

Javob: B

72. Spermatogenez qaysi tuzilmada sodir bo'ladi?

- A) Leydig hujayralar
- B) Sertoli hujayralar
- C) Seminifer naychalar
- D) Epididimis
- E) Prostata

Javob: C

73. Placenta previa qaysi holatda xavfli?

- A) Bachadon fundusida joylashsa
- B) Serviksni yopib qo'ysa
- C) Tuxumdon yaqinida bo'lsa

D) Endometriy yupqa bo'lsa

E) Plasenta kichik bo'lsa

Javob: B

74. Progesteronning asosiy vazifasi?

A) Ovulyatsiyani chaqirish

B) Endometriyni proliferatsiya qilish

C) Homiladorlikni saqlash

D) LH sekretsiyasini oshirish

E) FSHni oshirish

Javob: C

75. Erkakda erektsiya mexanizmi asosan nimaga bog'liq?

A) Simpatik faollik

B) NO (azot oksidi) chiqarilishi

C) Testosteron ko'payishi

D) Prolaktin ortishi

E) LH ortishi

Javob: B

76. "Markaziy endokrin bez" deb ataladi:

A) Qalqonsimon bez

B) Gipofiz

C) Buyrak usti bezi

D) Epifiz

Javob: B

77. Insulin qaysi hujayralar tomonidan ishlab chiqariladi?

A) Alfa

B) Beta

C) Delta

D) PP

Javob: B

78. Aldosteron qaysi zonada ishlab chiqariladi?

A) Glomerulosa

B) Fasciculata

C) Reticularis

D) Medulla

Javob: A

79. Melatonin qaysi bezda ishlab chiqariladi?

A) Gipofiz

B) Qalqonsimon bez

C) Epifiz

D) Buyrak usti bezi

Javob: C

80. Tiroksin qaysi bezda ishlab chiqariladi?

A) Gipofiz

B) Qalqonsimon bez

C) Paratireoid

D) Buyrak usti

Javob: B

81. AKTG qaysi bezga ta'sir qiladi?

A) Qalqonsimon bez

B) Buyrak usti po'stlog'i

C) Tuxumdon

D) Pankreas

Javob: B

82. Qandli diabet qaysi gormon yetishmovchiligi bilan bog'liq?

A) Glukagon

B) Insulin

C) Kortizol

D) ADH

Javob: B

83. Paratgormon qaysi modda almashinuvini boshqaradi?

- A) Natriy
- B) Glyukoza
- C) Kalsiy
- D) Temir

Javob: C

84. Feoxromotsitoma qaysi qism o'smasi?

- A) Korteks
- B) Medulla
- C) Gipofiz
- D) Epifiz

Javob: B

85. Qandsiz diabet qaysi gormon yetishmovchiligi bilan bog'liq?

- A) Insulin
- B) Kortizol
- C) ADH
- D) Tiroksin

Javob: C

85. 35 yoshli ayolda yuz yumaloqlashishi, markaziy semirish, arterial gipertenziya va terida binafsha striyalar kuzatilmoqda. Qonda kortizol miqdori yuqori. Eng ehtimoliy tashxis?

- A) Addison kasalligi
- B) Konn sindromi
- C) Kushing sindromi
- D) Feoxromotsitoma
- E) Gipotiroidizm

Javob: C

86. 28 yoshli erkakda to'satdan paydo bo'ladigan arterial bosim ko'tarilishi, yurak urish tezlashishi va kuchli terlash xurujlari kuzatiladi. Siydikda katexolaminlar yuqori. Qaysi o'sma ehtimoli yuqori?

- A) Insulinoma
- B) Prolaktinoma
- C) Feoxromotsitoma
- D) Glukagonoma
- E) Somatotropinoma

Javob: C

87. Bolada bo'y o'sishining keskin ortishi, qo'l-oyoqlarning kattalashishi kuzatilmoqda. Epifiz plastinkalari yopilmagan. Qaysi gormon ortiqcha?

- A) Prolaktin
- B) AKTG
- C) Somatotrop gormon
- D) Tiroksin
- E) Insulin

Javob: C

88. 45 yoshli erkakda qo'l panjalari va pastki jag' kattalashgan. Rentgenogrammada suyak qalinlashgan. Qaysi tashxis to'g'ri?

- A) Gigantizm
- B) Akromegaliya
- C) Gipotiroidizm
- D) Addison kasalligi
- E) Nanizm

Javob: B

89. Bemorda poliuriya va kuchli chanqoqlik kuzatiladi. Qonda glyukoza normal. ADH darajasi past. Tashxis?

- A) Qandli diabet
- B) Qandsiz diabet
- C) Kushing sindromi
- D) Gipertiroidizm
- E) Glomerulonefrit

Javob: B

90. Yangi tug‘ilgan chaqaloqda qalqonsimon bez gormonlari yetishmovchiligi aniqlangan. Davolanmasa qanday holat rivojlanadi?

- A) Gigantizm
- B) Kretinizm
- C) Akromegaliya
- D) Giperkalsemiya
- E) Addison kasalligi

Javob: B

91. 40 yoshli ayolda mushak zaifligi, gipertenziya va qonda kaliy miqdori past. Aldosteron darajasi yuqori. Qaysi zona zararlangan?

- A) Zona fasciculata
- B) Zona reticularis
- C) Zona glomerulosa
- D) Medulla
- E) Gipofiz

Javob: C

92. Yosh erkakda jinsiy yetilish kechikkan. LH va FSH past. Qaysi bez zararlangan?

- A) Qalqonsimon bez
- B) Buyrak usti bezi
- C) Gipofiz
- D) Epifiz
- E) Paratireoid

Javob: C

93. Bemorda qo‘l titrashi, taxikardiya, vazn yo‘qotish va ko‘z chaqchayishi mavjud. Qaysi gormon ortiqcha?

- A) Kortizol
- B) Insulin
- C) Tiroksin
- D) Aldosteron

E) ADH

Javob: C

94. Og‘ir qon yo‘qotishdan so‘ng bemorda arterial bosim tushib ketdi. Qaysi gormon tezkor kompensatsiyada muhim rol o‘ynaydi?

A) Insulin

B) Paratgormon

C) Adrenalin

D) Melatonin

E) Prolaktin

Javob: C

95. Bemor uzoq muddat glyukokortikoid qabul qilgan. Dori to‘xtatilgach holati og‘irlashdi. Sabab?

A) Gipoglikemiya

B) Buyrak usti po‘stlog‘i atrofiyasi

C) Qalqonsimon bez gipertrofiyasi

D) Insulin ortishi

E) ADH yetishmovchiligi

Javob: B

96. Ayolda galaktoreya va amenoreya kuzatilmoqda. Gipofiz MRTda o‘sma aniqlandi. Qaysi gormon ortiqcha?

A) AKTG

B) Prolaktin

C) STG

D) TSH

E) LH

Javob: B

97. Bemorda tetaniya, mushak spazmlari va qonda kalsiy kamayishi aniqlangan. Qaysi gormon yetishmovchiligi?

A) Tiroksin

B) Kortizol

- C) Paratgormon
- D) Aldosteron
- E) Insulin

Javob: C

98. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorda hushdan ketish va qonda glyukoza keskin pasayish kuzatildi. Sabab?

- A) Insulin yetishmovchiligi
- B) Insulin ortiqcha yuborilishi
- C) Kortizol ortishi
- D) ADH yetishmovchiligi
- E) Tiroksin ortishi

Javob: B

99. Erkak bemorda bepushtlik aniqlangan. Spermatogenez buzilgan, testosteron past. Qaysi hujayralar zararlangan?

- A) Sertoli
- B) Leydig
- C) Spermatid
- D) Fibroblast
- E) Makrofag

Javob: B

100. Keksalarda uyqu buzilishi va sutkalik ritmning o‘zgarishi qaysi bez funksiyasi kamayishi bilan bog‘liq?

- A) Gipofiz
- B) Qalqonsimon bez
- C) Epifiz
- D) Buyrak usti bezi
- E) Paratireoid

Javob: C

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Gray's Anatomy**. Standring S. (Ed.). Elsevier, 2016.
2. **Clinically Oriented Anatomy**. Moore K.L., Dalley A.F., Agur A.M.R. Wolters Kluwer, 2018.
3. **Anatomiya cheloveka. T. 1** [Tekst] : uchebnik v 2-x tomax / M. R. Sapin [i dr.].
4. Gayvoronskiy I.V. **Anatomiya cheloveka: v 2 t. T.1. Sistema organov opory i dvijeniya. Splanxnologiya: uchebnik** / I. V. Gayvoronskiy, G. I. Nichiporuk, A. I. Gayvoronskiy; pod red. I. V. Gayvoronskogo. – M.: GEOTAR-Media, 2014. – 688 s. – ISBN 978-5-9704-2804-7.
5. Gayvoronskiy I. V. **Normalnaya anatomiya cheloveka. T. 1** – M.: GEOTAR-Media, 2013. – 528 s.
6. Kabanov N. A. **Anatomiya cheloveka: uchebnik dlya vuzov** / N. A. Kabanov. — Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2025. — 464 s. — (Vysshee obrazovanie). — ISBN 978-5-534-09075-8. — Tekst: elektronnyy // Obrazovatel'naya platforma Yurayt [sayt]. — URL: <https://urait.ru/bcode/565309> (data obrashcheniya: 15.03.2025).
7. Kozlov V. I. **Anatomiya cheloveka: uchebnik dlya meditsinskix vuzov.** – M.: Prakticheskaya Meditsina, 2018. – 744 s.
8. Sinelnikov R. D. **Atlas anatomii cheloveka (3 tom).** – 2009 g.
9. **Human Anatomy & Physiology**. Marieb E.N., Hoehn K. Pearson, 2019.
10. **Ross & Wilson Anatomy and Physiology in Health and Illness**. Waugh A., Grant A. Elsevier, 2022.
11. **Sobotta Atlas of Human Anatomy**. Paulsen F., Waschke J. Elsevier, 2018.
12. **Atlas of Human Anatomy**. Netter F.H. Elsevier, 2019.
13. **Textbook of Medical Physiology**. Hall J.E. Elsevier, 2021.
14. **Langman's Medical Embryology**. Sadler T.W. Wolters Kluwer, 2019.
9. **Respiratory Physiology: The Essentials**. West J.B. Wolters Kluwer, 2016.
10. **Murray & Nadel's Textbook of Respiratory Medicine**. Broaddus V.C. et al. Elsevier, 2016.

11. **Functional Anatomy of the Respiratory System.** Weibel E.R. Springer, 2017.
12. **Brenner and Rector's The Kidney.** Taal M.W. et al. Elsevier, 2020.
13. **Campbell-Walsh-Wein Urology.** Partin A.W. et al. Elsevier, 2021.
14. **Renal Physiology.** Eaton D.C., Pooler J.P. McGraw-Hill, 2019.
15. **Williams Gynecology.** Hoffman B.L. et al. McGraw-Hill, 2020.
16. **Williams Obstetrics.** Cunningham F.G. et al. McGraw-Hill, 2022.
17. **Male Reproductive System.** Nieschlag E., Behre H.M. Springer, 2010.
18. **Human Reproductive Biology.** Jones R.E., Lopez K.H. Academic Press, 2013.
19. **Williams Textbook of Endocrinology.** Melmed S. et al. Elsevier, 2020.
20. **Greenspan's Basic & Clinical Endocrinology.** Gardner D.G., Shoback D. McGraw-Hill, 2018.
21. **Endocrinology: Adult and Pediatric.** Jameson J.L. et al. Elsevier, 2016.
22. **Junqueira's Basic Histology.** Mescher A.L. McGraw-Hill, 2021.
23. **Clinical Anatomy.** Snell R.S. Wolters Kluwer, 2018.
24. **Color Atlas of Physiology.** Silbernagl S., Despopoulos A. Thieme, 2015.
25. **Principles of Anatomy and Physiology.** Tortora G.J., Derrickson B. Wiley, 2017.
26. **Atlas of Human Anatomy** (agonistik — chuqur anatomik tasvirlar).
27. **Sobotta Atlas of Human Anatomy** (detallangan atlas).
28. **Grant's Atlas of Anatomy** (klinik yoʻnalish bilan).
29. **Rohen's Photographic Anatomy Atlas** (real foto atlas).
30. **Color Atlas of Anatomy** (rangli vizual atlas).
31. **Clinically Oriented Anatomy Flashcards** (kartochkali vizual atlas).
32. **Atlas of Anatomy** (Umumiy anatomiya atlas).
33. **Atlas of Functional Neuroanatomy** (neyroanatomiya uchun).
34. **Color Atlas of Human Anatomy: Vol. 1–3** (3 hajmli atlas).
35. **Human Anatomy: Regional and Clinical** (klinika va anatomiya integratsiyasi).
36. **Clinical Human Anatomy** (anatomiya + klinik misollar).
37. **Essential Clinical Anatomy** (eng zaruriy qismlar).
38. **Anatomy: A Regional Atlas of the Human Body** (regionlar boʻyicha).

39. **Anatomy: An Essential Textbook** (tuzilgan qisqacha anatomiya).
40. **Pocket Atlas of Human Anatomy** (atlas).
41. **Atlas of Topographic Anatomy**.
42. **Atlas of Human Anatomy: Upper Limb**.
43. **Atlas of Human Anatomy: Lower Limb**.
44. **Atlas of Human Anatomy: Thorax & Abdomen**.
45. **Atlas of Human Anatomy: Head & Neck**.